

# **ZAMONAVIY FALSAFANING DOLZARB MUAMMOLARI**

## **MODULI BO'YICHA**

### **O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**SAMARQAND - 2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI**

**“ZAMONAVIY FALSAFANING DOLZARB  
MUAMMOLARI”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Falsafa**

**Samarqand -2023**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020  
yil “7”-dekabrdagi 648-sonli bayonnomasi bilan  
ma’qullangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:**

Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrasи professori S.Karimov, professor Sh.Qo’shoqov, dotsent M.Ergasheva, dotsent G.Sultonova

**Taqrizchilar:** Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrasи professori B.Turaev, f.f.n., dotsent M.Allayorova

**Xorijiy ekspert:** Xo’jand davlat universiteti madaniyatshunoslik kafedrasи dotsenti, f.f.n. R.T.Usanov (Tojikiston Respublikasi).

O‘quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universiteti ilmiy-metodik kengashi (2020 yil “28”-  
dekabrdagi 4- sonli bayonnomasi).

# MUNDARIJA

I. MODULNING IShChI DASTURI.....	5
II. INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	10
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	15
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	50
V. GLOSSARIY .....	69
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....	78
VII. EKSPERT XULOSALAR.....	80

## I. MODULNING IShChI DASTURI

### Kirish

Mazkur dastur rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy ta’lim sohasida erishgan yutuqlari hamda orttirgan tajribalari asosida “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari, Falsafa” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi uchun tayyorlangan namunaviy o‘quv reja hamda dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksakligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg‘un rivojlanishiga qanchalik yo‘naltirilganligi, innovatsiyalarni tadbiq etilganligi bilan ham o‘lchanadi. Demak, ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, chet el ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ta’lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. “Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” moduli aynan mana shu yo‘nalishdagi masalalarni hal etishga qaratilgan.

### Modulning maqsadi va vazifalari

“Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” Modulini o‘qitishdan maqsad: oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari bilan Falsafa Modulini o‘qitish jarayonida ahamiyat berish lozim bo‘lgan masalalar, Modulni o‘rganish va tahlil qilishga qaratilgan ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali ushbu yo‘nalishdagi ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish va mazmunan boyitish, Falsafaning dolzarb muammolari bo‘yicha ma’lumotlarni berish samaradorligini oshirishga yordam beradigan zamonaviy yondashuvlar bilan hamda pedagogik va axborot texnologiyalar bilan tanishtirish, ma’naviyat asoslari sohasida yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish.

### Modulning vazifalari:

- Falsafa yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- zamonaviy talablarga modulli tizimga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- Falsafa sohasi pedagoglari tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- Falsafa sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;
- Falsafaning ijtimoiy hayot va konfessiyalararo muammolarini o‘rganishning zamonaviy tendensiyalarini ishlab chiqish;
- Falsafa yo‘nalishlarida jahon dinlarini qiyosiy o‘rganishning globallashuv va diniy jarayonlar kontekstidagi masalalarni baholash;

- Falsafa yo‘nalishida o‘quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

## **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Falsafaning dolzarb muammolari” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

“Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili” modullari bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar tegishli ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari bilan belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

### **Tinglovchi:**

- O‘zbekistonda Falsafa fanining yangi taraqqiyoti, mustaqillikdan keyin O‘zbekistonda dinlarni o‘rganishga munosabatning o‘zgarishi va fanning ta’lim jarayoniga jalb etilishi muammolarini va uning rivojlanish istiqbollarini;

- jahonda dinlarni o‘rganish tajribasi, globallashuv davrida dinlarni o‘rganishning dolzarbliyi, dinlarni o‘rganishdagi zamonaviy qarashlar va Falsafa fanining joriy holati va istiqboldagi vazifalarini;

- dinlarni o‘rganishning sharqona uslubi, bugungi kunda musulmon mamlakatlarida Falsafa fanining o‘qitilish yo‘llari bo‘yicha salohiyatni oshirib borish borasida muntazam ishslashni;

- Falsafa yo‘nalishida Markaziy Osiyo olimu ulamoalarining islom ilmlariga qo‘shgan hissasini va ijtimoiy hayot hamda diniy jarayonlar mohiyatini;

Falsafa fanlarida foydalaniladigan zamonaviy amaliy dasturlar majmualarini ***bilishi*** kerak.

### **Tinglovchi:**

- Falsafa fanining o‘qitish bo‘yicha yangi texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash;

- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib diniy manbalarni bag‘rikenglik jihatidan o‘rganish, diniy manbalar: muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar tadqiqi usullari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish;

- Qur’oni karim va hadislarda keltirilgan turli dinlar, dinlarni o‘rganishning sharqona uslubi, musulmon mamlakatlarida Falsafa fanining o‘qitilishini tahlil qilish va aks ettirish, xulosalar chiqarish, ilmiy maqlolalar tayyorlash, tavsiyalarini ishlab chiqish;

- Abu Rayhon Beruniy asarlarining Falsafani o‘rganishdagi o‘rnini, diniy manbalarni bag‘rikenglik jihatidan o‘rganish, muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar, tadqiq usullari bo‘yicha ilg‘or tajribalardan foydalanish;

- o‘z ustida ishlab, fanning yangi tadqiqotlarini o‘qitish tizimiga qo‘llash;

- Falsafa bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;

- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- Falsafa fanida axborot-kommunikatsion texnologiyalarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan qo‘llash;

- dirlarni o‘rganishdagi zamonaviy qarashlar, Sharq allomalarining asarlaridagi Falsafa masalalari bo‘yicha zamonaviy yo‘nalishlarni ishlab chiqish va ommalashtirish;

- Falsafa fanini ijtimoiy-ma’naviy sohalarga tatbiq qilish;

- Falsafa fanlarida dasturlar paketi yordamida muammolarni o‘rganishning zamonaviy usullarini qo‘llash ***malakalariga*** ega bo‘lishi zarur.

### **Tinglovchi:**

- Falsafa fanlarining dasturlar paketini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;

- Falsafa fanlari dasturlari paketi yordamida yechishning zamonaviy

masalalarini tahlil qila olish;

- Falsafa bo‘yicha kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;

- Falsafa videodarslarni tayyorlash;

- egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;

- Falsafa fanida tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish.

- Falsafa fanlarining dolzarb masalalariga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ilg‘or xorijiy mamlakatlarda biologiya o‘qitishni tashkil qilishning xorijiy tajribalarni o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar. So‘nggi yillarda Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari, Falsafa sohasidagi yutuqlar va istiqbollar oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim jarayonining mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				Кўчма машғулот	
		Хаммаси	Auditoriya o‘quv yuklamasi		Амалий машғулот		
			Жами	jumladan			
1.	Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni.	4	4	2	2		
2.	Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati.	4	4	2	2		
3.	Borliq falsafasi va uning zamonaviy konsepsiyalari.	4	4	2	2		
4.	Analitik falsafaning vujudga kelishi.	4	4	2	2		
5	Analitik falsafaning funksional xarakteristikasi.	4	4	2	2		
<b>Jami:</b>		<b>20</b>	<b>20</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>0</b>	

### NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

#### 1-Mavzu: Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni.

Mustaqillikdan keyin O‘zbekistonda Falsafani o‘rganishga munosabatning o‘zgarishi va fanning ta’lim jarayoniga jalb etilishi. Falsafaning dolzarb muammolari. **2-Mavzu: Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati.**

O‘zbekistonda Falsafaning istiqboli va mavjud muammolar. Falsafaga berilgan ta’riflar. **3-Mavzu: Borliq falsafasi va uning zamonaviy konsepsiyalari.**

Globallashuv davrida Falsafani o‘rganishning dolzarbligi. Falsafani o‘rganishdagi zamonaviy qarashlar.

#### 4-Mavzu: Analitik falsafaning vujudga kelishi.

Analitik falsafaning vujudga kelishi. Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari. Analitik falsafaning funksional xarakteristikasi. Analitik epistemologiya. **5-Mavzu: Analitik falsafaning funksional xarakteristikasi.**

Tarkibiy funksional tahlil. Borliq falsafasi va uning zamonaviy konsepsiyalari. Fanda metod va metodologiya tushunchasi. Ilmiy bilish metodlari.

Hozirgi zamon metodologiyasi: kumatoid, keys stadi, abduksiya.

### AMALIY MASHG‘ULOTLAR

#### 1-Amaliy mashg‘ulot. Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni.

**2-Amaliy mashg‘ulot.** Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati.

**3-Amaliy mashg‘ulot.** Borliq falsafasi va uning zamonaviy konsepsiyalari.

**4-Amaliy mashg‘ulot.** Analistik falsafaning vujudga kelishi.

**5-Amaliy mashg‘ulot.** Analistik falsafaning funksional xarakteristikasi.

## II. INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodidan foydalanish

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Ana'naviy va zamonaviy ta'lif shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

	Oddiy ma'rizada ma'ruzachi talabalar, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera oladi	Muammoli ma'rizada kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular talabalar ongiga singdirib beriladi
	O'qituvchi asosan o'zi va a'lochi, qiziquvchi talabalar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli talabalar qamrab olinadi	Muammoli ma'rizada ko'p sonli talabalar, tinglovchilar qamrab olinadi
	Oddiy ma'rizada faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gapashiladi	Muammoli ma'rizada muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalar tuhilishi mumkin.
	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, talaba uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, talabalarni mavzudan chetga burishga intilishlari

### Rezyume, Veer metodidan foydalanish

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik,

fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida foydalanish mumkin.



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarg ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, bir guruhga umumiy muammoni tahlil aqilishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini taysiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatma, o'shma bayon qiladi,



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtirilishi

### Namuna:

Falsafadan malaka talablari					
Sobiq standartlar		Amaldagi standartlar		Takomillashtirilgan standartlar	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

### "FSMU" metodidan foydalanish

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash,

shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatlari o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

#### **Namuna.**

**Fikr:** “Falsafadan malaka talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.


**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

#### **Venn Diagrammasi metodidan foydalanish**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi. **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

## Namuna: Falsafani turli yo‘nalishlarda o‘qitishning farqli jihatlari



Ижодий фаолият ва манти~~кий~~ий фикрлашни  
ривожлантиришга  
йўналтирилган интерактив методлар:

“Идрок харитаси”

“Эссе”

“ФСМУ”

“Кластер”

“Гурӯҳларда ишилаш”

Ўқув жараёнида муаммолар ва муаммоли  
вазиятларни ечишга йўналтирилган интерфаол  
методлар

“CWOТуниверсал  
таҳдил”

“Дебат”,

*Муаммоли вазият  
яратиш*

“Резюме”,



## MA’RUZALAR MAZMUNI (10 soat ma’ruza)

### 1-MA’RUZA: FALSAFA FANINING ZAMONAVIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O’RNI

1. Mustaqillikdan keyin O’zbekistonda Falsafani o’rganishga munosabatning o’zgarishi va fanning ta’lim jarayoniga jalg etilishi.
2. Falsafaning dolzarb muammolari.
3. Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o’rni

Istiqlol Falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Ma’lumki, hayotdagi voqealarni barchasi ijtimoiy ongda aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davrlar o’zgarishi bilan unga xos ma’naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo bu o‘zo‘zidan yuz bermaydi. Ayniqsa, inson tafakkurining o’zgarishi, dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo‘lishi uzoqdavom etadigan murakkab jarayondir. Bu hol bizning kunlarimizda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi kunda jamiyatimizda istiqlol g‘oyalariqa asoslanadigan yangi dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifa bo‘lib turibdi. Zero, inson dunyoqarashini, uning asosiy tamoyillarini o‘zgartirmasdan, yangi jamiyatni qurish qiyin. Bu jarayonning qonuniyatlarini va o‘ziga xos xususiyatlari Birinchi Prezident Islom Karimovning asarlarida asoslab berilgan edi.

Istiqlol talablari darajasida falsafiy tafakkurni yangilash vazifalarini bajarish g‘oyat murakkab bo‘lib, quyidagi qator muammolarni hal qilishni taqozo etmoqda:

- mustabid tuzum mafkurasining ijtimoiy, ma’naviy va falsafiy sohalardagi asoratlarini bartaraf etish;
- kishilar ongi va turmush tarzidan sobiq tuzumga xos g‘ayriinsoniy tamoyillarni siqib chiqarish;
- O’zbekiston falsafasida jahon falsafiy tafakkuri yutuqlaridan yanada kengrok, foydalanish;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonida nafaqat oddiy fuqaro, balki ziyoli va falsafa mutaxassislarining ongida hamon saqlanib kelayotgan loqaydlik va mutelik kabi kayfiyatlarga barham berish;
- ma’naviy merosimizni qayta tiklash va ijodiy rivojlantirish jarayonida buyuk ajdodlarimiz falsafiy merosini yanada keng va chuqurroq o’rganish;
- falsafiy adabiyotlarni milliy manfaatlarimizga yanada ko‘proq moslash, qo‘llanma va darsliklarimizda milliy g‘oya va istiqol mafkurasini aks ettirish;
- istiklol talablariaga mos keluvchi sog‘lom g‘oyali ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash zaruratiga mos tadqiqotlar olib borish, ular asosida ta’limtarbiyaning samarali usul va imkoniyatlarini izlab topish;

— jahon, Shark, xalqlari falsafiy merosini puxta va chuqur o‘rganish, bu jarayonda turli g‘oya, mafkuralarning davlatlar hamda xalqlar taqdiriga ta’sirini aniq ko‘rsatish va shu asosda istiqlol mafkurasining tamoyillarini kishilar ongiga singdirish. Ana shu masalalarni uyg‘un holda hal qilish falsafiy dunyoqarashimizni yangilashga yordam beradi. Istiqlolga erishganimizdan buyon tarixan M ustakillik — qisqa davr o‘tgan bo‘lsa-da, mustaqil taraqf alsaf a qiyot mamlakatdagi ulkan imkoniyatlarni yangilanishining asosi ro‘yobga chiqarishning yagona va muhim omili ekani o‘zining to‘liq isbotini topdi. Zero, faqat mustaqillikkina har bir xalqqa o‘z falsafasini erkin rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Bugungi kunda mustaqillikni mustahkamlash jarayoni mohiyatini va falsafiy asoslarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmokda. Bunda asosiy masala shundan iboratki, mustakdlik odamlar dunyoqarashining mazmun-mohiyati va asosiy yo‘nalishlariga yangicha nuqtai nazardan qarashni taqozo etadi. Ularni yangi mazmun bilan boyitishni, istiqlol talablari asosida o‘rganishni zaruratga aylantiradi. Shu sababdan ham, bugungi kunda ko‘p qirrali va murakkab hodisa bo‘lgan falsafiy dunyoqarashning milliy davlatchilik hamda kishilarning g‘oyaviy yetukligini ta’minalash ehtiyojiga xizmat qiladigan jihatlariga e’tibor kuchaymokda. Shu bilan birga, mustabidlik zamonidagi tafakkur qulligi, doimiy tazyiq, xalqning o‘z tarixiy ildizlaridan ajratib qo‘yilgani bilan bog‘liqholatlarning hozirgi dunyoqarashdagi o‘zgarishlar jarayonlariga ta’siriga ham e’tibor berish lozim. Ilm-fan sohasidagi tub o‘zgarish va yangilanishlar jarayoni to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin. Aynan mustakdlik dunyoqarashimizni mustabidlik sirtmoqlaridan xalos etdi. Aslini olganda, ushbu mavzuni o‘rganish ham istiuyul sharofatidir. Mustaqil taraqqiyot ma’naviy yangilanish borasidagi asosiy omil ekani har qanday mamlakat, jumladan, O‘zbekiston uchun ham tarixiy qonuniyatdir. Shu bilan birga, istiqlolning ma’no-mohiyatini kishilarga to‘g‘ri anglatish, ularni mustaqillik bergen imkoniyatlarni amalga oshirishga jalg etish bilan bog‘liq nazariy va amaliy faoliyat ham nihoyatda muhim. Mustaqillik yillarda falsafaning yangilanishi uchun zarur asoslar shakllandi. M oddiy-iqgisodiy asoslar. Eski, sobiqittifoqdavridagi ik^isodiyot yangi mazmundagi falsafani shakllantirish uchun asos bo‘la olmas edi. Istiqlol yillarda bu sohada nihoyatda katta o‘zgarish ro‘y berdi, mulkchilikning xilma-xil shakllari vujudga keldi. Iqtisodiy plyuralizm va bozor munosabatlari bunda bosh yo‘nalish qilib olingan bo‘lsa-da, aholini ijtimoiy himoyalash ustuvor jihat sifatida belgilandi. Ana shularning barchasi mamlakatimizda ma’naviy, jumladan falsafiy yangilanish borasida \am tub o‘zgarishlarning iqtisod bilan bog‘liq asoslarini yaratish imkonini berdi. I j tim oiy-siyosiy asoslar. Falsafaning siyosiy asoslar mustahkam bo‘lishi zarurligi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko‘p bor isbotlangan ijtimoiy haqiqatdir. Har qanday jamiyat va mamlakatda davlat xalqning turli qatlamlari, partiyalar, milliy-etnik birliklarning ijtimoiy ongini o‘zgartira olmasa, o‘zining pirovard maqsadlarini amalga oshirishi qiyin. Bugungi kunda jahon hamjamiatining teng huquksi a’zosiga aylangan O‘zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim hamda tuzilmalar vujudga keldi. Ana shularning barchasi yangi mazmundagi falsafani shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yaratish imkoniyatini ochdi. M a’naviy asoslar falsafaning yangilanishida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday falsafaning shakllanishi mamlakatda amalga oshayotgan ma’naviy sohadagi o‘zgarishlarning tarkibiy qismidir. Bu borada

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xalq ma’naviyatining tozalanishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka yetkazish bilan bog‘liq sa’y - harakatlar katta ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, tarix falsafasi, xalqimizning xotirasi, o‘tmishdagi avlodlar yaratgan boy madaniy merosdan to‘la - to‘kis foydalanish imkoniyati yaratilganini alohida ta’kidlash lozim. Falsafiy tafakkur yangilanishining mamlakatimiz hayotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqligi quyidagi masalalarни falsafiy taxdil etishni zaruratga aylantiradi: — bugungi kunda ro‘y berayotgan dunyoqarashni yangilash jarayonining tarixiy ildizlarini o‘rganish va falsafiy tahlil etish; — sobiq ittifokdagi ijtimoiy tanazzul va uning xalqimiz tafakkuridagi oqibatlarini tugatish; — istiqlolning falsafiy tafakkurni o‘zgartirish uchun yangi davrni boshlab bergani; — mamlakat mustaqilligini mustahkamlash jarayonida dunyoqarashning o‘zgarishida qanday asosiy tamoyil va yo‘nalishlar ko‘zga tashlangani; — bugungi kunda falsafiy dunyoqarashning yangilanishiga ta’sir ko‘rsatayotgan zamonaviy omillar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Falsafiy ongning FalsaFiy ongning yangilanishi - serqirra jarayon. U juda keng ijtimoiy mazmunga ega bo‘lish xususiyatlari bo‘lib, jamiyat ma’navii haeti, mafkurasi, madaniyati va ta’limi tizimidagi yan gilanish, odamlarning ruhiy poklanishi, sobiq ittifoqdan qolgan qaramlik kayfiyatidan xalos bo‘lish jarayonining tarkibiy qismidir. Falsafiy dunyoqarash o‘zgarishining muhim jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Birinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi ijtimoiy jarayondir. Ya’ni u, avvalo, taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tayotgan mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlardagi uzlusiz o‘zgarishning tarkibiy qismidir. Falsafadagi yangilanish jawww.ziyouz.com kutubxonasi miyatdan, o‘z davridan, ro‘y berayotgan ijtimoiy jarayonlardan tashqarida sodir bo‘ladigan hodisalar yig‘indisi emas. Balki u o‘zida ana shu ijtimoiy jarayonlarning barcha asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ikkinchidan, mustaqillikka erishgan va uni mustaqamlashga harakat qilayotgan mamlakatimiz uchun bu tarixiy zaruratdir. Ya’ni, u tasodifiy namoyon bo‘ladigan o‘tkinchi hodisa emas. Balki o‘tish davrining zaruriyati, jamiyatni tubdan isloh qilish, odamlarda yangicha tafakkurni shakllantirishdagi asosiy yo‘nalishlardan biridir. Uchinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi nafaqat umumiy ma’naviy muhitning, balki har bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi hamdir. Shy ma’noda, u buyuk alloma bobomiz Abu Nasr Forobiy orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantiradigan va takomillashtiradigan jarayondir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, u g‘oyat murakkab ruhiy o‘zgarishlar, odamlarning qullik psixologiyasi va mustabid tuzumga xos mafkuraviy asoratlardan xalos bo‘lish jarayoni hamdir. To‘rtinchidan, falsafiy ongning yangilanishi muayyan bir davrda amalga oshadi. Bu jarayon bizning mamlakatda o‘tish davriga to‘g‘ri kelmokda. Ana shu davrda ijtimoiy muhitda yangi jihatlar vujudga keladi, odamlarning ruhiyati, qarashlarida tub o‘zgarishlar ro‘y beradi. Besh inchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi inkor va vorislik jarayoni hamdir. Unda, bir tomondan, o‘zbek falsafasida azaldan mavjud bo‘lgan, hatto sobiq mustabid tuzum \am yo‘qota olmagan ko‘p jihatlarning sakutnib qolishi kuzatiladi. Ikkinci tomondan, yaqiningada ustuvor bo‘lgan ko‘pgina sinfiy-partiyaviy tamoyillar o‘tmishga aylanadi, inkor etiladi. Uchinchchi tomondan esa, falsafiy tafakkurda yangi yo‘nalishlar o‘z o‘rnini topadi. Falsafa yangilanish xususiyatlari o‘ziga xos namoyon bo‘ladi.

Dunyoqarashning yangilanishi keng qamrovli tushuncha sifatida xilmaxil xususiyat va yo‘nalishlarga ega. Avvalo, uning har bir kishiga xos individual ong bilan uzviy aloqadorligi va unga tayanishini alohida ta’kidlash lozim. Bu jihatdan u insonning insoniylik bilan bog‘liq xususiyatlarini takomillashtirishni anglatuvchi kuch va imkoniyatni belgilaydi. Sirasini aytganda, dunyoqarash ijtimoiy kuch darajasiga ko‘tarilishi uchun muayyan faoliyat orqali amaliyatga aylanishi lozim. Chunki dunyoqarash hayot tajribalari tufayli e’tiqodga aylanadi va faoliyat mezoni bo‘lishi mumkin. Bir tomondan, odamzod uchun tug‘ma, nasliy xususiyat bulgan dunyoqarash irsiyat asosida avloddan avlodga o‘tadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy muhit ta’sirida rivojlanadi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishgan kishilar esa, bir-biridan ma’naviy mezonlarni o‘rganadi, ularning ta’sirida o‘sib-ulg‘ayadi. Ammo, aynan ana shu jarayonda ular sub’ektiv omil sifatida taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatadilar, muayyan maqsadga qaratilgan faoliyatlar orqali bu borada biror natijaga erishadilar. Falsafiy tafakkur yangilanishini harakatlantiruvchi kuch nima, degan savolga javob izlar ekanmiz, shaxsning jamiyatdagi o‘rni va faoliyatiga e’tibor bermaslik mumkin emas. Bu jarayonning umumiyl hamda xususiy jihatlariga e’tibor qaratganda, uning alohida shaxs va jamiyat a’zosi, ya’ni oddiy fuqaro hayotidagi ana shunday xususiyatlarini hisobga olgan holda talqin qilgan ma’qul. Masalan, eng umumiyl ma’noda, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi, asosan, jamiyatdagi mana shu sohada ro‘y bergen o‘zgarishlarni ifodalaydi hamda o‘z xususiyati va ahamiyati kengligi bilan ajralib turadi. Bunda ham bir qancha jihatlarga e’tiborni qaratishga to‘g‘ri keladi. M ustaqillik odimlari va falsafaning yangilanish i uzviy boglik jarayondir. Mamlakatning rivojlanish sur’ati yangicha, mustakil fikrlaydigan, ijtimoiy faol, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni alohida bosqichga olib chiqdi. Mulk shaklining xilma-xilligi, xuquqiy madaniyatni yuksaltirishga ehtiyoj, bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning kuchayishi. ishlab chiqarishga yangidan-yangi texnologiyalarning kirib kelishi jarayoni yuqori darajada tarbiyalangan va yuksak malakaga ega bo‘lgan mutaxassisni taqozo etayapti. Zero, yuksak malaka ayni paytda aqliy-ruhiy va jismoniy salohiyatlar uyg‘unlashgan taqdirdagina ko‘ngildagidek samara beradi. Mustaqil davlatning oliy maqsadlarini amalga oshira oladigan mutaxassislarni shakllantirish uchun ularning shaxsiyati ijtimoiy talablarga javob bera oladigan tarzda kamolga yetgan bo‘lishi lozim. To‘g‘ri, inson jamiyatdagi o‘z o‘rni, Olloh ravo ko‘rgan takdiri haqida o‘ylashi, o‘z Vatanini sevishi, o‘z millati sha’nini ulug‘lash uchun yelibyugurishi mumkin. Biroq ular aniq natija beradigan faoliyatga aylansagina ijtimoiy mazmun kasb etadi. Muayyan kishi jamiyatdagi o‘z o‘rni haqida o‘ylasa-yu, jamiyat oldidagi burchini anglab yetmasa, amalda burchiga sodiq ekanini namoyon etmasa yoki Vatanni sevish bilan cheklanib, uning ravnaqi uchun kurashmasa, millatiga munosib bo‘lish haqida o‘ylasa, yelib yugursa-yu, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularining amaldagi isbotini namoyon eta olmasa, bundan na jamiyat, na Vatan, na millat naf topadi. Bunday kishining shaxsiyatida ijtimoiy burch, vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari zaif hamda faoliyatsiz bo‘lib qolaveradi. Bunday shaxslar mustaqillik talablariga hozirjavoblik bilan maydonga chiqa olmaydi. Ma’naviy-axloqiy, ruhiy-jismoniy yetuk va faol shaxsgina jamiyat taraqqiyoti mazmunini, davlatning istiqbol yo‘lini, shaxs — jamiyat — davlat manfaatlarining uyg‘unligini to‘g‘ri tushunadi, shu yo‘lda qormay-tolmay mehnat qiladi. Albatta, ma’naviy-axloqiy, ruhiy-jismoniy sog‘lom va yetuk

kishilarni voyaga yetkazish oson emas. Buning uchun yillar mobaynida ter to‘kishga to‘g‘ri keladi. Bunda, avvalo, odamlar tafakkurini yangilash, ularda istiqlol dunyoqarashini shakllantirish zarur. Binobarin, davr taqozo etayotgan keng kamrovli bilimga ega bo‘lish milliy va umuminsoniy madaniyatlardan, boy tarixdan, bugungi kundagi ulug‘vor buniyodkorlik ishlaridan bahramandlik ularning qalbida Vatanga sadoqat va iftixor tuyg‘ulari kamol topishiga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy fan sohasidagi islohotlarning tezkor amalga oshirilishini talab etishi shubhasiz. Tafakkuri istiqlol talablari darajasida yangilangan inson kim? U qanday ezgu va oljanob xususiyatlar bilan ajralib turadi? Istiqlol talablariga javob bera oladigan barkamol avlod qachon shakllanadi? Bu savollar — oddiy savollar emas. Ularning to‘g‘ri yechimini topish uchun bir necha yillar davomida yangi avlodni shakllantirish lozim bo‘ladi. Lekin hozirgi davrdagi tub o‘zgarishlar jarayonining tahlili asosida ham bu jarayonning ba’zi xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Mamlakatimiz bozor munosabatlari sari qadam qo‘yyayotgan bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzimizda yuz berayotgan salmoqli o‘zgarishlar, shubhasizki, malakali, yetuk ma’naviyatli, fidoyi mutaxassis kadrlarni tayyorlashni talab etmoqda. Taraqqiyotimiz taqdirini ana shunday kadrlar hal etadi. Falsafaning yangilanishi va g‘oyaviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq. Mafkura jamiyatdagi ma’naviy muhit qanday ekanini kursatib turadigan eng asosiy mezonlardan biri bo‘lsa, falsafa uni shakllantiradigan omillar sirasiga kiradi. Ammo eski qoliplarga o‘ralgan falsafiy dunyoqarash asosida yangi zamonning mafkuraviy talablariga javob berib bo‘ladimi? Yo‘q, albatta. Har qanday mafkura jamiyatsiz paydo bo‘lmaganidek, ijtimoiy-siyosiy hayotni ham g‘oyasiz, mafkurasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Mafkura o‘z mohiyati, maqsadi, harakat yo‘nalishlari bilan jamiyat g‘oyalariga xizmat qiladi. U — jamiyat hayotining tarkibiy qismi, binobarin, uning bag‘rida shakllanadi, madaniy meros va qadriyatlar zaminida faoliyat ko‘rsatadi. Aslida tarixda mafkuradan mutlaqo xoli davrlar kam bo‘lgan. Shunday davrlar bo‘lgan taqdirda ham, ulardan so‘ng albatta har safar mamlakatning o‘ziga xos va o‘ziga mos mafkuraviy muhitini qayta tiklash hamda yangilash jarayoni boshlangan. Vatanimizda kechayotgan bugungi mafkuraviy yangilanishni sohibqiron Amir Temur davrida mo‘g‘ullar imperiyasi istilosiga barham berib, mustaqillik uchun, milliy davlatchilik asoslarini qayta tiklash uchun kurash yillariga qiyoslash mumkin. Mamlakatimizda milliy istiqlol g‘oyasini aholi ongi va qalbiga singdirish borasida ishlar amalga oshirilmokda. Bugun sobiq mustabid tuzum mafkurasi butunlay o‘tmishga aylandi. Diyormizda milliy davlatchilik an‘analari qayta tiklandi, ma’naviyat, madaniyat va ma’rifat yanada yuksaklikka ko‘tarilmoqda. “Ana shu jarayonning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?” “U hayotimizni qaysi tomonga eltadi?”, “Biz bu jarayonda qanday ishtirok etishimiz lozim?” degan savollarga javob topish zarurati ijtimoiy tafakkurni tubdan o‘zgartirishii talab qiladi. Mustaqillik milliy manfaatlarimizga mos mafkurani shakllantirishni kun tartibiga qo‘ygan edi. Dunyoqarashni yangilash zarurati bir qator o‘zgartirish zarurati yo‘nalishlarda namoyon buladi:

1. Avvalo, bu kelajagi buyuk davlatni barpo etish bilan bog‘liq. Bunda ana shu yaratilajak yangi jamiyat haqida. bozor munosabatlari bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topa borishi, islohotlarning inson manfaatlariga xizmat qilishi, milliy uyg‘onish ijtimoiy taraqqiyot taqozosi. komil insonni

voyaga yetkazish davr talabi ekani kabi dasturiy vazifalarning hayotiyligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni odamlar dunyoqarashida qaror toptirish zarur.

2. Falsafiy ongning yangilanishi mohiyat e’tibori bilan mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va aloqalarining o‘sib borishi, tinchlik, osoyishtalik, milliy totuvlik, bahamjihatlikka xizmat qiluvchi g‘oyalarga tayanadi. Uning hayotiyligi xalq irodasiga, ruhiyatiga, milliy tuyg‘ulari, orzuintilishlariga mosligi bilan belgilanadi.

3. Albatta, falsafadagi yangilanish millat va Vatan manfaatlari, istiqbol rejalar, milliy qadriyatlarimiz ruhiga mos holda kechadi. Bu esa, uz navbatida, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayoni, davlatimizning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy hayotidagi ijobjiy o‘zgarishlartug‘risida xalqimizda to‘g‘ri tasavvur va tushunchalarni hosil qilib borish lozimligini ko‘rsatadi.

4. Falsafiy tafakkur yangilanishi taqozo etadigan eng muhim vazifa poklanish jarayoni odamlar ruhiyati va tafakkurida amaliy tus olishi uchun O‘zbekiston Konstitutsiyasida mujassam etilgan maqsad va g‘oyalarni amalga oshirish yo‘lida xizmat qilishdir. Bu maqsad va g‘oyalar omma manfaatlarini aks ettirgani bois ularni ma’naviy hayot tarzining tarkibiy qismiga aylantirish muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda O‘zbekistonda qabul qilinayotgan qonun va boshqa hujjatlarning asl mohiyatini, ularda bayon qilingan g‘oya, xulosalar, takliflarni keng xalq ommasi ongiga yetkazish benihoya muhim va dolzarb ekanini ta’kidlash joiz. Chunki huquqiy jamiyat va ma’rifatli, barkamol inson tushunchalari o‘zaro bog‘liqsir. Madaniy bozorni ham, ma’naviy sog‘lom jamiyatni ham ana shunday kishilar yarata oladi. Ularni voyaga yetkazmay turib, jamiyatdagi yangilanishning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish to‘g‘risida fikr yuritish qiyin. 5.

Mamlakatimiz mustaqilligi, tinchligi, uning fuqarolari totuvligi, ijtimoiysiyoziy va iqtisodiy barqarorlikning qadriga yetish, jamiyatimiz hayot tarziga xavf solishi mumkin bo‘lgan ta‘didlarga qarshi ogohlilikni kuchaytirishda falsafa va umuman, ijtimoiy fanlarning ahamiyati beqiyos. Shu bois, o‘z xalqi tarixini, o‘z milliy madaniyatini, urf-odat va an‘analarini yaxshi biladigan, milliy g‘ururi yuksak avlodni tarbiyalash falsafaning muhim vazifasidir. Bu esa jamiyat a’zolarida fikr erkinligini tarbiyalashni taqozo qiladi. 6. Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi, mohiyat e’tiboriga ko‘ra, insondan, uning ijtimoiy xususiyatlari takomillashuvidan chetda kechadigan jarayon emas. U nafaqat umumjamiyat miqyosidagi, balki har bir inson kamoloti uchun ham zarur shartsharoit yaratadigan jarayondir. Shu ma’noda, u ham, jamiyatdagi boshqa o‘zgarishlar kabi, avvalo, inson uchun, uning kamoli va hayot farovonligini ta’minlaydigan islohotdir. M amlakatimizda bu borada juda keng ko‘lamli ishlar boshlab yuborildi. Bugun ijtimoiy fanlar rivojini zamon talablari darajasiga yetkazish borasida davlat va jamoat tashkilotlari, olim va ziyyolilar oldida g‘oyatda mas’uliyatli vazifalar turibdi. Birgina “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirishning o‘zi uzoq yillarga mo‘ljallangan keng ko‘lamli faoliyat yo‘nalishlarini nazarda tutadi. Bugungi kunda siyosiy, mafkuraviy va ma’naviy sohalardagi taraqqiyot vazifalari o‘zaro uyg‘unlashib bormoqda, ta’sir doirasi kengaymoqsa. Ayniqla, milliy istiqlol g‘oyasi borasidagi nazariy faoliyat, targ‘ibot va tashviqotni har tomonlama kuchaytirishga alohida ahamiyat berish zaruratga aylanib bormoqda. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi Galdagi

vazifalar esa, bu boradagi imkoniyatlarni amaliy ishga aylantirishda har birimiz o‘z mas’ulligimizni qay darajada sezishimiz va qanday faoliyat yuritishimizga bog‘liq.

## **Nazorat savollari 1.**

Qanday muammolar falsafiy muammolar deb ataladi?

2. Falsafa nimani o‘rgatadi?
3. Falsafa va fanning o‘zaro nisbati qanday?
4. Dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllarini ta’riflang.
5. Falsafa tarixini o‘rganish qanday maqsadni ko‘zlaydi?
6. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi me’yor hisoblanadi?
7. Ayrim insonning yaxlit falsafiy dunyoqarashi falsafiy plyuralizm asosida qanday shakllanadi?
8. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta’rif berish qanday amalga oshirilgan?
9. Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda?
10. Mustaqillik davridagi “Falsafaning siymosi”?

## **2-MA’RUZA: DUNYONI FALSAFIY IDROK ETISHNING O‘ZIGA XOS**

### **XUSUSIYATI Reja**

1. Falsafaning predmeti
2. Falsafiy bilimning tuzilishi
3. Falsafaning yangi sohalari
4. Falsafani siyosiyashtirish va sxemalashtirishning oqibatlari

**Dunyonи falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati**, unda dunyonи bilish, sezish, ko‘rish va tushunishning butunlay yangi sohasi – falsafa vujudga kelishida namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat falsafa – bu nafaqat u yoki bu odam dunyoqarashining shakli, balki ijtimoiy ong shakli, odamlar borlig‘i va bilishining umumiyligi tamoyillari, ularning dunyoga munosabati aks etuvchi, tabiat, jamiyat va tafakkurning eng umumiyligi qonunlari kashf etiluvchi va ta’riflanuvchi ma’naviy faoliyatdir. Ya’ni bu dunyoga va insonning undagi o‘rniga nisbatan qarashlarning umumiyligi tizimidir.

Bunday qarashlar zamirini savollar va insonning ularga javob topish istagi yetuvchi oqilona yo‘l bilan olingan bilimlar majmuini tashkil etadi. Ammo bilish shunday bir tabiatga egaki, bir savolga javob ko‘pincha boshqa bir talay savollarni yuzaga keltiradi va ba’zan muammoga nafaqat oydinlik kiritmaydi, balki uni yanada chigallashtirib, insonning qiziquvchanligini oshiradi va yangi tadqiqotlarga da’vat etadi. Xullas, bu yerda ijod, tinimsiz izlanish, yangilikka intilish to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Agar mifologiya va dinda javobga urg‘u berilsa, bilishning butun mazmuni unda mujassamlashsa, falsafada savol, masala birinchi o‘rinda turadi.** U to‘g‘ri va yaxshi ta’riflangan bo‘lsa, muammoning mohiyati aniq aks etadi. Savol, masala insonni

ijodga rag‘batlantiradi, toki unga qoniqarli javob olinib, haqiqatning tagiga yetilganiga ishonch paydo bo‘lmaq unicha insonni izlanishga da’vat etadi. Bunda savolning o‘zi, muammoning qo‘yilishi javobdan kam ahamiyat kasb etmaydi, ba’zan undan ham muhimroq deb qaraladi.

Shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, falsafa, garchi muayyan natijalarga, mukammal ta’riflarga, uzil-kesil xulosalarga intilsa-da, lekin shuning o‘zi bilan kifoyalanmaydi. Falsafani avvalo inson madaniyati sohasida yuz berayotgan, turli qarama-qarshiliklar va o‘zaro ta’sirlar bilan uzbek bog‘liq va ayni vaqtida o‘zga sohalarga o‘tish va ularda gavdalanan qobiliyatiga ega bo‘lgan ma’naviy jarayon sifatida tushunish lozim.

Bundan xulosa shuki, falsafiy mushohada yuritish savol berish, shubha qilish, javoblar izlash va kuni kecha yechilgan deb hisoblangan, shak-shubhasiz bo‘lib tuyulgan masalalarga qaytish demakdir. Falsafa uchun «boqiy», uzil-kesil aniqlangan haqiqatlar, «noqulay», «ilmoqli» savollar yoki man etilgan mavzular mavjud emas. Falsafa savollar berish, narsalar va hodisalar mohiyatini anglashga urinish orqali bilish doirasini kengaytirishga harakat qiladi.

Xullas, falsafa haqiqat qanday bo‘lsa, uni shunday ifodalab ko‘rsatishdir, din esa – uning ramziy, timsoliy aks etishi. Falsafa asos va mohiyat bo‘lsa, din timsol va shakl. Dialektik munozara usuli jamiyatning kam sonli ayonlari uchun kerak. Vahiy yo‘lidagi ifoda – xalq ommasining idroki, tarbiya va ta’limi uchun kerak

**Falsafaning predmeti.** Endi «Falsafa nimani o‘rganadi?», degan savolni berishimiz mumkin. Insonda bilishga qiziqish uyg‘otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o‘ziga ma’lum bilimlar va tajribaga, muayyan e’tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug‘diradigan har qanday ob’ektiv va sub’ektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi. . Boshqacha aytganda, inson o‘z qiziqishi ob’ekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma narsa falsafaning predmetidir. Shu munosabat bilan u yoki bu odamning falsafiy qarashlari haqida va hatto uning falsafasi to‘g‘risida so‘z yuritish mutlaqo o‘rinli bo‘ladi va bunga biz kundalik hayotda tez-tez duch kelamiz.

Biroq ayni holda bizni fan sifatidagi, ayrim insonning emas, balki butun jamiyatning rivojlanish mahsuliga aylangan ijtimoiy hodisa sifatidagi falsafa qiziqtiradi va ayni shu sababli yuqorida keltirilgan ta’rifda «inson» tushunchasi yig‘ma ma’noda qo‘llanilgan. Bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, garchi falsafaning predmetiga biz umumiyluq nuqtai nazardan ancha keng ta’rif bergen bo‘lsak-da, ayrim tarixiy davrlarda odatda u yoki bu sabablarga ko‘ra muayyan masalalar doirasi falsafiy tadqiqotlarda birinchi o‘ringa chiqadi.

Masalan, qadimgi Yunonistonda kosmotsentrizm ilk falsafiy ta’limotlarning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, bunda asosiy e’tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab yetishga qaratilgan. Keyinchalik, qadimgi yunon shahar polislari ravnaq topgan davrda faylasuflar diqqat markazidan ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari o‘rin oldi. Yevropada xristianlikning, Sharqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o‘rtasrlar falsafasi teotsentrik (yunon. theos – markazdan o‘rin olgan xudo) xususiyat kasb etdi, ya’ni Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi. Uyg‘onish

davrida falsafa san'at (estetika)ga va ko‘p jihatdan insonga murojaat qilindi.. Yangi davr deb nomlanuvchi XVII-XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan bilan uzviy bog‘landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan bilish va ilmiy metodlar masalalari o‘rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va oqilonalik inqirozi irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmetiga aylandi, bu esa, o‘z navbatida, matnlar mantig‘i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga alohida qiziqish uyg‘onishiga olib keldi. XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va yangi axborot texnologiyalarining, shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni kun tartibiga qo‘ygan postnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha ma’nolar va g‘oyalar «aytib bo‘linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o‘ziga yog‘ilayotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga e’tiborni qaratar ekan, notizimlilik, Yevropa an’anaviy falsafiy bilimining negizlari, qadriyatları va chegaralarini o‘zgartirish g‘oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX-XXI asr chegarasida eng yangi falsafada birinchi o‘ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o‘rin olgan yana bir mavzu globallashuv jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo‘nalishini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy yechimini topish bu muammolarni shu jumladan falsafiy darajada anglab yetishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida e’tibor berish va kelishilgan harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo‘yish muammolarini kiritish mumkin.

Ko‘rib turganimizdek, falsafaning predmetini qandaydir bitta, qat’iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog‘lash mumkin emas. U vaqt omiliga va ob’ektiv sabablar to‘plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o‘ringa chiqadi. Ammo bu boshqa mavzular, masalalar va muammolar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi va falsafa chegarasidan chetga chiqadi, uning tahlil predmeti bo‘lmay qoladi, degan ma’noni anglatmaydi. Bosh mavzularni ikkinchi, uchinchi yoki undan ham keyingi o‘ringa surib qo‘yadi, ular muayyan davrda va tegishli sharoitda falsafiy diqqat markazidan o‘rin olish yoki falsafiy muammolarning ustuvorliklar yunalishi bo‘ylab yuqoriga ko‘tarilish uchun o‘z vaqtini «kutib», go‘yoki panada turadi, desak, to‘g‘riroq bo‘ladi. Ayni shu sababli biz falsafa tarixida qiziqishlardagi ustuvorliklarning muttasil o‘zgarishini, u yoki bu masala bosh masalaga aylanishi, falsafiy hamjamiatning asosiy e’tibori ma’lum vaqt mobaynida unga qaratilishini ko‘ramiz.

**Falsafiy bilimning tuzilishi.** Falsafa o‘z shakllanishi va rivojlanishining qadimgi davridayoq, tabiat, inson, jamiyat va ma’naviyatni, shuningdek sababiy bog‘lanishlar, qonunlar va shu kabilarni bilish sohasida yuksak natijalarga erishdi va oqilonalik nuqtai nazaridan odamlarning dunyo haqidagi umumiyl tasavvuriga aylandi. Ammo olamning

cheksiz darajada rangbarangligi va serqirraligi tufayli o'sha davrdayoq parchalanmagan falsafiy bilimlar va tasavvurlardan ayrim bo'limlar ajralib chiga boshladi, vaqt o'tishi bilan rivojlanib, ancha aniq shakl-shamoyil kasb etdi va yangi bilimlar bilan to'ldirildi. Pirovard natijada ular falsafiy bilimning tuzilishini (strukturasini) tashkil etdi.

Quyidagilar falsafiy bilimning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi: □ ontologiya – mavjudlik, borliq haqidagi bilim;

- gnoseologiya (boshqa bir terminologiyaga ko'ra – epistemologiya) – bilish nazariyasi;
- ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi ta'limot;
- etika – axloq haqidagi ta'limot;
- aksiologiya - qadriyatlar haqidagi ta'limot;
- falsafiy antropologiya – inson haqidagi ta'limot va boshqalar.

Falsafiy muammolar mohiyatini tushunib yetish, ularning eng muhimlarini aniqlash va nihoyat, falsafiy bilimlar bilan oshno bo'lismi – ko'rsatilgan bo'limlarni sinchiklab o'rghanish, bunda ularga yaxlit bir butunning tarkibiy qismlari sifatida yondashish demakdir. Pirovardida biz falsafaning o'ziga xos tili, o'z yondashuvlari va metodlari, nihoyat, tabiat, jamiyat va tafakkurga oid eng muhim aloqalar, xossalari va qonunlarni o'zida aks ettiruvchi umumiy tushunchalar – kategoriylar tizimi vujudga kelganining guvohi bo'lamiz. Bunda falsafadagi har bir bo'lim yoki yo'naliш ham o'z tushunchalar apparatiga, ya'ni bilimning faqat shu sohasiga xos bo'lgan va uning asosiy mohiyatini yoritib beradigan kategoriylar tizimiga egadir.

Falsafada ko'rib chiqilgan mavzular bilan bir qatorda shunday bilim sohalari ham mavjudki, ular qolgan barcha bilim sohalariga kirib boradi, ular bilan uyg'unlashadi va ularni to'ldiradi. Masalan, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkurida yuz beruvchi harakat, rivojlanish va o'zgarishlar haqidagi falsafiy ta'limot – dialektika ana shunday bilim sohalaridan biri hisoblanadi.

Ob'ektiv sabablarga ko'ra falsafiy bilimning ayrim sohalari sezilarli darajada rivojlandi va vaqt o'tishi bilan mustaqil falsafiy fanlarga aylandi. Bunday bilim sohalari qatoriga, masalan, insonning bilishni amalga oshirish shakllari, qonunlari va usullarini o'rGANADIGAN fan - mantiqni; ma'naviyat va axloq haqidagi ta'limot – etikani; go'zallik qonunlariga muvofiq ijodning mohiyati va shakllari haqidagi fan – estetikani kiritish mumkin.

Shu ma'noda falsafa tarixi fani alohida diqqatga sazovordir, zero u, mohiyat e'tibori bilan, nafaqat falsafiy, balki tarixiy fan hisoblanadi. Ayni vaqtida u falsafiy bilim tarkibiga ham kiradi, chunki falsafiy tafakkurning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini, falsafiy g'oyalar evolyusiyasi va xususiyatini turli faylasuflar, yo'naliшlar, oqimlarning ta'limotlarida qanday tavsiflangani nuqtai nazaridan o'rGANADI. Falsafa tarixi fanida falsafiy ta'limotlarni tizimga solish va tasniflashga, matnlar, tarixiy sanalarni tahlil qilishga, daliliy material, biografik ma'lumotlar yig'ishga alohida e'tibor beriladi. Shu munosabat bilan dunyoqarashni kengaytirish va teranlashtirishga, o'z falsafiy yondashuvlarini yaratishga

qaratilgan falsafani o‘rganish, uning tarixi, asosiy namoyandalari va eng muhim falsafiy asarlari bilan albatta tanishishni nazarda tutadi.

**Falsafaning yangi sohalari.** Falsafiy bilimning tuzilishi o‘zgarmas, uzil-kesil shakllangan emas. Falsafaning rivojlanishi va u hal qilayotgan muammolar doirasi kengayishiga qarab falsafiy bilim tuzilishida ham o‘zgarishlar yuz beradi. Ilmiy nazariyalar yoki falsafiy g‘oyalar inqirozga uchragan yoki o‘zining asossizligini namoyish etgan taqdirda, ularning bilim tizimidagi o‘rni va rolini qayta baholash amalga oshiriladi, bu esa ba’zan ularning nazariy va amaliy ahamiyati yo‘qolishiga olib keladi. Masalan, flogiston nazariyasi, «falsafa toshi»ni izlash, empiriokrititsizm falsafasi va o‘z ahamiyatini yo‘qotib, tarix mulkiga aylangan boshqa ko‘pgina g‘oyalar bilan shunday bo‘lgan. Bugungi kunda falsafa bilan ham shunga o‘xhash hodisa yuz beryapti, degan fikr mavjud. Hatto falsafa o‘lyapti deb hisoblaydiganlar ham yo‘q emas.

Darhaqiqat, o‘zini oqlamagan g‘oyalar, yo‘nalishlar va konsepsiylar bisyor, ularning aksariyati hozir juda og‘ir ahvolda, ayrimlari esa kuchli inqiroz holatini boshdan kechirmoqda. Ammo falsafa o‘zining birinchi ma’nosida – «donolikni sevish» sifatida, haqiqatning tagiga yetish usuli sifatida, jon holati sifatida va nihoyat, dunyoqarashning alohida shakli sifatida insoniyat turguncha mavjud bo‘ladi.

Buni falsafiy bilimning ayrim nisbatan yangi sohalari ham tasdiqlaydi (ba’zan ular mustaqil falsafiy fanlar maqomiga da’vogarlik qiladi). Ular falsafa yondashuvlari va metodlari jamiyat hayotining ayrim jabhalarini, murakkab ob’ektlar, muayyan fanlar va shu kabilarni o‘rganishga nisbatan qo‘llanilishi natijasida yuzaga keldi. Ularning aksariyati falsafaning eng yangi tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, asosan XX asrga tegishlidir. Bu yerda avvalo tabiat falsafasi, huquq, fan, tarix, siyosat, san’at, din, texnika falsafasi, tanatologiya, gerontologiya va boshqalar nazarda tutilmoqda. O‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilliklarida tadqiqotning yana bir yangi va o‘ta muhim sohasi – globallashuv va u yuzaga keltirayotgan global muammolar falsafasi paydo bo‘ldiki, uni o‘rganish ham foydadan xoli bo‘lmaydi.

**Falsafaning asosiy masalalari.** Falsafani o‘rganayotgan har bir odamda falsafada qolgan barcha muammolarga nisbatan ustunroq ahamiyat kasb etadigan, ya’ni muhimroq, asosiyroq hisoblanadigan masalalar, muammolar mavjud yoki mavjud emasligiga qiziqish ertami, kechmi albatta yuzaga keladi. Bu mavzu nafaqat boshlovchi, balki professional faylasuflar uchun ham diqqatga sazovordir. Ularning orasida kimdir bu mavzuga jiddiy e’tibor beradi, kimdir esa, aksincha, uni muhim deb hisoblamaydi. Falsafaning uzoq tarixiga umumiy nazar tashlasak, olam va insonning kelib chiqishi, rivojlanishi va mohiyatiga, shuningdek, hayotning ma’nosи, inson bilishining tabiatiga tegishli «boqiy» falsafiy muammolar deyarli barcha falsafiy ta’limotlarda u yoki bu tarzda mavjudligini, turli falsafiy asarlarda, ular aynan kimga qarashliligi va qaysi davrga mansubligidan qat’iy nazar, qisman yoki, aksincha, atroflicha muhokama qilinishining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Darhaqiqat, ong, tafakkur, ruh, ideallik va ularning materiya, tabiat, borliq bilan o‘zaro nisbati masalalariga o‘z munosabatini bildirmagan yoki, aytaylik, o‘z mulohazalari va xulosalarida shubha qilmagan faylasufni topish mushkul. Bu hol o‘z vaqtida olimlar tomonidan «falsafaning asosiy masalasi»ni ta’riflashiga turtki bergan bo‘lib, unda ikki jihat alohida ajralib turadi.

Birinchi jihat moddiylik va ideallikning o‘zaro nisbatiga tegishli. Savol shunday qo‘yiladi: «Materiya birlamchimi yoki ruh (ong)mi?» yoki, «Tafakkur va borliqning nisbati masalasi butun, ayniqsa, eng yangi falsafaning buyuk asosiy masalasidir».

Ikkinci jihat birinchi jihat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, quyidagicha ta’riflanadi: «Dunyoni bilish mumkinmi?» Boshqacha aytganda: «Biz haqiqiy dunyo haqidagi o‘z tasavvurlarimiz va tushunchalarimizda borliqni to‘g‘ri aks ettirishga qodirmizmi?»

**Materialistlar va idealistlar.** U yoki bu faylasuflar savolning birinchi qismiga qanday javob berishiga qarab, ular **materialistlar** -dunyo azaldan moddiy, ong esa bu materiyaning mahsulidir, deb hisoblovchilar va **idealistlar** -dunyo zamirida materiyadan oldin paydo bo‘lgan va uni yaratuvchi ideal narsalar va hodisalar yotadi, degan fikrni himoya qiluvchilarga ajratiladi.

Bunda idealizmning ikki turi – ob’ektiv va sub’ektiv idealizm farqlanadi. Qandaydir nomoddiy va inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan (ya’ni ob’ektiv mavjud bo‘lgan) narsalar va hodisalarni (Xudo, dunyoviy aql, g‘oya, ruh va shu kabilar) butun borliqning asosi deb e’tirof etuvchilar **ob’ektiv idealistlar** hisoblanadi. Falsafa tarixida Platon, Avliyo Avgustin, Foma Akvinskiy, G.Gegel, N.Berdyaev kabi mutafakkirlar ob’ektiv idealizm namoyandalari sifatida shak-shubhasiz e’tirof etiladi. Dunyo faqat individual (sub’ektiv) ong nuqtai nazaridan qaralgan holda **sub’ektiv idealizm** to‘g‘risida so‘z yuritiladi. J.Berkli, D.Yum, I.G.Fixte sub’ektiv idealizmning yorqin namoyandalari hisoblanadi.

Falsafa tarixida materialistik yo‘nalishlar va oqimlar ham anchaginadir. Xususan, materiyani yaratish va yo‘q qilish mumkin emasligi haqidagi fikrmulohazalarga ilk faylasuflarning asarlaridayoq duch kelish mumkin. Mazkur **sodda materializm** vakillari :qadimgi xitoy faylasuflari – Lao szi, Yan Chju;

- Qadimgi hind faylasuflari – lokayata yo‘nalishi namoyandalari;
  - Qadimgi davrning mashhur faylasuflari – Geraklit, Empedokl, Demokrit, Epikur va boshqalar.
- Qadimgi Markaziy Osiyo faylasuflari- Zardo‘sht Sepitoma kabilardir.

Klassik mexanika vujudga kelgan va faol rivojlangan Yangi davrda **mexanistik materializm** (P.Golbax, P.Gassendi, J.Lametri) ayniqsa keng tarqaldi.

XVIII-XIX asrlarda falsafiy materializmning yo‘nalishlari:

- antropologik materializm (L.Feyerbax);
- vulgar materializm (Fogt, Byuxner, Moleshott);
- dialektik materializm (K.Marks, F.Engels) shakllandi.

Biroq, yana shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, mazkur tasnifga muvofiq materialistlar yoki idealistlar deb nomlanuvchi u yoki bu faylasuflar bunday farqlashga asossiz sxemalashtirish va soddalashtirish deb qarab, o‘zini bu yo‘nalishlarning birortasiga ham mansub deb hisoblamasligi mumkin. Bunday qarashlar shu bilan izohlanadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va uzil-kesil tarzda, bu muammoni tushunishga nisbatan boshqacha yondashuvlarni e’tiborga olmasdan ta’riflangan «falsafaning asosiy masalasi» muqarrar tarzda barcha faylasuflarni ikki katta qarama-qarshi lagerga – materialistlar va idealistlarga ajratadi va bu hodisaning ayrim ko‘rinishi sifatida faqat moddiy va ma’naviy

substansiyalarni teng huquqli asoslar deb hisoblovchi **dualistlarnigina** (masalan, R.Dekart) farqlaydi.

Ammo falsafiy tafakkur tarixida u yoki bu faylasuflar fikriga ko‘ra eng muhim deb qaraladigan boshqa muammolar ham mavjud. Ayni shu sababli aksariyat faylasuflar substansiya (dunyoning birinchi asosi) haqida mulohaza yuritar ekan, mazkur masalaning qo‘yilishini «falsafaning asosiy masalasi» bilan bog‘lashga moyil emas. Masalan, ilk **antik faylasuflar** uchun falsafaning asosiy muammosi: «Dunyo nimadan yaratilgan?», degan savol bilan bog‘langan. O‘sha davrda bu savol eng muhim, asosiy, birinchi darajali hisoblangan.

**O‘rta asrlar sxolastikasi** nuqtai nazaridan «falsafaning asosiy masalasi» quyidagicha ta’riflanishi mumkin: «Xudoning borligini qanday qilib oqilona asoslash mumkin?» Hozirgi diniy falsafiy konsepsiylar, xususan neotomizm uchun u hozir ham bosh masala bo‘lib qolmoqda. Ibn Sino fikricha, falsafaning asosiy masalasi – mavjudotni barcha mavjud narsalarni kelib chiqishi, targ‘iboti o‘zaro munosabati, biridan-ikkinchisiga o‘tishni har tomonlama tekshirish uchun zaruriy imkoniyat, voqelik sabab tamoyillarini asos qilib olishdan iborat.

**Yangi davrda I.Kant** yondashuvi diqqatga sazovor bo‘lib, u «Inson nima?» degan savolni mohiyat e’tibori bilan falsafaning asosiy masalasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, inson ikki har xil dunyo – tabiiy zarurat va ma’naviy erkinlikka mansub bo‘lib, ularga muvofiq odamzot, bir tomondan, tabiat mahsuli hisoblanadi, boshqa tomondan esa, u «erkin harakat qiluvchi mavjudotning o‘z-o‘zidan yaratish» natijasidir<sup>1</sup>.

**Ekzistensializm** falsafasida esa har bir individ o‘zi uchun o‘zi hal qilishi lozim bo‘lgan «Hayot yashashga arziydimi?», degan muammo asosiy masala sifatida e’tirof etiladi, zero, mazkur yo‘nalish namoyandalarining fikriga ko‘ra, bu savolga javobsiz qolgan hamma narsa o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Fransuz ekzistensialist faylasufi A.Kamyu ta’biri bilan aytganda: «Hayot yashashga arzishi yoki arzimasligi masalasini hal qilish, falsafaning asosiy masalasiga javob topish demakdir».

Masalan, pragmatizm asosiy e’tiborni haqiqat tushunchasiga va uni aniqlash muammofiga qaratadi. Bu yo‘nalish vakillarining fikriga ko‘ra, falsafa avvalo ayni shu muammo bilan shug‘ullanishi va insonga amalda foyda keltirishi lozim.

**Falsafani siyosiylashtirish va sxemalashtirishning oqibatlari.** Falsafani o‘ta siyosiylashtirish ma’lum ma’noda zararlidir. Chunki sobiq sovet tuzumi davrida ayni falsafiy bilimni mutlaqlashtirish, uni siyosiy bilim doirasi bilan chegaralash oqibatida falsafa siyqalashdi, uning asl mazmuniga putur yetkazildi. Shuningdek, falsafaning barcha zamonlarda va har qanday sharoitda o‘z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin bo‘lgan, qolgan barcha masalalarni istisno etadigan biron-bir bitta, birdan-bir to‘g‘ri asosiy masalasi bormi? Bizningcha, mazkur uzil-kesil ta’rif kontekstida bunday masala mavjud emas. Birinchidan, ayni holda tarixiy davrni ham, falsafiy bilimning plyuralistik tabiatini ham hisobga olish talab etiladi. Ikkinchidan, qandaydir bitta muammoni faqat u yoki bu muayyan vazifani yechish maqsadida murakkab masalalarni sxemalashtirish, ataylab soddalashtirish

<sup>1</sup> Карапнг: Кант И. Соч. Т. 6. – М., 1966. – 351-6.

to‘g‘risida so‘z yuritilayotganini tushungan holda, ma’lum darajada shartlilik bilan mutlaqlashtirish mumkin.

Masalan, falsafaning «borliq» va «substansiya» kabi ayniqsa keng tarqalgan asosiy kategoriyalari haqida so‘z yuritar va muayyan faylasuflarning ularga bo‘lgan munosabatini aniqlashga harakat qilar ekanmiz, «falsafaning asosiy masalasi»ni uzil-kesil yechish tarafdlorlari ilgari surgan mantiqqa muvofiq, barcha faylasuflarni ma’lum darajada shartlilik bilan materialistlar, idealistlar va dualistlarga ajratishimiz mumkin. Umuman olganda, agar, falsafada ayniqsa ko‘p muhokama qilinadigan muammolar doirasini aniqlashga harakat qilinayotgan yoki falsafa tarixini, u yoki bu falsafiy g‘oyalar, yo‘nalishlar, oqimlarning vorisiyligini yaxshiroq tushunish vazifasi qo‘yilayotgan bo‘lsa, bunday ajratish mutlaqo o‘rinlidir.

Ayni vaqtida, muammoga nisbatan yangicha yondashuvni yoki masalaning yangicha talqinini taklif qilishi mumkin bo‘lgan boshqacha yondashuvlar paydo bo‘lishi va mavjudligiga yo‘lni berkitmaslik uchun har qanday sxemalashtirish cheklangan xususiyatga ega bo‘lishini unutmaslik kerak.

Ayni bir masalaga boshqacha nuqtai nazardan, g‘ayrioddiy yoki mutlaqo kutilmagan tomongan yondashish taklif qilingan, pirovardida esa avvalgi qarashlar nuqtai nazaridan erishish mumkin bo‘lmagan kashfiyotlar olingan hollarga tarixda misollar bisyor. Masalan, geotsentrik qarashlar o‘rnini gelotsentrik qarashlar egallashi, nisbiylik nazariyasining paydo bo‘lishi, Rim klubiga taqdim etilgan «O‘sish chegaralari» ma’ruzasi va hokazolar ko‘pchilik uchun tabiiy, o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lib tuyulgan narsalarga nisbatan noan’anaviy, g‘ayrioddiy yondashuv mahsulidir. Mazkur misollar falsafada «qat’iy», uzilkesil ta’riflarga nisbatan ancha ehtiyyotkorlik bilan yondashish lozim, zero bu ba’zan yanglishishlarning mustahkamlanishiga, oxir-oqibatda esa – turg‘unlik va dogmatizmga olib keladi, degan fikrni faqat tasdiqlaydi.

Dunyoni bilish mumkinmi, degan savolga faylasuflar tomonidan berilgan javoblar orasida ham ikki qarama-qarshi yondashuv ajralib turadi. Bu yondashuvlardan biri gnoseologik optimizm deb ataladi. Unga muvofiq insonning bilish imkoniyatlari umuman olganda cheklanmagan va u o‘zini qiziqtirayotgan tabiat va jamiyat qonunlarini kashf etish, narsalar mohiyatini aniqlash va dunyoning haqiqiy manzarasini yaratishga ertami, kechmi albatta muvaffaq bo‘ladi, deb hisoblanadi. Bunda G.Gegelni, va u yaratgan ta’limotning ko‘p sonli tarafdlorlarini tilga olib o‘tish o‘rinli bo‘ladi.

Ikkinci yondashuv agnostitsizm (yunon. a – inkor va gnosis – bilim) deb ataladi. Bu yondashuv namoyondalari dunyoni, narsalar va hodisalar mohiyatini to‘la (yoki hatto qisman) bilish amalda mumkin emas, deb hisoblaydi. Bunday qarashlar ayniqsa D.Yumga xosdir. Odatda, agnostitsizm namoyandalari qatoriga I.Kant ham kiritiladi, ammo bu yondashuv ancha bahsli bo‘lib, faylasuflar orasida munozaralarga sabab bo‘lib keladi.

**Falsafada shubhaning roli.** Yuqorida keltirilgan ikkala gnoseologik yondashuvni taqqoslash va ularga baho berishda shubha muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat o‘rinli, balki ijodiy yo‘naltirilgan har qanday bilishning zaruriy elementi hisoblanadi. Shuningdek, falsafiy mulohazalar har qanday shakshubhadan xoli bo‘lsa, notanqidiy idrok etiladigan

o‘tmish va qadimda o‘zlashtirilgan qonun-qoidalarga so‘zsiz bo‘ysunish me’yorga aylanib qolsa, bu, dogmatizm, turg‘unlik va tanazzulga eltadi.

Bunga qadimdayoq antik faylasuflar: elladalik Pirron, Arkesilay, Sekst Empirik va shubhani fikrlashning asosiy tamoyili, inson bilimini esa – nisbiy deb e’lon qilgan falsafiy yo‘nalish – skeptitsizmning boshqa asoschilar e’tiborni qaratgan. Skeptitsizm haqiqatga shak-shubhasiz egalik va narsalarni to‘g‘ri tushunishga da’vogar bo‘lgan falsafiy ta’limotlar hukmronligiga munosabat sifatida vujudga keldi va shu ma’noda, ijobiy rol o‘ynadi.

### Nazorat savollari

1. Falsafa tarixini o‘rganish qanday maqsadni ko‘zlaydi?
2. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi me’yor hisoblanadi?
3. Kimning asoschisi asarlarini analitik falsafaning manbai deb hisoblash mumkin?
4. “Mantiqiy atomizm” nazariyasi kimga tegishli?
5. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta’rif berish qanday amalga oshirilgan?
6. Mantiqiy-lingvistik tahlil qaysi faylasuf ta’limotida ifodalangan?
7. Tomas Gobbs tomonidan mashhur belgilar tasnifining asosi nima?
8. Kimning asarlarida analitik falsafiy tafakkur tarzi to‘liq ochib berilgan?
9. Antik falsafada borliq tushunchasi.

## 3-MA’RUZA: BORLIQ FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI Reja

- 1- Falsafa tarixida «Borliq» kategoriyasi
- 2- Borliq kategoriyasi
- 3- Borliqqa yondashuvning asosiy konsepsiyalari
- 4- Harakat – borliqning asosiy mavjudlik usuli
- 5- Fazo va vaqt – borliqning tuzilishi sifatida
- 6- Materiya (modda) falsafa va tabiiyotshunoslikning kategoriyasi sifatida

### 1- Falsafa tarixida «Borliq» kategoriyasi

Falsafa fanining borliq haqidagi masalalarni o‘rganuvchi qismi *ontologiya* deb ataladi. Ontologiya so‘zi yunoncha *ontos* (mavjudlik) va *logos* (ta’limot) so‘zlarining birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, «mavjudlik haqidagi ta’limot», ya’ni borliq haqidagi fan ma’nosini ifodalaydi.

Bu atama fan tarixida birinchi bor 1513 yil R.Gokleniusning «Falsafa lug‘ati»da, so‘ngira, X.Volf (1679 -1754)ning falsafaga oid darsligida qo‘llanilgan bo‘lsada, ulardan ilgari qadimgi yunon faylasuflari ham ontologiyaning mazmunini ifodalovchi turli fikrlarni ilgari surishgan. Ular ontologiyani «haqiqiy borliqni nohaqiqiy borliqdan ajratib oluvchi borliq

haqidagi ta’limotdir» deb hisoblashgan. *Eley maktabi* namoyondalari esa ontologiyani mangu, o‘zgarmas, yagona, sof borliq haqidagi ta’limot deb hisoblashgan. *Milet* va *Ioniya maktabi* vakillari esa dastlabki borliqning sifatiy talqini haqida bosh qotirishgan. Ulardan borliqning boshlanishida yotuvchi bunday asosni *Empedokl* «stixiya», *Demokrit* «atomlar», *Anaksimandr* «apeyron», *Anaksagor* «urug‘» deb atagan. *Aflatun* esa g‘oyalar ontologiyasini yaratgan. G‘oyalar ontologiyasi aql bilan erishiladigan mohiyatlar ierarxiyasini tashkil etib, uning yuqori nuqtasida Farovonlik g‘oyasi, undan keyin beto‘xtov oquvchi xilma-xil hissiy dunyoni aks ettiruvchi ideal namunalar, sonlar, geometrik shakllar yotadi. *Arastu* fikricha umumiylilik ayrim holda yakka narsalardan chetda mavjud emas. Biz olamda ayrim narsalarga duch kelamiz va ulardagi bir-biriga o‘xshash jihatlarni umumlashtirib, abstrakt va ideal obraz hosil qilamiz. Shu tariqa Arastu empirizm ontologyasini yaratdi.

Markaziy Osiyo Yaqin va O‘rtta sharqida IX-X asrlarda ijod qilgan *Al-Kindiy*, *Zakariyo Roziy*, *Forobi*, *Ibn Sino* singari mutafakkirlar yunon faylasuflaridan farqli ravishda ontologik ta’limotni butunlay yangicha bosqichga ko‘tarishdi. Masalan, Forobiy ontologiyaga yagona borliqning mohiyatini olib beruvchi ta’limot sifatida yondashgan.

*O‘rtta asrlar g‘arb falsafasida* esa ontologiya teologiya bilan chambarchas bog‘lab tushuntiriladi. Bu davrda absolyut borliq xudo bilan, «sof» mohiyatlar ierarxiyasi bilan, «yaratilgan» borliq esa moddiy tabiat bilan aynanlashtirib talqin etilgan. *Sxolastik falsafada* ontologiya substansial va aksidensial, aktual va potensial, zaruriy va tasodifiy, ehtimoldagi va imkoniyatdagi borliq darajalarini ifodalovchi ta’limot sifatida qaralgan. Bu davrda borliq konsepsiyalari nominalizm, realizm va konseptualizm namoyondalarining universaliylarning ontologik mohiyatiga munosabati tarzida namoyon bo‘ladi.

Sharq falsafasida ontologiya ko‘proq ilohiy borliqning mohiyatini, xudoning mohiyatini aks ettiruvchi ta’limot tarzida, sharq panteistik falsafasida esa *vahdatu mavjud* va *vahdatu vujud* ko‘rinishidagi ta’limotlar shaklida vujudga kelgan.

Xullas, borliq haqidagi muammo falsafada tarixan markaziy o‘rin egallaydi. Falsafa o‘rganadigan qaysi bir masalani olmaylik, u borliq muammosi bilan bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Haqiqatdan ham, borliq, unga munosabat masalasi falsafiy qarashlarda muhim ahamiyatga egadir, chunki, borliq muammosi falsafadagi har qanday dunyoqarash gnoseologik va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi.

## 2.-Borliq kategoriyasi

Borliqning o‘zi nima? Bu savolga javob berish uchun borliqning inson va insonlar hayoti bilan bog‘liq ildizlariga nazar tashlashga to‘g‘ri keladi. Kishilar qadimdan o‘zlarini qurshab turgan tabiat va jamiyat, inson va insoniyat haqida o‘ylar ekan, atrofida sodir bo‘lib turgan narsalar va hodisalarni, o‘zgarishlarni kuzatishgan. Ba’zi narsalar hozir mavjud, keyinchalik esa yo‘qolib ketadi, kecha yo‘q bo‘lgan ba’zi narsalar esa bugun paydo bo‘ladi. Shular asosida kishilarda *mavjudlik* va yo‘qlik haqida tasavvurlar, qarashlar vujudga kelgan.

Kishilar o‘zlarining ham dunyoga kelishi (tug‘ilishi), yashashi va nihoyat vafot etishi (o‘lishi), «yo‘qlikka aylanishi» haqida o‘ylay boshlashadi. Shu asosda kishilarning «bu dunyo» va «u dunyo» (narigi dunyo), ya’ni odamning vafotidan so‘ng uning ruhi ko‘chib

o‘tadigan «dunyolar» haqidagi tasavvurlari paydo bo‘lgan. Kishilar o‘zlarining kundalik tajribalari asosida atrofidagi dunyoning hozir mavjudligi, o‘zlari tug‘ilmasdan ilgari ham mavjud bo‘lganligiga va keyinchalik ham mavjud bo‘lib qolishiga ishonishgan. Shu tarzda ularda «borliq» va «yo‘qlik» haqida tasavvurlar shakllangan.

Borliq turli konsepsiyalarda turlicha talqin etiladi. Ayrim tadqiqotchilar uni muayyan moddiy jism, moddiy borliq sifatida tushuntirishadi, boshqalar esa uni g‘oyaviy, ma’naviy, ruhiy, ilohiy mohiyat shaklida tushunishadi. Abu Nasr Forobiy yagona borliqni 6 bosqichdan iborat deb hisoblagan: 1-ilk sabab (sababi-avval) - xudo; 2-sabab - (sababi-soniy) - samoviy jismlar borlig‘i; 3sabab - faol aql (al-aql al-faol); 4-sabab - jon (an-nafs); 5-sabab - shakl (assurat); 6-sabab - modda (al-modda)<sup>2</sup>. Bu bosqichlar bir-biri bilan sababiy bog‘langan bo‘lib, ular barcha mavjudlikning boshlang‘ichi hisoblanadi.

Borliq tushunchasi atrofida faylasuflar har doim keskin munozaralar, tortishuvlar, bahslar olib borishgan va bu bahslar haligacha davom etmoqda. Xullas, «borliq» falsafadagi eng umumiy tushunchadir. Borliqqa aksil tushuncha sifatida «yo‘qlik» tushunchasini ishlatishadi. Yo‘qlik hech nimani, ya’ni nazarda tutilgan joyda hech nima mavjud emasligini anglatadi.

Borliq ilgari mavjud bo‘lgan, hozir mavjud va kelajakda mavjud bo‘ladigan *ob’ektiv hamda sub’ektiv reallikni* ham o‘ziga qamrab oladi. Ya’ni tabiat, inson, fikrlar, g‘oyalilar, jamiyat hammasi turli shakllarda mavjuddir. Ularning barchasi mavjud bo‘lganligi uchun ham yaxlit yagona borliqni tashkil etadi.

Ko‘pincha borliqni inson ongidan tashqarida va unga bog‘liq bo‘limgan holda *mavjud bo‘lgan reallikni* ifodalovchi falsafiy kategoriya sifatida ta’riflashadi. Bunday ta’rifning kamchiligi shundaki, bu ta’rifda borliq ob’ektiv reallik tushunchasi bilan aynanlashib qolgan.

Aslida esa borliq kategoriyasi umumiylashgan abstraksiya bo‘lib mavjudlik belgisi bo‘yicha turli xil hodisalar, predmetlar va jarayonlarni o‘zida birlashtiradi. Tabiiy ob’ektlar, ularning xossalari, aloqadorliklari va munosabatlari, kishilar jamoasi va ayrim odamlar, ijtimoiy tashkilotlar, inson ongingin holati va boshqalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Borliq nafaqat predmetlarni, jismlarni, ob’ektiv reallikni, balki, ma’naviy hodisalarni, ruhiyatni, ong va tasavvurni, *sub’ektiv reallikni* ham o‘ziga qamrab oladi.

Borliqning asosiy sohalariga tabiat, jamiyat va ong kiradi. Bu sohalar uchun umumiy jihat - ularning mavjudligidadir. A.G.Spirkin shunday yozadi «Barcha mavjud narsalar borliqqa mansubdir. Ularga moddiy jismlar ham, barcha (fizik, ximik, geologik, biologik, ijtimoiy, psixologik, ma’naviy) jarayonlar ham, ularning xossalari, aloqalari va munosabatlari ham kiradi. U chyqur hayolotning mevasi bo‘lgan ertak va afsonalar, hatto bemorning xayolidagi alahsirashlar ham, borliqning qismi bo‘lgan ma’naviy reallik sifatida mavjuddir»<sup>3</sup>. Shunday qilib «ruh va materiya, hech bo‘limganda mavjudlik

<sup>2</sup> Очерки истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Т.:Фан, 1977. 63-64-б.

<sup>3</sup> Спиркин А.Г. Философия. М., 2000. 243-б.

Философия. Учебник. М.,1996. 139-б.

sifatida umumiylıkka egadir» (*I.Disgen*). Shubhasiz, ular bir-birlaridan farq ham qilishadi. Agar moddiylik va ma'naviyilikni bir-biriga taqqoslasak, moddiylik sub'ektdan mustaqil ravishda, ma'naviyilik esa unga bog'liq ravishda mavjud bo'ladi. Shunday qilib, borliq mohiyat jihatidan *moddiy borliq* va *ma'naviy borliqqa* bo'linadi.

Falsafaga oid bir darslikda haqli ravishda shunday deb yozilgan: «Borliq - bu tushunishni talab qiladigan va tushunish asosida yuzaga chiqadigan, shakllanadigan narsa. Borliq - bu predmetlarning ko'rinishi yoki shakllaridan biri emas, predmetlar sinfining umumiyl tushunchasi ham emas, borliq - bu mavjudlikning borlig'idir. Borliq - bu borliqni anglashda nima kutilayotgan va tushunilayotgan bo'lsa, o'shanig o'zidir»<sup>3</sup>. Bu ta'rifdan, borliqqa qaysi jihatdan yondashsak - u o'sha xususiyatni o'zida mujassamlashtiradi, nimaiki voqiy bo'lsa, borliq ularning hammasini o'ziga qamrab oladi, degan ma'no kelib chiqadi. Shu jihatdan tadqiqotchilar borliqni turli shakllarga bo'lib o'rganishadi.

Borliqni shakllarga ajratishda uning asosida, mohiyatida nimalar yotishiga e'tibor qaratish lozim. Shu tariqa falsafada *substansiya* kategoriyasi shakllangan. Substansiya (lotin. *substantia* - mohiyat, asosida yotuvchi nimadir) muayyan narsalar, voqealar, hodisalar va jarayonlar xilma-xilligining ichki birligida namoyon bo'luvchi mohiyat.

Substansiya deyilganda falsafada dastlabki paytlarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va dunyodagi barcha narsa va hodisalarning asosida yotuvchi moddiy yoki ruhiy mohiyat anglangan. O'rta asr Sharq falsafasi namoyandalari alKindiy, Zakariyo Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlarida substansiya deb hamma narsaning moddiy yoki ma'naviy asosi, mohiyati tushunilgan. Substansiyaga qarama-qarshi tushuncha «aksidensiya» deb atalgan. Aksidensiya (lot. *accidentia* - o'tkinchi, tasodifiy) narsa va hodisalarning o'tkinchi sifatlarini ifodalaydi. Forobiyning yozishicha, «olamda substansiya va aksidensiya hamda ularni yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo'qdir»<sup>4</sup>; «Aksidensiyani sezgilar oqrali his etish mumkin, substansiyani esa faqat aql anglab yetadi»<sup>5</sup>; «Masalan, olma - substansiya bo'lsa, uning qizilligi esa aksidensiyadir»<sup>6</sup>. Substansiyani talqin etishda falsafada ikki xil - *ontologik* va *gnoseologik* yo'naliish bor. Ontologik yo'naliish bo'yicha F.Bekon substansiya borliqning eng tub asosida yotadi deb hisoblagan va substansiyani muayyan narsalarning shakli bilan aynanlashtirgan. R.Dekart borliqning asosida ikki xil mustaqil substansiya: moddiy va ma'naviy substansiya yotadi deydi. Moddiy substansiya borliqning ko'lami bilan, ma'naviy substansiya esa tafakkur bilan belgilanadi. B.Spinoza esa tafakkur va ko'lam - ikki xil mustaqil substansiya emas, balki yagona substansiyaning ikki xil atributidir (atribut - ajralmas xususiyati degani). G.Leybnisning fikricha, olamning asosida ko'plab mustaqil substansiyalar (monadalar) yotadi.

Gnoseologik yo'naliish bo'yicha, substansiya olamning asosida yotuvchi shartli g'oyalardan iboratdir (J.Lokk). J.Berkli esa ham moddiy, ham ma'naviy substansiyaning mavjudligini inkor etgan va u substansiya deb dunyoni idrok qilishning gipotetik

<sup>4</sup> Форобий. Рисолалар. Т.:Фан, 1975. 50-б.

<sup>5</sup> Ўша асар. 50-б.

<sup>6</sup> Ўша асар. 54-б.

assotsiatsiyasini anglagan. I.Kantning nuqtai nazaricha, «u shunday bir doimiy narsaki, faqat unga nisbatangina hamma vaqtinchalik, o'tkinchi hodisalarni aniqlash mumkin». Xegel «absolyut g'oya», «absolyut ruh»ni substansiya deb qarab, uni narsalarning muhim, o'zgaruvchan, rivojlanuvchi tomonlarining yaxlitligidir, deb hisoblaydi. Ba'zi bir hozirgi zamон falsafiy konsepsiyalarda substansiya kategoriyasiga nisbatan salbiy munosabatlarni kuzatish mumkin. Masalan, neopozitivistlar substansiya odamlarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlarini qo'pollashtiradi, deb hisoblashadi. Ularning fikricha, bu kategoriya borliqning mohiyatini sodda va jaydari ko'rinishda tushunish natijasida paydo bo'lgan.

Olamning tuzilishini tushunish yana bir tushuncha «substrat» kategoriyasi bilan ham bog'langandir. *Substrat* (lot. *substratum* - asos, to'shama, taglik) narsa va hodisalarning umumiyl moddiy asosi; nisbatan oddiy va sifat jihatdan elementar bo'lgan moddiy yoki g'oyaviy tuzilmalar majmuasi. Ayrim falsafiy konsepsiyalarda substrat deb dunyon tashkil etuvchi mutlaq elementar va bo'linmas asoslar tushunilgan. Masalan, qadimgi Hind falsafasida olamning asosida to'rtta bo'linmas unsur - suv, havo, tuproq va olov yotadi deb ta'lim beriladi. Bunday qarash Markaziy Osiyoda yaratilgan «Avesto» da ham uchraydi. Qadimgi Yunon falsafasida Levkipp, Demokrit, Epikur, Lukresiy fikricha, dunyo atomlar va bo'shliqdan tashkil topgan, Anaksimandr - apeyrondan, Aflatun

- g'oya, ruhdan, Fales - suvdan, Geraklit - olovdan iborat deb ta'lim bergen. Forobiyning yozishicha, qadimgi yunon faylasuflari har qanday narsa qandaydir bir substratdan tashkil topganligini uqtirish bilan bir qatorda, uning absolyut va o'zgarmasligini ta'kidlashgan. Xullas, har qanday ob'ektning nimalardan tashkil topganligi, sistemaning asosida shu sistemani tashkil etuvchi asosni axtarish - substratni axtarishdir. Masalan, RNK, DNK va oqsillar biologik organizmlar uchun substrat bo'lsa, EHMLarning asosida axborotlar almashuvi jarayoni substrat bo'lib keladi. Borliqning asosida yotuvchi birlamchi mohiyatni axtarish - *substansial yondashuv* bo'lsa, har qanday sistemaning, umuman borliqning nimalardan bunyod qilinganligini, tarkib topganligini, tashkil topganligini, «qurilganligini» axtarish *substrakt yondashuvdir*.

Har ikkala yondashuvda ham birmuncha biryoqlamalik, voqelikni substansiya yoki substratga bog'lab qo'yish, uning murakkabligi va xilma-xilligini e'tibordan chetlashtirish ko'zga tashlanadi. Aslida borliqqa yanada kengroq, umumiyroq nuqtai nazardan yondashish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashish borliqni yo'qlik, ya'ni «hech nima» orqali ifodalash bilan bog'langandir.

*Borliq* tushunchasiga qarama-qarshi tushuncha - bu yo'qlikdir. Agar borliq tushunchasi *nimaningdir mavjudligini* ifodalasa, yo'qlik tushunchasi esa o'sha joyda nimaningdir *mavjud emasligini* anglatib, «*nima*»ning aksi bo'lgan «*hech nima*»ni aks ettiradi. Borliq, yuqorida qayd etganimizdek, absolyut mazmunga ega bo'lib, muayyan (konkret) narsalar shaklida va nisbatan muayyan sifatiy holda mavjud bo'lgan yaxlit ob'ektiv va sub'ektiv reallikni o'ziga qamrab oladi.

Yo'qlik esa nisbiy mazmundagi tushuncha bo'lib, qaerdadir yoki nimadadir, nimaningdir ayni paytda mavjud emasligini ifodalaydi. Masalan, yo'qlik deb o'tmishdagi

va keljakdagi hodisalarning hozirgi zamonda (ayni shu vaqtda) yo‘qligini aytishadi. Bugungi hodisa kecha hali yo‘q edi, ammo potensial (imkoniyatdagi) borliq sifatida mayjud edi. Ertangi hodisa ham hozircha yo‘qlik, ammo potensial borliqdir. Biz o‘tmishni bugungi kunda qoldirgan iziga qarab, keljakni esa bugungi hodisalardagi o‘zgarish sur’ati (tempi) va tendensiyalariga qarab baholaymiz. Bugungi voqelik ertaga yo‘qlikka aylanadi, ko‘pgina tirik jonivorlar ertaga o‘lik bo‘ladi, ya’ni hayot o‘limga aylanadi. O‘lim - bu hayotning yo‘qligidir. Olingan individning hayotiy borlig‘i u o‘lgach, yo‘qlikka aylanadi. Ammo, uning qoldiqlari, tanasi birdan yo‘qolmasligi mumkin. Ular ham yo‘qolgach, odamlar xotirasida uning siyomosi qolishi mumkin. Xullas, absolyut (mutlaq) yo‘qlikning o‘zi yo‘qdir. *Yo‘qlik* shu ma’noda *nisbiy* mazmun kasb etadi.

Yo‘qlik(hech nima)ni *gnoseologik ma’noda* ham tushunish mumkin. Biz yo‘q deb hisoblagan ob’ektlar hozircha bizning fikr doiramizdan (bilish chegarasidan) chetda qolgan bo‘lishi ham mumkin. Voqelikning muayyan joyida ma’lum bir sinfga mansub ob’ektlar, ularning munosabat va aloqadorliklarining uchramasligini ham yo‘qlik deyish mumkin. Masalan, fizik vakuumda bizga ma’lum bo‘lgan biror fizik ob’ekt uchramaydi. Aslida, u joyda ham biz hali bilmaydigan shakldagi gipotetik olamlar va ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari, qonuniyatları mavjuddir. O‘tgan asrlarda elektromagnit maydoni, ko‘pgina elementar zarrachalarning mavjudligi haqidagi tasavvurlar yo‘q edi. Aniqrog‘i, biz ularning mavjudligini bilmas edik. Ular biz uchun «yo‘qlik» hisoblanar edi. Mana shunga «borliq va yo‘qlikni gnoseologik tushunish» deyiladi.

*Borliq* voqelikning eng umumiy, ichki va tashqi, mohiyati va mazmuniga aloqador barcha jihatlarini aks ettirsa, *mavjudlik* esa voqelikning tashqi, ko‘zga tashlanadigan, shakliga aloqador va tajriba vositasida bilib olinadigan tomonini ifodalaydi. Borliq esa voqelikning chuqur mohiyatini ham qamrab olib, aql vositasidagina bilib olinadi, deyiladi. *Mavjudlik* so‘zi lotinchada *ex(s)istentia* deb atalib, bu so‘z lotincha - *ex(s)isto* dan olingan bo‘lib - mavjudman degan ma’noni anglatadi. Ekzistensializm – mavjudlik falsafasi shu so‘zdan olingan. *Reallik* esa borliqning muayyan ob’ektda mavjud bo‘lgan mujassamlashgan qismini ifodalaydi. Reallik borliqning ayni paytdagi mavjud qismidir.

*Moddiy va g‘oyaviy borliq*. Atrofimizni o‘rab turgan dunyo ikki xil reallikdan tashkil topgandir. Ob’ektiv reallik va sub’ektiv reallik. Ongimizdan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lмаган holda mavjud bo‘lgan reallik *ob’ektiv reallik* deyiladi. Bu tushunchani materialistlar materiya tushunchasi bilan aynan bir ma’noda ishlatsizadi. Reallikning inson ongi bilan bog‘liq bo‘lgan va ongning mahsuli hisoblangan qismi *sub’ektiv reallik* deyiladi. Ob’ektiv reallik moddiy borliq tushunchasiga mos kelsa, sub’ektiv reallik esa borliqning g‘oyaviy shakliga muvofiq keladi. Materializm vakillari borliqning g‘oyaviy shakli moddiy shaklining maxsuli, deb hisoblashadi. Idealizm vakillari esa moddiylik g‘oyaviylikning ijodi yoki g‘oyaviylikning namoyon bo‘lish shaklidir.

*Aktual va potensial borliq*. Aktual borliq borliqning ayni paytda va shu joydagи voqelikda namoyon bo‘lib turgan va shu voqelik bilan aloqadorlikdagi qismi. Bu ob’ektiv reallik tushunchasiga mos keladi, chunki ob’ektiv reallik borliqning shu joyda berilgan va shu onda amal qilayotgan qismidir. Dunyoning hamma tomoni birdan berilgan emas. Biz

borliqning hozirgi zamonga tegishli qismi bilangina aloqadamiz. Bu qismi o'tmishga aylanib, uning o'rnini kelajakdagi qismi egallaydi. Hozirgi zamonda kelgusi voqelikning kurtaklari mujassamlashgan bo'ladi. Aktual borliqning hali voqelikka aylanmagan va kelgusida voqelikka aylanadigan murtak holidagi qismi potensial borliq deyiladi. Potensial borliq hali voqelikka aylanishga ulgurmagan, salohiyotdagi aktual borliqdir.

*Real va virtual borliq.* Borliqning biz uchun mavjud qismi real borliq deyiladi. Real borliqni naqd borliq ham deyish mumkin. Ammo borliqning shunday qismi ham borki, uning bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Borliqning bunday qismi ehtimoliy mazmunga ega. U hali reallikdan uzoqda. Mana shunday mazmundagi borliq virtual (lot. *virtuales* - ehtimol) borliq deyiladi.

*Tabiiy va ijtimoiy borliq.* Tabiiy borliq deganda odatda atrofimizdagи jismoniy narsalar (jismlar), jarayonlar, tabiatning holatlari nazarda tutiladi. Tabiiy borliq ikki qismga ajraladi: birinchisi - azaliy tabiiy borliq, ya'ni tabiatning tabiiy borlig'i. U insondan ilgari insonning ishtirokisiz mavjud bo'lgan. Buni *birlamchi tabiat* deb ham atashadi; ikkinchisi - inson ishtiroki bilan vujudga kelgan narsalar (jismlar), hodisa va jarayonlarni o'z ichiga oluvchi xosilaviy tabiiy borliq. Uni *ikkilamchi tabiat* deb ham atash mumkin.

Ikkilamchi tabiat doirasida borliqning quyidagi ko'rinishlarini kuzatish mumkin:  
- inson borlig'i - insonning narsalar dunyosidagi borlig'i va maxsus insoniy borliqdan iborat;

- ma'naviy borliq - individuallashgan va ob'ektivlashgan  
(individuallikdan tashqaridagi) ma'naviy borliqdan iborat;  
- sotsial borliq - ayrim odamning jamiyatdagi va tarix jarayonidagi borlig'i hamda jamiyatning borlig'i - ijtimoiy borliq.

Olamda nimaiki mavjud bo'lsa, ularning hammasi birgalikda keng ma'noda «*yaxlit dunyo*»ni tashkil etadi va uni ba'zan «*haqiqiy borliq*» deb ham atashadi.

Forobiy barcha mavjud narsalarning yig'indisi dunyoni tashkil qiladi, «hamma narsaning umumiy jinsi olamdir»<sup>7</sup> va «olamdan tashqarida hech nima yo'qdir»<sup>8</sup> deb hisoblagan. Yaxlit holda butun dunyoning asosida nima yotadi? Bu savolga javob berishda faylasuflar turli xil konsepsiylarda fikr yuritishadi. Bu joyda asosan uch xil muhim konsepsiyanı ko'rsatish mumkin. Ularga *monistik*, *dualistik* va *plyuralistik* konsepsiylar kiradi.

### 3- Borliqqa yondashuvning asosiy konsepsiyalari

*Monizm* (yunon. *monos* - bitta) konsepsiysi vakillari dunyoning asosida bitta manba (bitta substansiya) yotadi deb hisoblashadi. Materialistik monizm tarafдорлари bu manba moddiy manbadir deb aytishsa, idealistik monizm tarafдорлари dunyoning asosida bitta g'oyaviy negiz, g'oyaviy, ma'naviy, ilohiy substansiya yotadi deyishadi.

<sup>7</sup> Форобий. Рисола ат тахсил ас саодат\| Хайруллаев М. Форобий. Т.,1963.60-6. <sup>8</sup> Ўша асап. 60 6.

*Dualizm* (lot.*dualis* - ikkilangan) vakillarining fikricha, dunyoning asosida ikkita mustaqil negiz: ham moddiy, ham g‘oyaviy (ma’naviy, ilohiy) negiz yotadi, deb hisoblashadi. Arastu dualist bo‘lgan, uning fikricha, dunyoning asosida materiya va shakl yotadi, materiya passiv va inert negiz bo‘lsa, shakl esa faol, aktiv, yaratuvchan negizdir.

*Plyuralizm* (lot. *pluralis* - ko‘pchilik) vakillarining aytishicha, borliqning asosida ko‘plab, bir-biridan mustaqil moddiy va g‘oyaviy negizlar yotadi. Ayrim plyuralistlar moddiy negizlarga urg‘u berishadi. Ularni materialistik plyuralizm vakillari deyish mumkin. Masalan, qadimgi xitoy, qadimgi hind, qadimgi yunon materialistlari borliq olov, suv, havo va tuproqdan tashkil topgan deyishgan. Boshqa yo‘nalishdagi plyuralistlar esa ma’naviy, g‘oyaviy substansiyalarga ustuvorlik berishgan (ularni idealistik plyuralizm vakillari deyishadi). Masalan, Max va Avenarius dunyoning asosida yotuvchi elementlar turli shakldagi sezgilardan iboratdir, deb hisoblaydi. Shuningdek, dunyoning asosida ko‘plab ham moddiy, ham ma’naviy (bir xil darajada) elementlar yotadi (Demokritda bu elementlar atomlar, Leybnisda g‘oyaviy monadalar) deb hisoblovchi plyuralistlar ham bor.

#### **4-Harakat – borliqning asosiy mavjudlik usuli**

Borliqning mavjudligi undagi o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Agar o‘zgarish bo‘lmasa, borliqning bor yoki yo‘qligi noma’lumligicha qolardi. Har qanday o‘zgarish - harakatdir. O‘zgarishlar na faqat moddiy ob’ektlarga, balki ma’naviy, g‘oyaviy ob’ektlarga ham xosdir. Har qanday (moddiy yoki g‘oyaviy) ob’ektning mavjudligi undagi harakat va o‘zgarishlar tufayli namoyon bo‘ladi. Shu sababli *harakat borliqning asosiy mavjudlik usulidir*. Falsafiy adabiyotlarda moddiy borliqning quyidagi harakat shakllarini ajratib ko‘rsatishadi: 1) moddiy harakatning eng sodda shakli - *mexanik harakat* (uni moddiy nuqtalarning fazodagi siljishi deb ta’riflashadi); 2) *fizik harakat* (elementar zarachalar, atom yadrosi va atomning harakatidan tortib, olamning fundamental kuchlari, issiqlik, elektr va maydon harakatigacha, yorug‘likdan tortib koinotning gravitatsiya kuchigacha barchasi shu harakat shakliga mansubdir); 3) *ximiyaviy harakat* (bunga molekulalarning assotsiatsiyasi va dissotsiatsiyasi, ionlar harakati, moddaning muzlashi va kristallanish jarayonlari, ximiyaviy reaksiyalar, ximiyaviy sintez va parchalanish, yonish va oksidlanish va boshqa ximiyaviy jarayonlar kiradi); 4) biologik harakat (hayotiy jarayonlar); 5) *sotsial* (yoki *ijtimoiy*) *harakat* (jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning namoyon bo‘lishi). Bularidan tashqari, inson aql-zakovati hamda axborot jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan ideal, g‘oyaviy, ma’naviy ko‘rinishdagi harakat shakllari ham mavjuddir.

Harakatning eng sodda shakli mexanik harakat bo‘lib, uning manbai tashqi ta’sirda, harakatning murakkab shakllarining manbai esa ichki aloqadorliklarda. Faylasuflar qadimdan harakat va uning manbalari haqida xilma-xil konsepsiyalarni ilgari surib kelishadi. Ayrim faylasuflar hatto harakatning mavjudligini ham inkor etgan. Ioniya maktabiga mansub faylasuflardan Eleylik Zenon harakatning yo‘qligini o‘zining «Axill va toshbaqa», «Dixatomiya», «Uchayotgan kamon o‘qi» kabi mashhur *aporiya* (yunon.

*aporia* - ilojsiz vaziyat)larida harakatning yo‘qligini isbotlashga uringan. Buni dastlab, Arastu yaxshi tushunib yetdi. Sharq falsafasida esa Forobiyning falsafiy risolalarida bu muammo yaxshi asoslab berilgan. Yangi davr falsafasida G.Xegel harakatning mohiyatini formal mantiq vositasida ifodalash mumkin emasligi, uni faqatgina dialektik mantiq doirasidagina asoslash mumkinligini ta’kidlagan.

## 5- Fazo va vaqt – borliqning tuzilishi sifatida

Borliq tuzilishga ega, ya’ni u strukturali. Borliqning asosiy tuzilishi shakli (strukturaviy shakli) uning fazo va vaqtida mavjudligi bilan izohlanadi.

Inson o‘zining kundalik hayotida «masofa», «uzunlik», «joy», «o‘rnii», «ko‘lami», «miqyosi», «makoni», «balandligi», «eni», «bo‘yi», «baland», «past», «yuqori», «quyi», «ichi», «tashqarisi», «o‘ng», «chap», «oldi», «orqasi», «o‘ngi», «teskarisi», «chuqur», «sayoz», «tubi», «yuzasi», «satxi», «ostti», «ustti», «yoni», «tevarak atrofi», «yaqin», «uzoq» singari *fazoga oid*, «lahza», «payt», «davr», «zamon», «fasl», «kecha», «bugun», «ertaga», «indin», «o‘tgan payt», «oldin», «hozir», «shu payt», «shu on», «keyin», «endi», «o‘tmish», «kelajak», «davomiylik», «erta», «kech», «azaliylik», «abadiylik», «mangulik» kabi *vaqtga oid* tushunchalarga duch keladi. Bu tushunchalar voqe va hodisalarga nisbatan qo‘llaniladi. Fanda *hodisa* deb fazo va vaqt nuqtasiga, ya’ni «shu on» va «shu joy»ga aytildi. Shu jihatdan dunyo «shu joy» va «shu on»lar majmuasidan iborat. *Fazo* - vaqtning muayyan lahzasida bu dunyonи tashkil etgan nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibini ifodalasa, *vaqt esa* - fazoning har bir nuqtasida ro‘y beruvchi hodisalarning ketma-ketligi, davomiyligi tartibini ifodalaydi<sup>8</sup>. Shu tarzda fazoni vaqt bilan, vaqtini fazo bilan belgilash mumkin.

Fazo va vaqt - borliqning umumiy yashash shakllari bo‘lib, fazo dunyonи tashkil etuvchi ob’ektlar va ularning tarkibiy nuqtalarining o‘zaro joylashish tartibi, ko‘lami va miqyosini ifoda etadi, vaqt esa dunyoda sodir bo‘luvchi hodisa va jarayonlarning ro‘y berish ketma-ketligi tartibi va davomiyligini ifodalaydi. O‘zbek tilidagi adabiyotlarda arab tilidan kirgan makon va zamon atamalari ham ishlatiladi. Fazo va vaqtning tabiatи va mohiyati haqida qadimdan faylasuflar xilma-xil nuqtai nazarlarni ilgari surib kelishadi. Ularni umumlashtirib, ikki yirik konsepsiya ajratish mumkin. Bu konsepsiylar *substansial* va *relyatsion* konsepsiylar deb ataladi.

*Substansial konsepsiya*da fazo va vaqtning absolyut jihatlari, *relyatsion konsepsiya*da esa ularning nisbiy jihatlari absolyutlashtiriladi. *Substansial konsepsiya* tarafdozlari (*Demokrit, Aflatun, Eronshahri, Zakariyo ar Roziy, Beruniy, Patritsiy, Kampanella, Gassendi, Nyuton, Eyler, Mopertyui va boshqalar*) fikricha, fazo - materiya va moddiy aloqadorliklardan tashqarida, ularga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lgan mustaqil substansiyadir; fazo - moddiy ob’ektlar uchun joylashish makoni, u absolyutdir. Vaqt esa borliqqa, fazo va harakatga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi; vaqt munosabatlari absolyutdir, ya’ni vaqt hamma hisob sistemalarida bir xilda o‘tadi. Fazo va vaqtini ular mustaqil substansiya deb hisoblaganliklari tufayli bunday yondashuv *substansial konsepsiya* deb fanga kirgan.

<sup>8</sup> Тураев Б.О. Пространство. Время. Развитие. Т.: Фан, 1992. 20-29-6.

*Relyatsion konsepsiya* vakillari(*Arastu, Avgustin, al-Kindiy, Ibn Sino, Nosiri Xisrov, Faxriddin Roziy, Nasriddin Tusiy, Dekart, Leybnis, Toland, Boshkovich, Yum, Fixte, Kant, Xegel*)ning fikricha, fazo - moddiy dunyoning tarkibiy tuzilishi tartibining namoyon bo‘lishi, jismlarning o‘zaro joylashish o‘rinlari va moddiy narsalarning mavjudligi tartibini ifodalaydi. Fazo - juz’iy holda ham, umumiy holda ham moddiy dunyoning holatiga bog‘liqdir; materiya fazoning mavjudligi uchun asosiy vositadir; fazo - nisbiydir. Vaqt esa materiyaning atributi (ajralmas xususiyati), u materiyadan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emas, vaqt munosabatlari nisbiydir, vaqtning davomiyligi moddiy ob’ektlarning o‘zaro aloqadorligiga, hisob sistemasiga bog‘liqdir. Hozirgi zamonda borliqning turli tashkiliy struktura darajalariga aloqador bo‘lgan fizik, ximiyaviy, geologik, biologik, fiziologik, ijtimoiy (sotsiologik), psixologik fazo va vaqt haqidagi konsepsiylar ham yaratilmoqda. Bunday konsepsiyalarda olamning tuzilishi jihatdan xilma-xilligi va birligi, ko‘p qirraliligi va cheksizligi, murakkabligi va nihoyasizligi asoslanmoqda. XX asr oxiri va XIX asrning boshlarida nazariy fizika, topologiya, chiziqli algebra, kvant fizikasi, qora tuynuklar fizikasi, relyativistik kosmologiya fanlarining rivojlanishi fazo va vaqt haqidagi tasavvurlarni jiddiy o‘zgartirdi. Ayniqsa, konseptual fazo (vaqt)ni informatsion texnologiya vositalarida modellashtirish yo‘llari osonlashgach, fazo va vaqtning turli-tuman modellarini tadqiq etish imkoniyatiga keng yo‘l ochildi. Bu tadqiqotlar olamdagи yagona, eng umumiy, universal va fundamental aloqadorlik - bu fazo - vaqt aloqadorligidir deb xulosa chiqarishga to‘liq asos berdi.

## **6-. Materiya (modda) falsafa va tabiiyatshunoslikning kategoriyasi sifatida**

Kishilar dastlab voqelikning moddiy shakllariga duch keladilar. Ilk materializm tarafdorlari olamda hamma narsaning boshida turgan va hamma narsalarni keltirib chiqargan, hamma narsaning tarkibiga kiruvchi bosh sabab «pramateriya»ni, ya’ni materiyaning bobokalonini izlashgan. R.Dekartning fikricha, bunday «pramateriya» rolini efir egallaydi. Sharq falsafasida materiya dunyoning asosida yotuvchi moddiy sabab, ilohiy sababning hosilasi sifatida qaraladi. Al-Kindiy fikricha materiya Allohning amri bilan yo‘qdan bunyod bo‘lgan<sup>9</sup>. Forobiy, Ibn Sino, Tusiy va boshqalar materiyani har doim bo‘lgan (daxr - mangu) deb hisoblagan. Islom falsafasida mangulik sifati faqatgina Allohgagina xos sifatdir deb hisoblanadi. Jism, modda o‘tkinchidir. Bir payt paydo bo‘ladi va boshqa paytda yo‘qoladi. Ruh yaratilgan, ammo u abadiy yashaydi deb talqin etiladi. Shu sababli islom falsafasida materiyaning manguligini isbotlashga urinuvchi faylasuflarni daxriylar (daxr - mangulik) deb atashgan.

*Materiya moddiy ob’ektlarni birlashtiruvchi tushuncha.* Xususan olinganda materiyaning o‘zi yo‘q, balki dunyoda materiyaning ayrim predmet yoki biror konkret buyum shaklidagi ko‘rinishlari uchraydi. Materiya esa materiyaning hamma konkret ko‘rinishlariga xos bo‘lgan barcha universal xususiyatlarini aks ettiruvchi umumiyl tushunchadir. Bu dunyoda «umuman odam» bo‘lmashdan, ayrim odamlar uchrashiga

<sup>9</sup> Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока . М., 1961. 47-6.

o‘xshash fikrdir. Umuman odam - bu ayrim odamlarga xos umumiy belgilarni aks ettiruvchi abstraksiyadir. Shunga o‘xshash materiya tushunchasi ham abstraksiyadir. U mayjud bo‘lgan butun ob’ektiv reallikni qamrab oluvchi falsafiy kategoriyadir. Materiya ongdan mustaqil ravishda va unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘ladi. *Materiyaning falsafiy tushunchasi barcha narsalar vogeligi, moddiy vogelikni o‘ziga qamrab oluvchi, yalpi umumiylig (universallik) belgilariga egalik qiluvchi, butun ob’ektiv reallikni ifodalovchi kategoriyadir.*

Materiya to‘g‘risidagi falsafiy ta’limotning asosiy tomonlari quyidagilardan iboratdir:

- materiya kategoriyasining universalligini, yalpi umumiyligini tan olish;
- materiya kategoriyasining falsafiy abstraksiya ekanligini tan olish;
- materiya va moddiy sistemalarning ob’ektivligini tan olish;
- materiyaning rivojlanishini va moddiy sistemalarning evolyusiyasini tan olish;
- materiya va moddiy sistemalarning nihoyasizligini, bitmastuganmasligini, cheksizligini tan olish.

Materiya va moddiy ob’ektlar xilma-xil ko‘rinishlarda va shakllarda uchraydi. Moddiy sistemalar tuzilishga ega, ya’ni u strukturali - turli xil strukturaviy elementlardan tashkil topgan bo‘ladi. Bunday elementlar va ulardan tashkil topgan moddiy ob’ektlar rivojlanishga egadir.

Materiya va moddiy sistemalar, ob’ektiv dunyoning tuzilishi xususiyatlariga ko‘ra, turli xil strukturaviy darajalardan tashkil topgan bo‘ladi. Bunday darajalarni moddiy sistemalarning tashkiliy tuzilishi va miqyosiy tuzilishiga qarab: *a) tashkiliy-struktura* darajalari va *b) miqyosiystruktura* darajalariga ajratish mumkin.

*Materiyaning tashkiliy-struktura darajalari.* Materiyaning tashkiliystruktura darajalari moddiy sistemalarning tashkiliy jihatdan uyushganligi va faolligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bu darajalar fazo-vaqt strukturasining sifatiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular: *noorganik* daraja («*notirik tabiat*»), *organik* daraja («*tirik tabiat*») va *sotsial* daraja («*jamiyat*») deb ataladi. Sifatiy jihatdan eng quyi darajada uyushgan va eng passiv (inert) daraja *noorganik* darajadir. Bu darajada atom yadrosi, yadro, atom va molekulalar majmuasi, molekular birikmalar, jismlar, yer shari, osmon jismlari, Quyosh sistemasi va boshqa planetar sistemalar, yulduzlar to‘pi, Gallaktika, metagalaktika va koinotning quyi darajada uyushgan fazovaqt aloqadorliklari namoyon bo‘ladi. Bunga nisbatan uyushganroq va faolroq fazo-vaqt sistemasi *organik* daraja deyiladi. Unga organik molekular sistemalar, tirik organizmlarning xilma-xil ko‘rinishlari, bir hujayrali suv o‘tlari va sodda jonivorlardan tortib, murakkab tuzilgan umirtqalilargacha, sodda hayvonlardan to maymunlar va odamlargacha kiradi.

Odamlardan tashkil topgan turli murakkablikdagi ijtimoiy sistemalar *sotsial* darajaga mansubdir. Bu darajada ongga, fikrga ega bo‘lgan insonlar faoliyat ko‘rsatganligi sababli u eng uyushgan va faol daraja hisoblanadi. Yuqorida aytilgan tashkiliy-struktura (tuzilish) darajalari bir-biridan moddiy aloqadorliklar sifati va miqdoriga ko‘ra, unda yetakchilik qiluvchi harakat shakliga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, noorganik darajada

mekanik, fizik, ximiyaviy va geologik harakat shakllari faoliyat ko'rsatsa, organik darajada yuqoridagi harakat shakllariga biologik harakat qo'shiladi va u mazkur darajada yetakchilik qiladi, sotsial darajada yana bir harakat shakli ijtimoiy harakat faoliyat ko'rsatib, u ushbu darajada yetakchilik qiladi<sup>10</sup>.

*Materiyaning miqyosiy-struktura darajalari.* Bu moddiy sistemalarning bir-biridan mazkur sistemada hukmronlik qiluvchi fundamental kuchlar bilan farq qiluvchi darajalardir. Ular: *mikrodunyo, makrodunyo va megadunyo* deyiladi.

*Mikrodunyoda kuchli va kuchsiz yadroviy o'zarota'sir kuchlari hukmronlik qiladi*<sup>12</sup>. Bu kuchlarning ta'sir doirasi atom yadrosi va atom o'lchovi bilan chegaralangandir. Kuchli yadroviy o'zarota'sirlar atom yadrosining tarkibiy qismlari bo'lgan proton va neytronlarning yaxlitligini, kuchsiz yadroviy o'zarota'sir kuchlari esa atom strukturasingning yaxlitligini ta'minlaydi. Bu kuchlar tufayli mikrodunyo o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlaydi. *Makrodunyoning strukturaviy yaxlitligi esa elektromagnit o'zarota'sirlari bilan saqlanadi.* Elektromagnit o'zarota'sir kuchlari atomlar va molekular brikmalarning, moddiy jismlarning strukturaviy yaxlitligini ta'minlaydi. Shu kuch tufayli Yerda hayot mavjud, yorug'lik mavjud. *Megadunyo - bu gravitatsion o'zarota'sirlar kuchi bilan chegaralangan eng katta moddiy ob'ekt - koinotdir.* Yer shari va uning atrofida Oyning aylanishi, sayyoralarining Quyosh atrofida aylanishini ta'minlovchi, Gallaktikamizning muayyan tuzilishga egaligiga, butun Koinotning fazo-vaqt strukturasi tartibining mavjudligiga gravitatsion o'zarota'sir kuchlari mas'uldir. Bu kuchlar bo'limganda edi dunyodagi hozirgi tartib va munosabatlар ham bo'limgan, mikro-, makro- va megadunyolar ham shakllanmagan bo'lar edi.

Xullas, materiya va moddiy ob'ektlarning strukturaviy yaxlitlikka ega bo'lishida harakat va fazo-vaqt shakllarining, ularning asosida yotuvchi o'zaroaloqadorlik kuchlarining roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Hozirgi zamon tabiyotshunoslik fanlari olamning tuzilishining o'ta murakkabligini, dunyoning xilma-xilligini ta'kidlash bilan bir qatorda, ob'ektiv dunyodagi moddiy ob'ektlarning ham xilma-xilligini, turlicha ko'rinishlarda uchrashini isbotlamoqda. Hozirgi paytda materiyaning muddasimon va nomoddasimon ko'rinishlarining mavjudligi aniqlangan<sup>11</sup>. Ob'ektiv reallikning butun bizga ko'rinishlarda qismidagi Koinot qa'ridan tortib, to mitti elementar zarrachalar va antizarrachalargacha (elektronlar, pozitronlar, protonlar, antiprotonlar, neytronlar va hakozo) materiyaning muddasimon ko'rinishiga mansubdir. Elektron va proton modda hisoblansa, pozitron va antiproton antimodda hisoblanadi. Hamma zarrachalar - modda, hamma antizarrachalar - antimoddadir. Materiyaning nomoddasimon ko'rinishiga turli xil fizik maydon va nurlanishlar kiradi. Modda bilan antimodda to'qnashganda materiyaning annigilyatsiya (lot. annihilation - yo'qolishi, hech nimaga aylanishi) hodisasi sodir bo'ladi, ya'ni materiya muddasimon

<sup>10</sup> Каримов Б.Р., Тураев Б.О. Развитие форм пространства и времени. Т.: Фан, 1992. С.14. <sup>12</sup>

Тураев Б.О. Пространство. Время. Развитие. Т.: Фан, 1992. С.47.

<sup>11</sup> Физический энциклопедический словарь. М., 1984. 23-24, 29-6.

ko‘rinishdan nomodda ko‘rinishiga – maydon va nurlanishga aylanadi. Fizik vakuumdagι elektromagnit maydonini muayyan intensivlikdagi nurlanishlar bilan bombardimon qilinganda mazkur vakuumda zarracha va antizarrachalar hosil bo‘ladi, ya’ni materianing maydon ko‘rinishi modda ko‘rinishiga aylanadi. Bu hodisalarnining mohiyatini mexanistik dunyoqarash asosida izohlashning iloji yo‘q, buning uchun yangicha logika va dialektik dunyoqarash lozim bo‘ladi.

### Nazorat savollari

1. Ontologiya nimani o‘rganadi?
2. Nima uchun «borliq» falsafaning asosiy kategoriyasi hisoblanadi?
3. Falsafa tarixida borliq muammosi qanday yechilgan?
4. Borliqning asosiy shakllari qaysilar?
5. Virtula borliqva gumanizm muaamosi?
6. Borliq muammosining falsafiy ma’nosi.
7. Antik falsafada borliq tushunchasi.
8. Forobiy borliqni qanday tushungan?
9. Ijtimoiy borliq va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
10. Hozirgi davrda borliq muammosiga turli yondoshuvlar.

### 4-MA’RUZA: ANALITIK FALSAFANING VUJUDGA KELISHI

Analitik falsafa (Anglo-sakson falsafasi, Anglo-Amerika falsafasi) - XX asr falsafiy tafakkuridagi yo‘nalish bo‘lib, asosan ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda rivojlanadi va ko‘plab turli tushuncha va maktablarni birlashtiradi. Analitik falsafa uchun quyidagi fikrlar keng tarqagan: lingvistik burilish-falsafiy muammolar til sohasida yotadi, shuning uchun ularning yechimi til ifodalarini tahlil qilish bilan bog‘liq; semantik diqqatma’no muammolariga qaratilgan; analitik usul-falsafiy aks ettirishning boshqa barcha turlariga tahlil qilish afzal.

Hozirgi zamon falsafasi bu XX asr va XXI asr boshlarida mavjud bo‘lgan falsafiy ta’limotlar va ularning xil-xil ko‘rinishlari bilan ifodalanadi XX asr Yevropa falsafasi o‘sadavrning iqtisodiy siyosiy, sotsial, mafkuraviy, ilmiy-texnikaviy o‘zgarishlarining ta’siri ostida rivojlangan.

Falsafa tabiiy ravishda sotsial ehtiyojlar, manfaatlar, maqsadlar va davlat buyurtmalarnini qondirilishiga ko‘makdosh bo‘lgan, XX asr Yevropa falsafasi xilma-xil yo‘nalishlarga ega bo‘gan, ularni jamiyatni ma’naviy hayotiga ta’sir etishi ham ijobjiy, ham salbiy, ham reaksiyon, ham progressiv, antimistik va passimistik ruhda bo‘lgan, XX asr birinchi yarmida Yevropada sodir bo‘lgan jahon urushlari, ijtimoiy silkinishlar va boshqa siyosiy hodisalar insonlarni kelajakka bo‘lgan munosabatlarnini,, o‘zgartirib yubordi. Ma’lum ma’noda Yevropa xalqlari ma’naviy tushkunlik xolatiga,,tushib qoldilar. Ba’zi falsafiy ta’limotlar insonlarni tushkunlik xolatidan chiqarishlarga harakat qildilar. Insonlarda kelajakka umid uchqunlarnini,,paydo qilishga urinishlar bo‘ldi XX asr Yevropa falsafasi

o'sha davrda xukumron mafkuraviy g'oyalarni ilmiy asosligiga va amalda tadbiq etilishiga xizmat qilgan. Yevropada xukumron bo'lgan fashizm mafkurasi,, kommunistik mafkura va irqchilik g'oyalari,, bilan sug'orilgan,,ba'zi,, o'ta reaksiyon diniy,, mafkuralari falsafa xizmat qildi, uni apologetlariga aylandi.

XX asrda falsafiy fikr taraqqiyotining asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ldi.

Birinchidan., falsafiy fikr muayyan mafkuraga xizmat qilganligida. Falsafani o'ta ideologiyalashuvi va siyosiylashuviga olib kelganligida. Buning asosiy sababi ikki sistema sotsialistik lager bilan kapitalistik lager o'rtasidagi sovuq urush fikrimizni dalili bo'la oladi0, Ikkinchidan, falsafa ikki jahon urushi tufayli kelib chiqagan fandagi, texnikadagi va harbiy sanoatdagi jadal suratlardagi o'zgarishlarga hozir javob bo'lmaganligida. Ya'ni klassik falsafa eskirib qolgan. Dunyoni •ilmiy manzarasi orqali tushuntira olmadni,

Uchinchidan., XX asr Yevropa falsafiy fikrida klassik va noklassik falsafalar o'rtasida tafovut va kurash vujudga kelgan. Kurash falsafaning abadiy muammolariga bo'lgan munosabatdan uni eskicha va yangicha xal etish fikrlash uslubi hayotda bordi.

Klassik falsafa inson aqliga ishonch bildirgan holda munosabat bildirdi.

Noklassik falsafa bo'yicha shubxa,, bilan qaradi.

Natijada falsafada ratsionalizm va irratsionalizm yo'nalishlari kelib chiqdi. To'rtinchidan, klassik falsafa turli g'oyaviy tizimlarga bo'linishiga qaramay muhim muammolarni hal etishda ma'lum bir umumiylilik mavjud. Xozirgi zamon falsafasida xilmayxil mustaqil oqimlar mavjud bo'lib, ular asosan tabiatshunoslik va gumanitar fanlarga integratsiyalashish tendensiyasi mavjud. Beshinchidan, xozirgi zamon falsafiy ta'limotlarnini nisbatan ikki yo'nalishga bo'lish ulardan birinchisi steptizm, ya'ni fan yordamida insoniyatni barcha muammolarnini hal etish mumkin deb e'tirof etuvchi qarashlar.

Fan ijobiy hodisani Ssientizm g'oyalari tyuzivizm falsafasi, texnologik teorizm, fan metodologiyasi, kabi ta'limotlarda o'z aksini topgan. Ikkinchisi antiszeptizm aksincha fanni saloxiyatligini e'tirof etgan xolda unga pessimistik munosabat bildirgan. Bularga ekzistensiolizm., frankfurt maktabi., neotomizm, personalizm falsafalari daxldordir0, Umuman olganda XX asr falsafasida,, bir-biriga muqobil bo'lgan yo'nalishlar ratsionolizm va irratsionolizm, idealizm va materializm o'rtasidagi kurash va muayyan falsafani yakka xokimlikka intilishi xarakterli belgisi bo'lib hisoblangan,,

Ekzistensializm (yashash falsafasi ma'nosida) xozirgi zamon filosofiyasining asosiy oqimlaridan biri xisoblanadi.

Ekzistensializm va fundamental ontologiya XX asrning 30-yillariga kelib hayot falsafasi asta-sekinlik bilan yo'qolib, o'z o'rnini ekzistensializmga bo'shatib beradi. Bu endi hayot falsafasiga qaraganda ancha kuchliroq falsafa bo'lib, unda dunyoda yashayotgan inson turmushining xilma - xil tomonlari bayon etiladi. Ekzistensialistlar hayot falsafasini psixologizmlar bilan to'lib - toshgan deb hisoblaydilar. Ekzistensiya so'nggi lotin tilida so'zma-so'z olganda, «mavjudlik» degan ma'noni anglatadi. Mana shu mavjudlikning o'zi esa ekzistensializmda sub'ekt bilan ob'ektning bevosita birikib, birlashib ketishi tarzida

tushuniladi. Bunda sub'ektning boshqalar uchun ochiqligi, o'zgalarning u uchun ochiqligi, ularning bir-biriga o'tishi bu jarayonning bir butunligi mavjudlik mohiyatini tashkil etadi. Ekzistensializmning diniy variantida (Yaspers, Marsel) ushbu o'zga narsa Xudodir, ozod shaxs mana shu xudoga tomon harakat qilib boraveradi. Ekzistensializmning ateistik variantida (Sartr, Kamyu) o'zga ob'ekt hech narsa sifatida, talqin etiladi. Buning ma'nosi shuki, odam o'z ozodligini amalga oshirib o'zini-o'zi to'satdan yaratadi. Odam tubsiz oqibatlar silsilasiga duch keladi, endi u mazkur silsiladan o'z yo'lini tanlab olishi kerak bo'ladi. Mana shu yo'lni tanlab amalga oshirish jarayonida u o'z erkinligini topadi. Ushbu tanlov uchun u eng avvalo o'z-o'zi oldida mas'uldir. Bu juda og'ir mas'uliyat. U o'zi o'zligini yaratishi bilan, o'zgalarni, bora-bora butun dunyoni kashf etadi. Inson o'zining chinakam mavjudligi holatida u muttasil kelajak ro'parasida, shu jumladan, o'lim qarshisida, o'z qilmishlari uchun javobgarlik vaziyatida turadi. Ekzistensiya xuddi qo'rquv, ekzistensional dahshat, tashvishli kutish singari namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda bunda xuddi chegaradagi ekzistensional vaziyatga o'xshagan holat sodir bo'ladi. Bunday holatda, Kamyu fikri bilan aytganda, asosiy falsafiy masala - bu o'z-o'zini o'ldirish masalasi hisoblanadi. Yashash qo'rqinchli, zerikarli, ham bema'ni bo'lgan bir sharoitda yashash kerakmi yoki yo'qmi? Ekzistensializm – bu ontologiya, borliq, mavjudlik haqidagi ta'limot. Ekzistensialist uchun odamning dunyoda mavjudligi muhim hisoblanib, tabiatning mustaqil ravishda mavjudligi to'g'risidagi masala esa uni unchalik qiziqtirmaydi. Tabiat insonga azal-azaldan ato etilgan. Bunda dastlabki reallik yaxlit bo'lib, u sub'ekt va ob'ektlarga bo'linmaydi. Fan dunyoni ob'ekt va sub'ektga ajratadi. Shu sababli fan ularning borlig'ini ifodalab berishga qodir emas. Bunga esa faqat ekzistensianing alohida akti - harakati orqali erishiladi. Ekzistensiya – bu shunchaki bir his'hayajon emas, balki olamda mavjudlik his-hayajonidir. Ekzistensiyada insonning ozod ekanligi yuqorida ta'kidlab o'tilgan edi. Ozod erkin bo'lish, bu o'zing o'zing bilan bo'lishliging, begona kishilarning ta'siridan halos bo'lishdir.

### Nazorat savollari

1. Analitik falsafaga qadar qaysi falsafa kuchli mavqega ega edi?
2. Analitik metodga izox bering.
3. Kimning asoschisi asarlarini analitik falsafaning manbai deb hisoblash mumkin?
4. "Mantiqiy atomizm" nazariyasi kimga tegishli?
5. B. Rassel iboralarning necha xilini ajaratadi?
6. "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta'rifini qanday tushunasiz?
7. Faktning asosiy xusuyaitin ayting?
8. G. Frege va B. Rassel g'oyalari o'rtasida ziddiyat nimada ko'rinadi?
9. Lingvistik tahlil falsafasi nimadan iborat?
10. L. Vitgenshteyn ta'limotining o'ziga xosligi nimada?

## **5-MA’RUZA. ANALITIK FALSAFANING FUNKSIONAL XARAKTERISTIKASI. ANALITIK EPISTEMOLOGIYa.**

Falsafaning noklassik rivojlanish bosqichi o‘z ichiga nafaqat uning ilmiylikka ko‘ra yo‘naltirilgan falsafani (masalan, haёт falsafasi va ekzistensializm) oladi. Fan erishgan g‘oyat ulkan yutuqlar, ayniqsa, XX asr boshlarida matematika va fizikadagi muvaffaqiyatlar faylasuflar e’tiborini o‘ziga tortdi. Nemis matematigi Gottlob Frege mantiq fani vositalari bilan matematikani takomillashtirishga intilgan juda ko‘p tadqiqotchilardan biri edi. Frege ayniqsa har xil, ya’ni ziddiyatli sog‘lom aqlga zid bo‘lgan fikrlarga boy matematik isbot sohasini mukammallashtirish ustida ko‘p ishlardi, lekin o‘z èndashuvlarida bitta g‘oyat muhim o‘ziga xos xususiyat bo‘lgan: uning intuitsiyasiga muvofiq, mantiq fanining o‘zini yanada rivojlantirish zarur bo‘lgan. U juda ko‘p sonli kamchiliklari bo‘lgan tabiiy tilning o‘rniga uni munosib darajada almashtiradigan bir tilni-formallashtirilgan tilni yaratish kerak, degan fikr bilan chiqqan. Fregening fikricha, o‘sha vaqtdagi formal mantiq bilan tabiiy til bir xil kamchilikka ega bo‘lgan-ya’ni ulardagi barcha tuzilgan gaplar sub’ektpredikat shakliga ega bo‘lgan. Sub’ekt va predikatga ajratish faqat «Ergash uxlayapti» kabi eng sodda gaplargagina to‘g‘ri keladi. Bu yerda «Ergash»-sub’ekt, «uxlayapti» esa-predikat. Lekin biroz murakkabroq bo‘lgan, masalan, «Ergash Lola bilan o‘ynayapti» degan gapni olib ko‘radigan bo‘lsak, uni sub’ekt va predikat qismlarga ajratish qiyinroq kechadi. Axir bu yerda Ergash ham, Lola ham bir xil darajaga ega bo‘lib, ularning xar ikkalasini ham sub’ekt deb atash mumkin. Bunday holatdan chiqish yo‘lini Frege argument bilan funksiyani bir-biridan farq qila bilishda ko‘rgan. «Ergash» va «Lola» - bular argument ifodalari, «bilan o‘ynayapti» esa-funksiyani ifodalarydi. Mazkur misolda «bilan o‘ynayapti» birinchi tartibdagi funksional ifoda hisoblanadi. Frege yana o‘zgaruvchi ikkinchi tartibdagi funksional ifodani ham iste’molga kiritadi. Mantiqqa kiritishni talab qiluvchi «hamma», «hech kim», «ba’zi bir» singari so‘zlardan iborat Frege ixtirolari mantiqni ancha o‘zgartirib yuboradi. U faqat matematikaga va formallahgan tarzdagи turli tillargagina emas, balki tabiiy tillarga ham, binobarin, falsafaga ham kirib bordi. < > Angliyalik mantiqshunos, matematik, faylasuf Bertran Rassel yangi mantiq ilgarigiga qaraganda yakuniy falsafiy haqiqatlarga kelishda, reallikning asosiy elementlari tabiatini aniqlashda eng qulay dastak ekanligiga ishonch bilan qaragan. Bu bilan u idealistlar (Leybnis., Gegel) qarashlaridan ancha ilgarilab ketdi. Rassel bunda uchta g‘oyaga amal qilgan. Birinchidan, sog‘lom falsafaning o‘zi mantiq hisoblanadi, chunki u rost èki èlg‘on bo‘lishi mumkin bo‘lgan fikrni tushuntirishdan boshlanadi. Bu esa mantiqning vazifasidir. Ikkinchidan, biz eng ishonchli bilimga eng avvalo his-tuyg‘ular orqali ega bo‘lamiz. Reallikning eng kichik elementlari reduksiyalash sohta taassurotlardan saqlaydi. Uchinchidan, bunda fikr mazmunini uning dastlabki mohiyatidan keltirib chiqariladi. Biror termin bilan ifodalab bo‘lmaydigan atamaning predmetligi Rassel uchun falsafa faniga, ya’ni kishining boshini aylantirib tashlaydigan eski metafizikaga mutlaqo o‘xshamaydigan fan bilan muvofiq keladi. Kembrijlik faylasuf Lyudvig Vitgenshteynning «Mantiqiyfalsafiy traktat» degan kitobi analitik falsafa rivojlanishi birinchi bosqichining kulminatsion nuqtasi bo‘ldi. Ushbu kitob 1921 yilda Germaniyada, 1922 yilda Angliyada, 1958 yilda Rossiyada bosilib chiqqan. Vitgenshteyn Rasselga qaraganda ko‘proq darajada qat’iyat bilan o‘z diqqat-e’tiborini tilga

qaratdi. Fikr tilda ifodalanadi, demak, aynan mana shu til tafakkurning chegarasi hisoblanadi. Faqat barcha tabiiy fanlar orqali baèn etiladigan birgina olamfaktlar olami, voqealar olami mavjud. Gap – bu olam manzarasidir. U olam bilan bir hil mantiqiy shaklga ega. Basharti olam mantiqsiz bo‘lganda edi, uni gap shaklida tasavvur qilib bo‘lmash edi. Gapning ma’nosini faktlar ifoda etadi. Barcha gaplar elementar gaplarning umumlashmasi hisoblanadi. Bu gaplar modellar sifatida bevosita faktlarga muvofiqlashadi. Demak, «umuman aytish mumkin bo‘lgan gapni aniq qilib aytish ham mumkin». qolgan boshqa hamma narsalar to‘g‘risida, masalan, mistik narsalar to‘g‘risida, yaxshisi-indamaslik kerak. Shuning uchun indamaslik kerakki, mistik fikrlarni, xuddi etik fikrlar singari yaqqol - mantiqan aniq ifodalab bo‘lmaydi. Bunday aytilgan fikrlarning rost èki èlg‘onligini tekshirib ham bo‘lmaydi. Agar kimdir biror joyi og‘riètganini aytса, o‘sha kishining o‘zidan boshqa hech kim ushbu og‘riqning haqiqiyligini isbotlab bera olmaydi. Falsafa ilmiy ta’riflar, gaplardan iborat emas, chunki u fandan farqli o‘laroq faktlar bilan ishlamaydi. Binobarin, falsafiy gaplar rost ham emas va èlg‘on ham emas: ular ma’nosizdirlar. Falsafaning maqsadi fikrlarning falsafiy gaplar tuzishdan iborat emas, balki fikrlarning mantiqiy manosini tushuntirib berishdan iborat. Shuning uchun ham falsafa bu ta’limot emas, balki faoliyatdir. Shunday qilib, mantiqiylingvistik ahamiyatlilik analitik falsafaning birinchi bosqichi uchun xarakterli xususiyat, o‘ziga xos burilish nuqtasidir. Shuningdek u qat’iy mantiqiy lingvistik sinovga duch kelgan falsafa statusini qaytadan ko‘rib chiqadigan bosqichdir. Bunga ko‘ra eski falsafiy tizimlarning to‘g‘ri ekanligi shubha ostida qoladi. Falsafa è fan sifatida tushuniladi (Rassel), èki fanga kirish yo‘li, fikrlarni aniqlashtirish bo‘yicha olib boriladigan bir faoliyat deb qaraldi. (Vitgenshteynning dastlabki qarashlari.) Neopozitivizm Agar analitik yo‘nalish oèeqqa turgan joy Rassel va Vitgenshteynlar ish olib borgan Angliya deb haqli ravishda hisoblash mumkin bo‘lsa, keyinchalik uning harakat markazi Vena va Berlinga ko‘chadi. «Faylasuflarning Venadagi to‘garagiga» M.Shlik, F.Frank, O.Neyrat, R.Karnap, K.Gegel kirganlar. Berlindagi «Ilmiy falsafa jamiyatini» G.Reyxenbach va K.Gempel singari birinchi darajali faylasuflar gullatishgan. Mana shu ikkala guruh vakillari o‘zaro kelishilgan falsafiy pozitsiyada turmagan bo‘lsalar - da, baribir ularning barchasini dunèni matematika, mantiq va fizika fanlari yutuqlari asosida ilmiy anglash manfaatlari birlashtirib turgan. Ayniqsa, Vitgenshteynning «Mantiqiy-falsafiy traktati»ga ko‘p etibor berilgan edi. Ikkinci jahon urushi mintaqadagi faylasuflarning mutlaq ko‘pchilagini AQShga emigratsiya qilinishiga majbur etdi. Bu yerda ular o‘z ishlarini g‘oyat samarali tarzda davom ettirdilar. Emigratsiya analitik falsafani anglosakson qadriyatiga aylanib ketishiga sababchi bo‘ldi. Endi mantiqiy pozitivizmning asosiy g‘oyalarini ko‘rib chiqamiz. Ular metafizikani falsafaning dastlabki prinsiplari to‘g‘risidagi ta’limot sifatida rad etdilar. Vena to‘garagining vakillari metafizikaning ahamiyatini inkor etadilar. Chunonchi, Karnap metafizikaning xizmatini tilni mantiqiy tahlil qilish natijasida fanlar bajara oladilar deb hisoblagan. Bir tomondan, mantiqiy pozitivistlar Vitgenshteyn tomonidan olg‘a surilgan falsafiy gaplarni ma’nosiz gaplar sifatida tushunish lozim degan fikriga tayansalar, boshqa tomondan - ular XIX asr pozitivizm an‘analarini, eng avvalo fransuz olimi O.Kont va avstriya olimi E.Maxlarning an‘anasini davom ettiradilar. Pozitivizm o‘zini ijobjiy ta’limot, ya’ni fan sifatida tan olinishini talab qiladi. Voqelikning har bir sohasi muayyan bir fan orqali

o‘rganiladi. o‘z kuchini ishga solish uchun metafizika maydonning o‘zi qolmaydi. Gaplarni analitik va sintetik gaplarga bo‘lish fanni neopozitiv tarzda tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Analitik gap-bu shunday gapki, uning haqqoniyligi uning o‘z mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanadi, sintetik gapda esa biz uni ko‘rmaymiz. Analitik gaplarga misollar keltiramiz: «Kvadratning barcha burchaklari to‘g‘ri burchaklidir», «To‘g‘ri burchak qarshisida teng tomonlar ètadi, burchak va tomonlar mos keladi». Ta’rif bo‘yicha kvadratdagi barcha burchaklar to‘g‘ri burchak, jismlar esa allaqanday cho‘zilgan holatni eslatadi. Sintetik mazmundagi gapga misollar keltiramiz: «Stol ustida kitob ètibdi», «Talabalar kulishni yaxshi ko‘rishadi». Ta’rifga ko‘ra stol, unda kitob ètishi albatta shart bo‘lgan allaqanday bir narsa hisoblanmaydi. Sintetik gaplarning haqiqiyligi empirik yo‘llar bilan aniqlanadi. Neopozitivistlar fandagi barcha gaplar è analitik gaplar yohud sintetik gaplar bo‘ladi, deb hisoblaydilar. Analitik gaplar aprior - ya’ni azaldan ma’lum gaplar bo‘lib, ular mantiqan zarur bo‘ladi, sintetik gaplar esa - empirik gaplar bo‘lib, ular mantiqan olganda zarur bo‘lmaydi. Shunga muvofiq barcha fanlarni eksperimental (fizika, kimè, psixologiya, tarix, sotsiologiya) hamda noeksperimental (mantiq va matematika) fanlarga ajratish mumkin. Falsafaning gaplari analitik gaplar ham emas, va sintetik gaplar ham emas, ular ularning fikricha ma’nosizdir. Aytaylik, men quyidagi falsafiy bir gapni qarab chiqatgan bo‘lay: «Materiya birlamchi, ong ikkilamchidir». Materiya tushunchasidan ongni chiqarib tashlab bo‘lmaydi, shuning uchun bizning gapimiz analitik gap hisoblanmaydi. Ayni bir vaqtida men eksperimental tarzda materiya bilan ishlay olmayman, binobarin bizning gapimizni empirik tarzda tekshirib bo‘lmaydi, ya’ni u sintetik gap hisoblanadi. Shunday qilib, qarab chiqilaётган falsafiy gap ma’nosiz gap bo‘lib chiqadi. Neopozitivistlarning tanqidchilari, ayniqlasa, amerikalik faylasuf Kuayn, ularning analitik va sintetik gaplarni bir-biridan ajratilishini absolyutlashtirishda ayblaydi. Haqiqatda esa ularning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq ekanligini hisobga olish lozim. Buning ma’nosи shuki, eksperiment vaqtida umuman, nazariya, shu jumladan, analitik gaplarning haqqoniyligi tekshirib chiqiladi, ularni ham xuddi falsafiy gaplarni tekshirganday tekshirib chiqiladi: Agar falsafiy gaplar haqiqatdan ham foydali bo‘lsa, u holda ular haqiqiy, ya’ni haqiqatni ifodalagan gaplar hisoblanadi. Kuaynning tanqidini ko‘pchilik neopozitivistlar tan olib, uni qo‘llabquvvatlaydilar. Biroq faylasuf Karnap unga qarshi e’tiroz bildirib, ko‘p hollarda gaplarning analitik va sintetik gaplarga bo‘linishi saqlanib qoladi, deb tasdiqlaydi. Masalan, sun’iy tillarni konstruksiya qilish vaqtida faqat analitik gaplar bilan ishslash asosiy vazifa hisoblanadi.

Epistemologiya – lug‘aviy ma’nosи: grekcha “ilmiy bilim, fan”, “ishonchli bilim”. U falsafaning shunday sohasiki, unda bilim tabiatи va imkoniyatlari, chegarasi va ishonchlilik shartlari tahlil qilinadi. 1832 yildan ilmiy atama sifatida qo‘llanila boshlagan.

Klassik va noklassik epistemologiya farqlanadi.

Klassik epistemologiyaning o‘ziga xosliklari

- 1) tanqidiylik -krititsizm;
- 2) fundamentalizm va normativizm; 3) sub’ektni markazlashtirish; 4) fanni markazlashtirish.

## Nokklassik epistemologiya

- 1) post-krititsizm;
- 2) fundamentalizmni rad etish;
- 3) sub'ektni markazlashtirishni rad etish;
- 4) fanni markazlashtirishni rad etishda namoyon bo‘ladi.

Epistemologiyaning tushunchalari: bilim, bilish, ong, sezgi, aql, idrok, haqiqat. Asosiy savoli: Dunyoni bilish mumkinmi?

Epistemologiyaning asosiy muammolari:

- 1) haqiqat va ma’no;
- 2) metod muammosi;
- 3) bilish mohiyati;
- 4) bilim shakllari;
- 5) bilishning empirik va nazariy darajalari;
- 6) bilish tamoyillari;
- 7) ishonch (intuitsiya) va bilish;
- 8) tajriba strukturasi va shakllari; 9) ilmiy bilish xususiyatlari va me’yorlari; 10) tushunish va tushuntirish.

Evolusion epistemologiya – epistemologiyaning bilimni biologik evolusionyaning natijasi deb qarovchi bo‘limi. Evolusion epistemologiya bilimni o‘simlik va hayvonot dunyosidagi kabi oddiylikdan murakkablikka, noaniqlikdan aniqlikka qarab o’sib boruvchi kumulyativ jarayon natijasi sifatida baholaydi. Genetik epistemologiya – (yunoncha genetikos – tug‘ilishga, kelib chiqishga oid; episteme – bilim; logos – ta’limot) shveysar psihologi J.Piajening o‘tgan asr yigirmanchi va qirqinchi yillardagi psixologiya va mantiqiy tafakkur sohasini o‘rganishga oid izlanishlari natijasida 50-yillarning boshlarida ishlab chiqilgan. Ayrim manbalarda kognitiv psixologiya deb ham nomlanadi. Birinchi marta ushbu konsepsiya haqidagi to‘liq qarashlar olimning uch jildlik “Genetik epistemologiyaga kirish” asarida bayon etilgan.). Genetik epistemologiyaga ko‘ra, haqiqiy bilimga tarixiy-tanqidiy va genetik (psixologik) yondashuv orqali erishish mumkin: bilim bosqichma-bosqich rivojlanadi, bu jarayon individni real voqelikning aniq vaziyatlariga moslashishi bilan bog‘liq: vaziyatlarga faol moslasha olish individning tug‘ma ehtiyoji bo‘lib, bilimning boyib borishi voqelik va mavjud axborotlarning orasida ziddiyatning kamayishi bilan bog‘liq. Naturallashgan epistemologiya – empirik psixologiyaning tarkibiy qismi, ya’ni tabiiy fan qismi sifatida qaraladi. Asoschisi U.Kuayn.

## Nazorat savollari

1. Keng ma’noda analistik falsafani qanday ifodalash mumkin?
2. Analistik falsafada tarkibida qancha yo‘nalishning bor?
3. Analistik falsafasining boshlovchilari kimlar?

4. Analitik falsafa qanday bilim va yo‘nalish bilan bog‘liq?
5. Analitik falsafada qanday qarashlar tahrirga muxtojdir?
6. “Til o‘yinlar” tushunchasini mohiyatini tushuntiring.
7. Mantiqiy-lingvistik tahlil qaysi faylasuf ta’limotida ifodalangan?
8. Tomas Gobbs tomonidan mashhur belgilar tasnifining asosi nima?
9. Kimning asarlarida analitik falsafiy tafakkur tarzi to‘liq ochib berilgan?
10. Analitik falsafaning ilmiy ahamiyati nimada?

#### **IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI**

**(jami 10 soat)**

Amaliy mashg'ulotlar ijtimoiy fan yo'nalishi bo'lganligi sababli seminar tarzida o'tkaziladi hamda quyida beriladigan savollar va ularning javoblarini zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llagan holda bajarishni taqazo etadi.

##### **1-amaliy mashg'ulot**

Istiqlol Falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayondir. Ma'lumki, hayotdagi voqeа-hodisalarning barchasi ijtimoiy ongda aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davrlar o'zgarishi bilan unga xos ma'naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo bu o'z-o'zidan yuz bermaydi. Ayniqsa, inson tafakkurining o'zgarishi, dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo'lishi uzoqdavom etadigan murakkab jarayondir. Bu hol bizning kunlarimizda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Hozirgi kunda jamiyatimizda istiqlol g'oyalariga asoslanadigan yangi dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifa bo'lib turibdi. Zero, inson dunyoqarashini, uning asosiy tamoyillarini o'zgartirmasdan, yangi jamiyatni qurish qiyin. Bu jarayonning qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari Birinchi Prezident Islom Karimovning asarlarida asoslab berilgan edi.

Istiqlol talablari darajasida falsafiy tafakkurni yangilash vazifalarini bajarish g'oyat murakkab bo'lib, quyidagi qator muammolarni hal qilishni taqozo etmoqda:

- mustabid tuzum mafkurasining ijtimoiy, ma'naviy va falsafiy sohalardagi asoratlarini bartaraf etish;
- kishilar ongi va turmush tarzidan sobiq tuzumga xos g'ayriinsoniy tamoyillarni siqib chiqarish;
- O'zbekiston falsafasida jahon falsafiy tafakkuri yutuqlaridan yanada kengrok, foydalanish;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida nafaqat oddiy fuqaro, balki ziyoli va falsafa mutaxassislarining ongida hamon saqlanib kelayotgan loqaydlik va mutelik kabi kayfiyatlarga barham berish; — ma'naviy merosimizni qayta tiklash va ijodiy rivojlantirish jarayonida buyuk ajdodlarimiz falsafiy merosini yanada keng va chuqurroq o'rganish;
- falsafiy adabiyotlarni milliy manfaatlarimizga yanada ko'proq moslash, qo'llanma va darsliklarimizda milliy g'oya va istiqol mafkurasini tamoyillarini aks ettirish;
- istiklol talablariga mos keluvchi sog'lom g'oyali ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash zaruratiga mos tadqiqotlar olib borish, ular asosida ta'lim-tarbiyaning samarali usul va imkoniyatlarini izlab topish;
- jahon, Shark, xalqlari falsafiy merosini puxta va chuqur o'rganish, bu jarayonda turli g'oya, mafkuralarning davlatlar hamda xalqlar taqdiriga ta'sirini aniq ko'rsatish va shu asosda istiqlol mafkurasining tamoyillarini kishilar ongiga singdirish. Ana shu masalalarni uyg'un holda hal qilish falsafiy dunyoqarashimizni yangilashga yordam beradi. Istiqlolga erishganimizdan buyon tarixan M ustakillik — qisqa davr o'tgan bo'lsa-da, mustaqil taraqf alsaf a qiyot mamlakatdagi ulkan imkoniyatlarni yangilanishining asosi ro'yobga chiqarishning

yagona va muhim omili ekani o‘zining to‘liq isbotini topdi. Zero, faqat mustaqillikkina har bir xalqqa o‘z falsafasini erkin rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Bugungi kunda mustaqillikni mustahkamlash jarayoni mohiyatini va falsafiy asoslarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmokda. Bunda asosiy masala shundan iboratki, mustakdlik odamlar dunyoqarashining mazmun-mohiyati va asosiy yo‘nalishlariga yangicha nuqtai nazardan qarashni taqozo etadi. Ularni yangi mazmun bilan boyitishni, istiqlol talablari asosida o‘rganishni zaruratga aylantiradi. Shu sababdan ham, bugungi kunda ko‘p qirrali va murakkab hodisa bo‘lgan falsafiy dunyoqarashning milliy davlatchilik hamda kishilarning g‘oyaviy yetukligini ta’minalash ehtiyojiga xizmat qiladigan jihatlariga e’tibor kuchaymokda. Shu bilan birga, mustabidlik zamonidagi tafakkur qulligi, doimiy tazyiq, xalqning o‘z tarixiy ildizlaridan ajratib qo‘yilgani bilan bog‘liqholatlarning hozirgi dunyoqarashdagi o‘zgarishlar jarayonlariga ta’siriga ham e’tibor berish lozim. Ilm-fan sohasidagi tub o‘zgarish va yangilanishlar jarayoni to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin. Aynan mustakdlik dunyoqarashimizni mustabidlik sirtmoqlaridan xalos etdi. Aslini olganda, ushbu mavzuni o‘rganish ham istiuyul sharofatidir. Mustaqil taraqqiyot ma’naviy yangilanish borasidagi asosiy omil ekani har qanday mamlakat, jumladan, O‘zbekiston uchun ham tarixiy qonuniyatdir. Shu bilan birga, istiqlolning ma’nomohiyatini kishilarga to‘g‘ri anglatish, ularni mustaqillik bergen imkoniyatlarni amalga oshirishga jalb etish bilan bog‘liq nazariy va amaliy faoliyat ham nihoyatda muhim. Mustaqillik yillarda falsafaning yangilanishi uchun zarur asoslar shakllandi. M oddiy-iqgisodiy asoslar. Eski, sobiqittifoqdavridagi ik‘isodiyot yangi mazmundagi falsafani shakllantirish uchun asos bo‘la olmas edi. Istiqlol yillarda bu sohada nihoyatda katta o‘zgarish ro‘y berdi, mulkchilikning xilma-xil shakllari vujudga keldi. Iqtisodiy plyuralizm va bozor munosabatlari bunda bosh yo‘nalish qilib olingan bo‘lsa-da, aholini ijtimoiy himoyalash ustuvor jihat sifatida belgilandi. Ana shularning barchasi mamlakatimizda ma’naviy, jumladan falsafiy yangilanish borasida \am tub o‘zgarishlarning iqtisod bilan bog‘liq asoslarini yaratish imkonini berdi. I j tim oiy-siyosiy asoslar. Falsafaning siyosiy asoslari mustahkam bo‘lishi zarurligi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko‘p bor isbotlangan ijtimoiy haqiqatdir. Har qanday jamiyat va mamlakatda davlat xalqning turli qatlamlari, partiyalar, milliy-etnik birlıklarning ijtimoiy ongini o‘zgartira olmasa, o‘zining pirovard maqsadlarini amalga oshirishi qiyin. Bugungi kunda jahon hamjamiatining teng huquksi a’zosiga aylangan O‘zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim hamda tuzilmalar vujudga keldi. Ana shularning barchasi yangi mazmundagi falsafani shakllantirishning ijtimoiysiyyosiy asoslarini yaratish imkoniyatini ochdi. M a’naviy asoslar falsafaning yangilanishida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday falsafaning shakllanishi mamlakatda amalga oshayotgan ma’naviy sohadagi o‘zgarishlarning tarkibiy qismidir. Bu borada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xalq ma’naviyatining tozalanishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka yetkazish bilan bog‘liq sa’y - harakatlar katta ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, tarix falsafasi, xalqimizning xotirasi, o‘tmishdagi avlodlar yaratgan boy madaniy merosdan to‘la - to‘kis foydalanish imkoniyati yaratilganini alohida ta’kidlash lozim. Falsafiy tafakkur yangilanishining mamlakatimiz hayotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqligi quyidagi masalalarni falsafiy taxdil etishni zaruratga aylantiradi: — bugungi kunda ro‘y berayotgan dunyoqarashni yangilash jarayonining tarixiy ildizlarini

o'rganish va falsafiy tahlil etish; — sobiq ittifokdagi ijtimoiy tanazzul va uning xalqimiz tafakkuridagi oqibatlarini tugatish; — istiqlolning falsafiy tafakkurni o'zgartirish uchun yangi davrni boshlab bergani; — mamlakat mustaqilligini mustahkamlash jarayonida dunyoqarashning o'zgarishida qanday asosiy tamoyil va yo'naliшlар ko'zga tashlangani; — bugungi kunda falsafiy dunyoqarashning yangilanishiga ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Falsafiy ongning FalsaFiy ongning yangilanishi - serqirra jarayon. U juda keng ijtimoiy mazmunga ega bo'lish xususiyatlari bo'lib, jamiyat ma'navii haeti, mafkurasi, madaniyati va ta'limi tizimidagi yan gilanish, odamlarning ruhiy poklanishi, sobiq ittifoqdan qolgan qaramlik kayfiyatidan xalos bo'lish jarayonining tarkibiy qismidir. Falsafiy dunyoqarash o'zgarishining muhim jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: Birinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi ijtimoiy jarayondir. Ya'ni u, avvalo, taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tayotgan mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlardagi uzlucksiz o'zgarishning tarkibiy qismidir. Falsafadagi yangilanish jawww.ziyouz.com kutubxonasi miyatdan, o'z davridan, ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlardan tashqarida sodir bo'ladigan hodisalar yig'indisi emas. Balki u o'zida ana shu ijtimoiy jarayonlarning barcha asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ikkinchidan, mustaqillikka erishgan va uni mustaqamlashga harakat qilayotgan mamlakatimiz uchun bu tarixiy zaruratdir. Ya'ni, u tasodifiy namoyon bo'ladigan o'tkinchi hodisa emas. Balki o'tish davrining zaruriyati, jamiyatni tubdan isloh qilish, odamlarda yangicha tafakkurni shakllantirishdagi asosiy yo'naliшlardan biridir. Uchinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. Shy ma'noda, u buyuk alloma bobomiz Abu Nasr Forobiy orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantiradigan va takomillashtiradigan jarayondir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, u g'oyat murakkab ruhiy o'zgarishlar, odamlarning qullik psixologiyasi va mustabid tuzumga xos mafkuraviy asoratlardan xalos bo'lish jarayoni hamdir. To'rtinchidan, falsafiy ongning yangilanishi muayyan bir davrda amalga oshadi. Bu jarayon bizning mamlakatda o'tish davriga to'g'ri kelmokda. Ana shu davrda ijtimoiy muhitda yangi jihatlar vujudga keladi, odamlarning ruhiyati, qarashlarida tub o'zgarishlar ro'y beradi. Besh inchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi inkor va vorislik jarayoni hamdir. Unda, bir tomonidan, o'zbek falsafasida azaldan mavjud bo'lgan, hatto sobiq mustabid tuzum \am yo'qota olmagan ko'p jihatlarning sakutnib qolishi kuzatiladi. Ikkinchidi томондан, yaqinida ustuvor bo'lgan ko'pgina sinfiy-partiyaviy tamoyillar o'tmishga aylanadi, inkor etiladi. Uchinchi tomonidan esa, falsafiy tafakkurda yangi yo'naliшlар o'z o'rnini topadi. Falsafa yangilanish xususiyatlari o'ziga xos namoyon bo'ladi. Dunyoqarashning yangilanishi keng qamrovli tushuncha sifatida xilmoxil xususiyat va yo'naliшlarga ega. Avvalo, uning har bir kishiga xos individual ong bilan uzviy aloqadorligi va unga tayanishini alohida ta'kidlash lozim. Bu jihatdan u insonning insoniylik bilan bog'liq xususiyatlarini takomillashtirishni anglatuvchi kuch va imkoniyatni belgilaydi. Sirasini aytganda, dunyoqarash ijtimoiy kuch darajasiga ko'tarilishi uchun muayyan faoliyat orqali amaliyatga aylanishi lozim. Chunki dunyoqarash hayot tajribalari tufayli e'tiqodga aylanadi va faoliyat mezoni bo'lishi mumkin. Bir tomonidan, odamzod uchun tug'ma, nasliy xususiyat bulgan dunyoqarash irlashtirish asosida avloddan avlodga o'tadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy muhit

ta'sirida rivojlanadi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishgan kishilar esa, bir-biridan ma'naviy mezonlarni o'rganadi, ularning ta'sirida o'sib-ulq'ayadi. Ammo, aynan ana shu jarayonda ular sub'ektiv omil sifatida taraqqiyotga ta'sir ko'rsatadilar, muayyan maqsadga qaratilgan faoliyatlar orqali bu borada biror natijaga erishadilar. Falsafiy tafakkur yangilanishini harakatlantiruvchi kuch nima, degan savolga javob izlar ekanmiz, shaxsning jamiyatdagi o'rni va faoliyatiga e'tibor bermaslik mumkin emas. Bu jarayonning umumiy hamda xususiy jihatlariga e'tibor qaratganda, uning alohida shaxs va jamiyat a'zosi, ya'ni oddiy fuqaro hayotidagi ana shunday xususiyatlarini hisobga olgan holda talqin qilgan ma'qul. Masalan, eng umumiy ma'noda, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi, asosan, jamiyatdagi mana shu sohada ro'y bergan o'zgarishlarni ifodalaydi hamda o'z xususiyati va ahamiyati kengligi bilan ajralib turadi. Bunda ham bir qancha jihatlarga e'tiborni qaratishga to'g'ri keladi. M ustaqillik odimlari va falsafaning yangilanish i uzviy boglik jarayondir. Mamlakatning rivojlanish sur'ati yangicha, mustakil fikrlaydigan, ijtimoiy faol, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk mutaxassislarga bo'lган talabni alohida bosqichga olib chiqdi. Mulk shaklining xilma-xilligi, xuquqiy madaniyatni yuksaltirishga ehtiyoj, bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning kuchayishi. ishlab chiqarishga yangidan-yangi texnologiyalarning kirib kelishi jarayoni yuqori darajada tarbiyalangan va yuksak malakaga ega bo'lган mutaxassisni taqozo etayapti. Zero, yuksak malaka ayni paytda aqliy-ruhiy va jismoniy salohiyatlar uyg'unlashgan taqdirdagina ko'ngildagidek samara beradi. Mustaqil davlatning oliy maqsadlarini amalga oshira oladigan mutaxassislarni shakllantirish uchun ularning shaxsiyati ijtimoiy talablarga javob bera oladigan tarzda kamolga yetgan bo'lishi lozim. To'g'ri, inson jamiyatdagi o'z o'rni, Olloh ravo ko'rgan takdiri haqida o'ylashi, o'z Vatanini sevishi, o'z millati sha'nini ulug'lash uchun yelib-yugurishi mumkin. Biroq ular aniq natija beradigan faoliyatga aylansagina ijtimoiy mazmun kasb etadi. Muayyan kishi jamiyatdagi o'z o'rni haqida o'ylasa-yu, jamiyat oldidagi burchini anglab yetmasa, amalda burchiga sodiq ekanini namoyon etmasa yoki Vatanni sevish bilan cheklanib, uning ravnaqi uchun kurashmasa, millatiga munosib bo'lish haqida o'ylasa, yelib yugursa-yu, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining amaldagi isbotini namoyon eta olmasa, bundan na jamiyat, na Vatan, na millat naf topadi. Bunday kishining shaxsiyatida ijtimoiy burch, vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari zaif hamda faoliyatsiz bo'lib qolaveradi. Bunday shaxslar mustaqillik talablariga hozirjavoblik bilan maydonga chiqqolmaydi. Ma'naviy-axloqiy, ruhiy-jismoniy yetuk va faol shaxsgina jamiyat taraqqiyoti mazmunini, davlatning istiqbol yo'lini, shaxs — jamiyat — davlat manfaatlarining uyg'unligini to'g'ri tushunadi, shu yo'lda qormay-tolmay mehnat qiladi. Albatta, ma'naviy-axloqiy, ruhiy-jismoniy sog'lom va yetuk kishilarni voyaga yetkazish oson emas. Buning uchun yillar mobaynida ter to'kishga to'g'ri keladi. Bunda, avvalo, odamlar tafakkurini yangilash, ularda istiqlol dunyoqarashini shakllantirish zarur. Binobarin, davr taqozo etayotgan keng kamrovli bilimga ega bo'lish milliy va umuminsoniy madaniyatlardan, boy tarixdan, bugungi kundagi ulug'vor bunyodkorlik ishlaridan bahramandlik ularning qalbida Vatanga sadoqat va iftixor tuyg'ulari kamol topishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy fan sohasidagi islohotlarning tezkor amalga oshirilishini talab etishi shubhasiz. Tafakkuri istiqlol talablari darajasida yangilangan inson kim? U qanday ezgu va oljanob xususiyatlar bilan ajralib turadi? Istiqlol talablariga javob bera oladigan barkamol avlod qachon shakllanadi? Bu savollar —

oddiy savollar emas. Ularning to‘g‘ri yechimini topish uchun bir necha yillar davomida yangi avlodni shakllantirish lozim bo‘ladi. Lekin hozirgi davrdagi tub o‘zgarishlar jarayonining tahlili asosida ham bu jarayonning ba’zi xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Mamlakatimiz bozor munosabatlari sari qadam qo‘yyayotgan bugungi kunda ijtimoiyiqtisodiy hayot tarzimizda yuz berayotgan salmoqli o‘zgarishlar, shubhasizki, malakali, yetuk ma’naviyatli, fidoyi mutaxassis kadrlarni tayyorlashni talab etmoqda. Taraqqiyotimiz taqdirini ana shunday kadrlar hal etadi. Falsafaning yangilanishi va g‘oyaviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq. Mafkura jamiyatdagi ma’naviy muhit qanday ekanini kursatib turadigan eng asosiy mezonlardan biri bo‘lsa, falsafa uni shakllantiradigan omillar sirasiga kiradi. Ammo eski qoliplarga o‘ralgan falsafiy dunyoqarash asosida yangi zamonning mafkuraviy talablariga javob berib bo‘ladimi? Yo‘q, albatta. Har qanday mafkura jamiyatsiz paydo bo‘lmaganidek, ijtimoiy-siyosiy hayotni ham g‘oyasiz, mafkurasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Mafkura o‘z mohiyati, maqsadi, harakat yo‘nalishlari bilan jamiyat g‘oyaligiga xizmat qiladi. U — jamiyat hayotining tarkibiy qismi, binobarin, uning bag‘rida shakllanadi, madaniy meros va qadriyatlar zaminida faoliyat ko‘rsatadi. Aslida tarixda mafkuradan mutlaqo xoli davrlar kam bo‘lgan. Shunday davrlar bo‘lgan taqdirda ham, ulardan so‘ng albatta har safar mamlakatning o‘ziga xos va o‘ziga mos mafkuraviy muhitini qayta tiklash hamda yangilash jarayoni boshlangan. Vatanimizda kechayotgan bugungi mafkuraviy yangilanishni sohibqiron Amir Temur davrida mo‘g‘ullar imperiyasi istilosiga barham berib, mustaqillik uchun, milliy davlatchilik asoslarini qayta tiklash uchun kurash yillariga qiyoslash mumkin. Mamlakatimizda milliy istiqlol g‘oyasini aholi ongi va qalbiga singdirish borasida ishlar amalga oshirilmokda. Bugun sobiq mustabid tuzum mafkurasi butunlay o‘tmishga aylandi. Diyormizda milliy davlatchilik an’analari qayta tiklandi, ma’naviyat, madaniyat va ma’rifat yanada yuksaklikka ko‘tarilmoqda. “Ana shu jarayonning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?” “U hayotimizni qaysi tomonga eltadi?”, “Biz bu jarayonda qanday ishtirok etishimiz lozim?” degan savollarga javob topish zarurati ijtimoiy tafakkurni tubdan o‘zgartirishii talab qiladi. Mustaqillik milliy manfaatlarimizga mos mafkurani shakllantirishni kun tartibiga qo‘ygan edi.

### **Berilgan matndan quyidagi savollarga javob bering.**

1. Qanday muammolar falsafiy muammolar deb ataladi?
2. Falsafa nimani o‘rgatadi?
3. Falsafa va fanning o‘zaro nisbati qanday?
4. Dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllarini ta’riflang.
5. Falsafa tarixini o‘rganish qanday maqsadni ko‘zlaydi?
6. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi me’yor hisoblanadi?
7. Ayrim insonning yaxlit falsafiy dunyoqarashi falsafiy plyuralizm asosida qanday shakllanadi?
8. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta’rif berish qanday amalga oshirilgan?
9. Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda? 10. Mustaqillik davridagi “Falsafaning siymosi”?

## **Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

1. Tinglovchi berilgan har bir savol bo‘yicha o‘z fikrini bayon qiladi;
2. Qo‘yilgan savolni qanday qilib qulay o‘qitish metodlari haqida taklif beradi;
3. Berilgan taklif bo‘yicha bir nechta misollar ko‘rsatadi;
4. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta’lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

## **2-amaliy mashg‘ulot.**

**Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati**, unda dunyoni bilish, sezish, ko‘rish va tushunishning butunlay yangi sohasi – falsafa vujudga kelishida namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat falsafa – bu nafaqat u yoki bu odam dunyoqarashining shakli, balki ijtimoiy ong shakli, odamlar borlig‘i va bilishining umumiyligi tamoyillari, ularning dunyoga munosabati aks etuvchi, tabiat, jamiyat va tafakkurning eng umumiyligi qonunlari kashf etiluvchi va ta’riflanuvchi ma’naviy faoliyatdir. Ya’ni bu dunyoga va insonning undagi o‘rniga nisbatan qarashlarning umumiyligi tizimidir.

Bunday qarashlar zamirini savollar va insonning ularga javob topish istagi yotuvchi oqilona yo‘l bilan olingan bilimlar majmuini tashkil etadi. Ammo bilish shunday bir tabiatga egaki, bir savolga javob ko‘pincha boshqa bir talay savollarni yuzaga keltiradi va ba’zan muammoga nafaqat oydinlik kiritmaydi, balki uni yanada chigallashtirib, insonning qiziquvchanligini oshiradi va yangi tadqiqotlarga da’vat etadi. Xullas, bu yerda ijod, tinimsiz izlanish, yangilikka intilish to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Agar mifologiya va dinda javobga urg‘u berilsa, bilishning butun mazmuni unda mujassamlashsa, falsafada savol, masala birinchi o‘rinda turadi.** U to‘g‘ri va yaxshi ta’riflangan bo‘lsa, muammoning mohiyati aniq aks etadi. Savol, masala insonni ijodga rag‘batlantiradi, toki unga qoniqarli javob olinib, haqiqatning tagiga yetilganiga ishonch paydo bo‘lmagunicha insonni izlanishga da’vat etadi. Bunda savolning o‘zi, muammoning qo‘yilishi javobdan kam ahamiyat kasb etmaydi, ba’zan undan ham muhimroq deb qaraladi.

Shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, falsafa, garchi muayyan natijalarga, mukammal ta’riflarga, uzil-kesil xulosalarga intilsa-da, lekin shuning o‘zi bilan kifoyalanmaydi. Falsafani avvalo inson madaniyati sohasida yuz berayotgan, turli qarama-qarshiliklar va o‘zaro ta’sirlar bilan uzviy bog‘liq va ayni vaqtida o‘zga sohalarga o‘tish va ularda gavdalinish qobiliyatiga ega bo‘lgan ma’naviy jarayon sifatida tushunish lozim.

Bundan xulosa shuki, falsafiy mushohada yuritish savol berish, shubha qilish, javoblar izlash va kuni kecha yechilgan deb hisoblangan, shak-shubhasiz bo‘lib tuyulgan masalalarga qaytish demakdir. Falsafa uchun «boqiy», uzil-kesil aniqlangan haqiqatlar, «noqulay», «ilmoqli» savollar yoki man etilgan mavzular mavjud emas. Falsafa savollar berish, narsalar va hodisalar mohiyatini anglashga urinish orqali bilish doirasini kengaytirishga harakat qiladi.

Xullas, falsafa haqiqat qanday bo‘lsa, uni shunday ifodalab ko‘rsatishdir, din esa – uning ramziy, timsoliy aks etishi. Falsafa asos va mohiyat bo‘lsa, din timsol va shakl. Dialektik

munozara usuli jamiyatning kam sonli ayonlari uchun kerak. Vahiy yo‘lidagi ifoda – xalq ommasining idroki, tarbiya va ta’limi uchun kerak

**Falsafaning predmeti.** Endi «Falsafa nimani o‘rganadi?», degan savolni berishimiz mumkin. Insonda bilishga qiziqish uyg‘otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o‘ziga ma’lum bilimlar va tajribaga, muayyan e’tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug‘diradigan har qanday ob’ektiv va sub’ektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi. . Boshqacha aytganda, inson o‘z qiziqishi ob’ekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma narsa falsafaning predmetidir. Shu munosabat bilan u yoki bu odamning falsafiy qarashlari haqida va hatto uning falsafasi to‘g‘risida so‘z yuritish mutlaqo o‘rinli bo‘ladi va bunga biz kundalik hayotda tez-tez duch kelamiz.

Biroq ayni holda bizni fan sifatidagi, ayrim insonning emas, balki butun jamiyatning rivojlanish mahsuliga aylangan ijtimoiy hodisa sifatidagi falsafa qiziqtiradi va ayni shu sababli yuqorida keltirilgan ta’rifda «inson» tushunchasi yig‘ma ma’noda qo‘llanilgan. Bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, garchi falsafaning predmetiga biz umumiyluqtai nazardan ancha keng ta’rif bergen bo‘lsak-da, ayrim tarixiy davrlarda odatda u yoki bu sabablarga ko‘ra muayyan masalalar doirasi falsafiy tadqiqotlarda birinchi o‘ringa chiqadi.

Masalan, qadimgi Yunonistonda kosmotsentrizm ilk falsafiy ta’limotlarning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, bunda asosiy e’tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab yetishga qaratilgan. Keyinchalik, qadimgi yunon shahar-polislari ravnaq topgan davrda faylasuflar diqqat markazidan ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari o‘rin oldi. Yevropada xristianlikning, Sharqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o‘rtasrlar falsafasi teotsentrik (yunon. theos – markazdan o‘rin olgan xudo) xususiyat kasb etdi, ya’ni Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi. Uyg‘onish davrida falsafa san’at (estetika)ga va ko‘p jihatdan insonga murojaat qilindi.. Yangi davr deb nomlanuvchi XVII-XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan bilan uzviy bog‘landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan bilish va ilmiy metodlar masalalari o‘rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergen «klassik falsafa» va oqilonalik inqirozi irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmetiga aylandi, bu esa, o‘z navbatida, matnlar mantig‘i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga alohida qiziqish uyg‘onishiga olib keldi. XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va yangi axborot texnologiyalarining, shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni kun tartibiga qo‘ygan postnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha ma’nolar va g‘oyalar «aytib bo‘linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o‘ziga yog‘ilayotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga e’tiborni qaratar ekan, notizimlilik, Yevropa an’anaviy falsafiy bilimining negizlari, qadriyatları va chegaralarini o‘zgartirish g‘oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX-XXI asr chegarasida eng yangi falsafada birinchi o‘ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o‘rin olgan yana bir mavzu globallashuv jarayonlarining mohiyatini

va ularning rivojlanish yo‘nalishini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy yechimini topish bu muammolarni shu jumladan falsafiy darajada anglab yetishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida e’tibor berish va kelishilgan harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo‘yish muammolarini kiritish mumkin.

Ko‘rib turganimizdek, falsafaning predmetini qandaydir bitta, qat’iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog‘lash mumkin emas. U vaqt omiliga va ob’ektiv sabablar to‘plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o‘ringa chiqadi. Ammo bu boshqa mavzular, masalalar va muammolar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi va falsafa chegarasidan chetga chiqadi, uning tahlil predmeti bo‘lmay qoladi, degan ma’noni anglatmaydi. Bosh mavzularni ikkinchi, uchinchi yoki undan ham keyingi o‘ringa surib qo‘yadi, ular muayyan davrda va tegishli sharoitda falsafiy diqqat markazidan o‘rin olish yoki falsafiy muammolarning ustuvorliklar yunalishi bo‘ylab yuqoriga ko‘tarilish uchun o‘z vaqtini «kutib», go‘yoki panada turadi, desak, to‘g‘iroq bo‘ladi. Ayni shu sababli biz falsafa tarixida qiziqishlardagi ustuvorliklarning muttasil o‘zgarishini, u yoki bu masala bosh masalaga aylanishi, falsafiy hamjamiyatning asosiy e’tibori ma’lum vaqt mobaynida unga qaratilishini ko‘ramiz.

**Falsafiy bilimning tuzilishi.** Falsafa o‘z shakllanishi va rivojlanishining qadimgi davridayoq, tabiat, inson, jamiyat va ma’naviyatni, shuningdek sababiy bog‘lanishlar, qonunlar va shu kabilarni bilish sohasida yuksak natijalarga erishdi va oqilonalik nuqtai nazaridan odamlarning dunyo haqidagi umumiylashtirishiga aylandi. Ammo olamning cheksiz darajada rang-barangligi va serqirraligi tufayli o‘sha davrdayoq parchalanmagan falsafiy bilimlar va tasavvurlardan ayrim bo‘limlar ajralib chiqsa boshladi, vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, ancha aniq shakl-shamoyil kasb etdi va yangi bilimlar bilan to‘ldirildi. Pirovard natijada ular falsafiy bilimning tuzilishini (strukturasini) tashkil etdi.

Quyidagilar falsafiy bilimning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi:

- ontologiya – mavjudlik, borliq haqidagi bilim;
- gnoseologiya (boshqa bir terminologiyaga ko‘ra – epistemologiya) – bilish nazariyasi;
- ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi ta’limot;
- etika – axloq haqidagi ta’limot;
- aksiologiya - qadriyatlar haqidagi ta’limot;
- falsafiy antropologiya – inson haqidagi ta’limot va boshqalar.

Falsafiy muammolar mohiyatini tushunib yetish, ularning eng muhimlarini aniqlash va nihoyat, falsafiy bilimlar bilan oshno bo‘lish – ko‘rsatilgan bo‘limlarni sinchiklab o‘rganish, bunda ularga yaxlit bir butunning tarkibiy qismlari sifatida yondashish demakdir. Pirovardida biz falsafaning o‘ziga xos tili, o‘z yondashuvlari va metodlari, nihoyat, tabiat, jamiyat va tafakkurga oid eng muhim aloqalar, xossalari va qonunlarni o‘zida aks ettiruvchi umumiylashtirishiga – kategoriyalar tizimi vujudga kelganining guvohi bo‘lamiz. Bunda falsafadagi har bir bo‘lim yoki yo‘nalish ham o‘z tushunchalar apparatiga, ya’ni bilimning faqat shu

sohasiga xos bo‘lgan va uning asosiy mohiyatini yoritib beradigan kategoriylar tizimiga egadir.

Falsafada ko‘rib chiqilgan mavzular bilan bir qatorda shunday bilim sohalari ham mavjudki, ular qolgan barcha bilim sohalariga kirib boradi, ular bilan uyg‘unlashadi va ularni to‘ldiradi. Masalan, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkurida yuz beruvchi harakat, rivojlanish va o‘zgarishlar haqidagi falsafiy ta’limot – dialektika ana shunday bilim sohalaridan biri hisoblanadi.

Ob’ektiv sabablarga ko‘ra falsafiy bilimning ayrim sohalari sezilarli darajada rivojlandi va vaqt o‘tishi bilan mustaqil falsafiy fanlarga aylandi. Bunday bilim sohalari qatoriga, masalan, insonning bilishni amalga oshirish shakllari, qonunlari va usullarini o‘rganadigan fan - mantiqni; ma’naviyat va axloq haqidagi ta’limot – etikani; go‘zallik qonunlariga muvofiq ijodning mohiyati va shakllari haqidagi fan – estetikani kiritish mumkin.

Shu ma’noda falsafa tarixi fani alohida diqqatga sazovordir, zero u, mohiyat e’tibori bilan, nafaqat falsafiy, balki tarixiy fan hisoblanadi. Ayni vaqtda u falsafiy bilim tarkibiga ham kiradi, chunki falsafiy tafakkurning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini, falsafiy g‘oyalar evolyusiyasi va xususiyatini turli faylasuflar, yo‘nalishlar, oqimlarning ta’limotlarda qanday tasriflangani nuqtai nazaridan o‘rganadi. Falsafa tarixi fanida falsafiy ta’limotlarni tizimga solish va tasniflashga, matnlar, tarixiy sanalarni tahlil qilishga, daliliy material, biografik ma’lumotlar yig‘ishga alohida e’tibor beriladi. Shu munosabat bilan dunyoqarashni kengaytirish va teranlashtirishga, o‘z falsafiy yondashuvlarini yaratishga qaratilgan falsafani o‘rganish, uning tarixi, asosiy namoyandalari va eng muhim falsafiy asarlari bilan albatta tanishishni nazarda tutadi.

### **Berilgan matndan quyidagi savollarga javob bering.**

1. Falsafa tarixini o‘rganish qanday maqsadni ko‘zlaydi?
2. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi me’yor hisoblanadi?
3. Kimning asoschisi asarlarini analitik falsafaning manbai deb hisoblash mumkin?
4. “Mantiqiy atomizm” nazariyasi kimga tegishli?
5. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta’rif berish qanday amalga oshirilgan?
6. Mantiqiy-lingvistik tahlil qaysi faylasuf ta’limotida ifodalangan?
7. Tomas Gobbs tomonidan mashhur belgilar tasnifining asosi nima?
8. Kimning asarlarida analitik falsafiy tafakkur tarzi to‘liq ochib berilgan?
9. Antik falsafada borliq tushunchasi.

### **Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

5. Tinglovchi berilgan har bir savol bo‘yicha o‘z fikrini bayon qiladi;
6. Qo‘yilgan savolni qanday qilib qulay o‘qitish metodlari haqida taklif beradi;
7. Berilgan taklif bo‘yicha bir nechta misollar ko‘rsatadi;

## 8. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta’lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

### 3-amaliy mashg‘ulot

Falsafa fanining borliq haqidagi masalalarni o‘rganuvchi qismi *ontologiya* deb ataladi. Ontologiya so‘zi yunoncha *ontos* (mavjudlik) va *logos* (ta’limot) so‘zlarining birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, «mavjudlik haqidagi ta’limot», ya’ni borliq haqidagi fan ma’nosini ifodalaydi.

Bu atama fan tarixida birinchi bor 1513 yil *R.Gokleniusning* «Falsafa lug‘ati»da, so‘ngra, *X.Volf* (1679 -1754)ning falsafaga oid darsligida qo‘llanilgan bo‘lsada, ulardan ilgari qadimgi yunon faylasuflari ham ontologiyaning mazmunini ifodalovchi turli fikrlarni ilgari surishgan. Ular ontologiyani «haqiqiy borliqni nohaqiqiy borliqdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta’limotdir» deb hisoblashgan. *Eley maktabi* namoyondalari esa ontologiyani mangu, o‘zgarmas, yagona, sof borliq haqidagi ta’limot deb hisoblashgan. *Milet* va *Ioniya maktabi* vakillari esa dastlabki borliqning sifatiy talqini haqida bosh qotirishgan. Ulardan borliqning boshlanishida yotuvchi bunday asosni *Empedokl* «stixiya», *Demokrit* «atomlar», *Anaksimandri* «apeyron», *Anaksagor* «kurug‘» deb atagan. *Aflotun* esa g‘oyalar ontologiyasini yaratgan. G‘oyalar ontologiyasi aql bilan erishiladigan mohiyatlar ierarxiyasini tashkil etib, uning yuqori nuqtasida Farovonlik g‘oyasi, undan keyin beto‘xtov oquvchi xilma-xil hissiy dunyonи aks ettiruvchi ideal namunalar, sonlar, geometrik shakllar yotadi. *Arastu* fikricha umumiylilik ayrim holda yakka narsalardan chetda mavjud emas. Biz olamda ayrim narsalarga duch kelamiz va ulardagi bir-biriga o‘xshash jihatlarni umumlashtirib, abstrakt va ideal obraz hosil qilamiz. Shu tariqa Arastu empirizm ontologyasini yaratdi.

Markaziy Osiyo Yaqin va O‘rta sharqida IX-X asrlarda ijod qilgan *Al-Kindiy*, *Zakariyo Roziy*, *Forobiy*, *Ibn Sino* singari mutafakkirlar yunon faylasuflaridan farqli ravishda ontologik ta’limotni butunlay yangicha bosqichga ko‘tarishdi. Masalan, Forobiy ontologiyaga yagona borliqning mohiyatini ochib beruvchi ta’limot sifatida yondashgan.

*O‘rta asrlar g‘arb falsafasida* esa ontologiya teologiya bilan chambarchas bog‘lab tushuntiriladi. Bu davrda absolyut borliq xudo bilan, «sof» mohiyatlar ierarxiyasi bilan, «yaratilgan» borliq esa moddiy tabiat bilan aynanlashtirib talqin etilgan. *Sxolastik falsafada* ontologiya substansial va aksidensial, aktual va potensial, zaruriy va tasodifiy, ehtimoldagi va imkoniyatdagi borliq darajalarini ifodalovchi ta’limot sifatida qaralgan. Bu davrda borliq konsepsiyalari nominalizm, realizm va konseptualizm namoyondalarining universaliylarning ontologik mohiyatiga munosabati tarzida namoyon bo‘ladi.

Sharq falsafasida ontologiya ko‘proq ilohiy borliqning mohiyatini, xudoning mohiyatini aks ettiruvchi ta’limot tarzida, sharq panteistik falsafasida esa *vahdatu mavjud* va *vahdatu vujud* ko‘rinishidagi ta’limotlar shaklida vujudga kelgan.

Xullas, borliq haqidagi muammo falsafada tarixan markaziy o‘rin egallaydi. Falsafa o‘rganadigan qaysi bir masalani olmaylik, u borliq muammosi bilan bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Haqiqatdan ham, borliq, unga munosabat masalasi falsafiy qarashlarda muhim ahamiyatga egadir, chunki, borliq muammosi falsafadagi har qanday dunyoqarash gnoseologik va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi.

## 2.-Borliq kategoriyasi

Borliqning o‘zi nima? Bu savolga javob berish uchun borliqning inson va insonlar hayoti bilan bog‘liq ildizlariga nazar tashlashga to‘g‘ri keladi. Kishilar qadimdan o‘zlarini qurshab turgan tabiat va jamiyat, inson va insoniyat haqida o‘ylar ekan, atrofida sodir bo‘lib turgan narsalar va hodisalarini, o‘zgarishlarni kuzatishgan. Ba’zi narsalar hozir mavjud, keyinchalik esa yo‘qolib ketadi, kecha yo‘q bo‘lgan ba’zi narsalar esa bugun paydo bo‘ladi. Shular asosida kishilarda *mavjudlik* va yo‘qlik haqida tasavvurlar, qarashlar vujudga kelgan.

Kishilar o‘zlarining ham dunyoga kelishi (tug‘ilishi), yashashi va nihoyat vafot etishi (o‘lishi), «yo‘qlikka aylanishi» haqida o‘ylay boshlashadi. Shu asosda kishilarning «bu dunyo» va «u dunyo» (narigi dunyo), ya’ni odamning vafotidan so‘ng uning ruhi ko‘chib o‘tadigan «dunyolar» haqidagi tasavvurlari paydo bo‘lgan. Kishilar o‘zlarining kundalik tajribalari asosida atrofidagi dunyoning hozir mavjudligi, o‘zları tug‘ilmasdan ilgari ham mavjud bo‘lganligiga va keyinchalik ham mavjud bo‘lib qolishiga ishonishgan. Shu tarzda ularda «borliq» va «yo‘qlik» haqida tasavvurlar shakllangan.

Borliq turli konsepsiyalarda turlicha talqin etiladi. Ayrim tadqiqotchilar uni muayyan moddiy jism, moddiy borliq sifatida tushuntirishadi, boshqalar esa uni g‘oyaviy, ma’naviy, ruhiy, ilohiy mohiyat shaklida tushunishadi. Abu Nasr Forobi yagona borliqni 6 bosqichdan iborat deb hisoblagan: 1-ilk sabab (sababiavval) - xudo; 2-sabab - (sababi- soniy) - samoviy jismlar borlig‘i; 3-sabab - faol aql (al-aql al-faol); 4-sabab - jon (an-nafs); 5-sabab - shakl (as-surat); 6-sabab - modda (al-modda)<sup>12</sup>. Bu bosqichlar bir-biri bilan sababiy bog‘langan bo‘lib, ular barcha mavjudlikning boshlang‘ichi hisoblanadi.

Borliq tushunchasi atrofida faylasuflar har doim keskin munozaralar, tortishuvlar, bahslar olib borishgan va bu bahslar haligacha davom etmoqda. Xullas, «borliq» falsafadagi eng umumiy tushunchadir. Borliqqa aksil tushuncha sifatida «yo‘qlik» tushunchasini ishlatishadi. Yo‘qlik hech nimani, ya’ni nazarda tutilgan joyda hech nima mavjud emasligini anglatadi.

Borliq ilgari mavjud bo‘lgan, hozir mavjud va kelajakda mavjud bo‘ladigan *ob’ektiv hamda sub’ektiv reallikni* ham o‘ziga qamrab oladi. Ya’ni tabiat, inson, fikrlar, g‘oyalilar, jamiyat hammasi turli shakkarda mavjuddir. Ularning barchasi mavjud bo‘lganligi uchun ham yaxlit yagona borliqni tashkil etadi.

Ko‘pincha borliqni inson ongidan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmagan holda *mavjud bo‘lgan reallikni* ifodalovchi falsafiy kategoriya sifatida ta’riflashadi. Bunday ta’rifning kamchiligi shundaki, bu ta’rifda borliq ob’ektiv reallik tushunchasi bilan aynanlashib qolgan.

Aslida esa borliq kategoriyasi umumiylashgan abstraksiya bo‘lib mavjudlik belgisi bo‘yicha turli xil hodisalar, predmetlar va jarayonlarni o‘zida birlashtiradi. Tabiiy ob’ektlar, ularning xossalari, aloqadorliklari va munosabatlari, kishilar jamoasi va ayrim odamlar, ijtimoiy tashkilotlar, inson ongingin holati va boshqalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Borliq nafaqat predmetlarni, jismlarni, ob’ektiv reallikni, balki, ma’naviy hodisalarini, ruhiyatni, ong va tasavvurni, *sub’ektiv reallikni* ham o‘ziga qamrab oladi.

Borliqning asosiy sohalariga tabiat, jamiyat va ong kiradi. Bu sohalar uchun umumiy jihat - ularning mavjudligidadir. A.G.Spirkin shunday yozadi «Barcha mavjud narsalar borliqqa

<sup>12</sup> Очерки истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Т.:Фан, 1977. 63-64-б.

mansubdir. Ularga moddiy jismlar ham, barcha (fizik, ximik, geologik, biologik, ijtimoiy, psixologik, ma’naviy) jarayonlar ham, ularning xossalari, aloqalari va munosabatlari ham kiradi. U chyqur hayolotning mevasi bo‘lgan ertak va afsonalar, hatto bemorning xayolidagi alahsirashlar ham, borliqning qismi bo‘lgan ma’naviy reallik sifatida mavjuddir»<sup>13</sup>. Shunday qilib «ruh va materiya, hech bo‘lmaganda mavjudlik sifatida umumiylikka egadir» (*I.Disgen*). Shubhasiz, ular bir-birlaridan farq ham qilishadi. Agar moddiylik va ma’naviylikni bir-biriga taqqoslasak, moddiylik sub’ektdan mustaqil ravishda, ma’naviylik esa unga bog‘liq ravishda mavjud bo‘ladi. Shunday qilib, borliq mohiyat jihatidan *moddiy borliq* va *ma’naviy borliqqa* bo‘linadi.

Falsafaga oid bir darslikda haqli ravishda shunday deb yozilgan: «Borliq - bu tushunishni talab qiladigan va tushunish asosida yuzaga chiqadigan, shakllanadigan narsa. Borliq - bu predmetlarning ko‘rinishi yoki shakllaridan biri emas, predmetlar sinfining umumiyligi tushunchasi ham emas, borliq - bu mavjudlikning borlig‘idir. Borliq - bu borliqni anglashda nima kutilayotgan va tushunilayotgan bo‘lsa, o‘shanig o‘zidir»<sup>14</sup>. Bu ta’rifdan, borliqqa qaysi jihatdan yondashsak - u o‘sha xususiyatni o‘zida mujassamlashtiradi, nimaiki voqiy bo‘lsa, borliq ularning hammasini o‘ziga qamrab oladi, degan ma’no kelib chiqadi. Shu jihatdan tadqiqotchilar borliqni turli shakllarga bo‘lib o‘rganishadi.

Borliqni shakllarga ajratishda uning asosida, mohiyatida nimalar yotishiga e’tibor qaratish lozim. Shu tariqa falsafada *substansiya* kategoriyasi shakllangan. Substansiya (lotin. *substantia* - mohiyat, asosida yotuvchi nimadir) muayyan narsalar, voqealar, hodisalar va jarayonlar xilma-xilligining ichki birligida namoyon bo‘luvchi mohiyat.

Substansiya deyilganda falsafada dastlabki paytlarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va dunyodagi barcha narsa va hodisalarning asosida yotuvchi moddiy yoki ruhiy mohiyat anglangan. O‘rtalashtirish Sharq falsafasi namoyandalari al-Kindiy, Zakariyo Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlarida substansiya deb hamma narsaning moddiy yoki ma’naviy asosi, mohiyati tushunilgan. Substansiyaga qarama-qarshi tushuncha «*aksidensiya*» deb atalgan. Aksidensiya (lot. *accidentia* - o‘tkinchi, tasodifiy) narsa va hodisalarning o‘tkinchi sifatlarini ifodalaydi. Forobiyning yozishicha, «olamda substansiya va aksidensiya hamda ularni yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo‘qdir»<sup>15</sup>; «Aksidensiyaning sezgilar oqrali his etish mumkin, substansiyani esa faqat aql anglab yetadi»<sup>16</sup>; «Masalan, olma - substansiya bo‘lsa, uning qizilligi esa aksidensiyadir»<sup>17</sup>. Substansiyani talqin etishda falsafada ikki xil - *ontologik* va *gnoseologik* yo‘nalish bor. Ontologik yo‘nalish bo‘yicha F.Bekon substansiya borliqning eng tub asosida yotadi deb hisoblagan va substansiyani muayyan narsalarning shakli bilan aynanlashtirgan. R.Dekart borliqning asosida ikki xil mustaqil substansiya: moddiy va ma’naviy substansiya yotadi deydi. Moddiy substansiya borliqning ko‘lami bilan, ma’naviy substansiya esa tafakkur bilan belgilanadi. B.Spinoza esa

<sup>13</sup> Спиркин А.Г. Философия. М., 2000. 243-6.

<sup>14</sup> Философия. Учебник. М., 1996. 139-6.

<sup>15</sup> Форобий. Рисолалар. Т.:Фан, 1975. 50-6.

<sup>16</sup> Ўша асар. 50-б.

<sup>17</sup> Ўша асар. 54-6.

tafakkur va ko‘lam - ikki xil mustaqil substansiya emas, balki yagona substansiyaning ikki xil atributidir (atribut - ajralmas xususiyati degani).

G.Leybnisning fikricha, olamning asosida ko‘plab mustaqil substansiyalar (monadalar) yotadi.

### **Berilgan matndan quyidagi savollarga javob bering.**

1. Ontologiya nimani o‘rganadi?
2. Nima uchun «borliq» falsafaning asosiy kategoriyasi hisoblanadi?
3. Falsafa tarixida borliq muammosi qanday yechilgan?
4. Borliqning asosiy shakllari qaysilar?
5. Virtula borliqva gumanizm muaamosi?
6. Borliq muammosining falsafiy ma’nosi.
7. Antik falsafada borliq tushunchasi.
8. Forobiy borliqni qanday tushungan?
9. Ijtimoiy borliq va uning o‘ziga xos xususiyatlari. 10. Hozirgi davrda borliq muammosiga turli yondoshuvlar.

### **Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

9. Tinglovchi berilgan har bir savol bo‘yicha o‘z fikrini bayon qiladi;
- 10.Qo‘yilgan savolni qanday qilib qulay o‘qitish metodlari haqida taklif beradi;
- 11.Berilgan taklif bo‘yicha bir nechta misollar ko‘rsatadi;
- 12.Taklif qilinayotgan zamonaviy ta’lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

### **4-amaliy mashg‘ulot**

Analitik falsafa (Anglo-sakson falsafasi, Anglo-Amerika falsafasi) - XX asr falsafiy tafakkuridagi yo‘nalish bo‘lib, asosan ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda rivojlanadi va ko‘plab turli tushuncha va maktablarni birlashtiradi. Analitik falsafa uchun quyidagi fikrlar keng tarqalgan: lingvistik burilishfalsafiy muammolar til sohasida yotadi, shuning uchun ularning yechimi til ifodalarini tahlil qilish bilan bog‘liq; semantik diqqat-ma’no muammolariga qaratilgan; analitik usul-falsafiy aks ettirishning boshqa barcha turlariga tahlil qilish afzal.

Hozirgi zamon falsafasi bu XX asr va XXI asr boshlarida mavjud bo‘lgan falsafiy ta’limotlar va ularning xil-xil ko‘rinishlari bilan ifodalanadi XX asr Yevropa falsafasi o‘sha davrning iqtisodiy siyosiy, sotsial, mafkuraviy, ilmiytexnikaviy o‘zgarishlarining ta’siri ostida rivojlangan.

Falsafa tabiiy ravishda sotsial ehtiyojlar, manfaatlar, maqsadlar va davlat buyurtmalarnini qondirilishiga ko‘makdosh bo‘lgan, XX asr Yevropa falsafasi xilma-xil yo‘nalishlarga ega bo‘gan, ularni jamiyatni ma’naviy hayotiga ta’sir etishi ham ijobjiy, ham salbiy, ham reaksiyon, ham progressiv, antimistik va passimistik ruhda bo‘lgan, XX asr birinchi yarmida Yevropada sodir bo‘lgan jahon urushlari, ijtimoiy silkinishlar va boshqa siyosiy hodisalar insonlarni kelajakka bo‘lgan munosabatlarnini,, o‘zgartirib yubordi. Ma’lum

ma'noda Yevropa xalqlari ma'naviy tushkunlik xolatiga,,tushib qoldilar. Ba'zi falsafiy ta'limotlar insonlarni tushkunlik xolatidan chiqarishlarga harakat qildilar. Insonlarda kelajakka umid uchqunlarnini,,paydo qilishga urinishlar bo'ldi XX asr Yevropa falsafasi o'sha davrda xukumron mafkuraviy g'oyalarni ilmiy asosligiga va amalda tadbiq etilishiga xizmat qilgan. Yevropada xukumron bo'lgan fashizm mafkurasi,,, kommunistik mafkura va irqchilik g'oyalari,,bilan sug'orilgan,,ba'zi,,o'ta reaksiyon diniy,, mafkuralari falsafa xizmat qildi, uni apologetlariga aylandi.

XX asrda falsafiy fikr taraqqiyotining asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ldi.

Birinchidan., falsafiy fikr muayyan mafkuraga xizmat qilganligida. Falsafani o'ta ideologiyalashuvi va siyosiylashuviga olib kelganligida. Buning asosiy sababi ikki sistema sotsialistik lager bilan kapitalistik lager o'rtasidagi sovuq urush fikrimizni dalili bo'la oladi0, Ikkinchidan, falsafa ikki jahon urushi tufayli kelib chiqagan fandagi, texnikadagi va harbiy sanoatdagi jadal suratlardagi o'zgarishlarga hozir javob bo'lomaganligida. Ya'ni klassik falsafa eskirib qolgan. Dunyoni •ilmiy manzarasi orqali tushuntira olmadni,

Uchinchidan., XX asr Yevropa falsafiy fikrida klassik va noklassik falsafalar o'rtasida tafovut va kurash vujudga kelgan. Kurash falsafaning abadiy muammolariga bo'lgan munosabatdan uni eskicha va yangicha xal etish fikrlash uslubi hayotda bordi.

Klassik falsafa inson aqliga ishonch bildirgan holda munosabat bildirdi.

Noklassik falsafa bo'yicha shubxa,, bilan qaradi.

Natijada falsafada ratsionalizm va irratsionalizm yo'naliishlari kelib chiqdi.

To'rtinchidan, klassik falsafa turli g'oyaviy tizimlarga bo'linishiga qaramay muhim muammolarni hal etishda ma'lum bir umumiylilik mavjud. Xozirgi zamon falsafasida xilma-xil mustaqil oqimlar mavjud bo'lib, ular asosan tabiatshunoslik va gumanitar fanlarga integratsiyalashish tendensiyasi mavjud.

Beshinchidan, xozirgi zamon falsafiy ta'limotlarnini nisbatan ikki yo'naliishga bo'lish ulardan birinchisi steptizm, ya'ni fan yordamida insoniyatni barcha muammolarnini hal etish mumkin deb e'tirof etuvchi qarashlar.

Fan ijobiy hodisani Ssientizm g'oyalari tyuzivizm falsafasi, texnologik teorizm, fan metodologiyasi, kabi ta'limotlarda o'z aksini topgan. Ikkinchisi antiszeptizm aksincha fanni saloxiyatligini e'tirof etgan xolda unga pessimistik munosabat bildirgan. Bularga ekzistensiolizm., frankfurt maktabi., neotomizm, personalizm falsafalari daxldordir0, Umuman olganda XX asr falsafasida,, birbiriga muqobil bo'lgan yo'naliishlar ratsionolizm va irratsionolizm, idealizm va materializm o'rtasidagi kurash va muayyan falsafani yakka xokimlikka intilishi xarakterli belgisi bo'lib hisoblangan,,

Ekzistensializm (yashash falsafasi ma'nosida) xozirgi zamon filosofiyasining asosiy oqimlaridan biri xisoblanadi.

Ekzistensializm va fundamental ontologiya XX asrning 30-yillariga kelib hayot falsafasi asta-sekinlik bilan yo'qolib, o'z o'rmini ekzistensializmga bo'shatib beradi. Bu endi hayot falsafasiga qaraganda ancha kuchliroq falsafa bo'lib, unda dunyoda yashayotgan inson turmushining xilma - xil tomonlari bayon etiladi. Ekzistensialistlar hayot falsafasini

psixologizmlar bilan to‘lib - toshgan deb hisoblaydilar. Ekzistensiya so‘nggi lotin tilida so‘zma-so‘z olganda, «mavjudlik» degan ma’noni anglatadi. Mana shu mavjudlikning o‘zi esa ekzistensializmda sub’ekt bilan ob’ektning bevosita birikib, birlashib ketishi tarzida tushuniladi. Bunda sub’ektning boshqalar uchun ochiqligi, o‘zgalarning u uchun ochiqligi, ularning bir-biriga o‘tishi bu jarayonning bir butunligi mavjudlik mohiyatini tashkil etadi. Ekzistensializmning diniy variantida (Yaspers, Marsel) ushbu o‘zga narsa Xudodir, ozod shaxs mana shu xudoga tomon harakat qilib boraveradi. Ekzistensializmning ateistik variantida (Sartr, Kamyu) o‘zga ob’ekt hech narsa sifatida, talqin etiladi. Buning ma’nosi shuki, odam o‘z ozodligini amalga oshirib o‘zini-o‘zi to‘satdan yaratadi. Odam tubsiz oqibatlar silsilasiga duch keladi, endi u mazkur silsiladan o‘z yo‘lini tanlab olishi kerak bo‘ladi. Mana shu yo‘lni tanlab amalga oshirish jarayonida u o‘z erkinligini topadi. Ushbu tanlov uchun u eng avvalo o‘z-o‘zi oldida mas’uldir. Bu juda og‘ir mas’uliyat. U o‘zi o‘zligini yaratishi bilan, o‘zgalarni, bora-bora butun dunyoni kashf etadi. Inson o‘zining chinakam mavjudligi holatida u muttasil kelajak ro‘parasida, shu jumladan, o‘lim qarshisida, o‘z qilmishlari uchun javobgarlik vaziyatida turadi. Ekzistensiya xuddi qo‘rquv, ekzistensial dahshat, tashvishli kutish singari namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda bunda xuddi chegaradagi ekzistensial vaziyatga o‘xshagan holat sodir bo‘ladi. Bunday holatda, Kamyu fikri bilan aytganda, asosiy falsafiy masala - bu o‘z-o‘zini o‘ldirish masalasi hisoblanadi. Yashash qo‘rquinchli, zerikarli, ham bema’ni bo‘lgan bir sharoitda yashash kerakmi yoki yo‘qmi? Ekzistensializm – bu ontologiya, borliq, mavjudlik haqidagi ta’limot. Ekzistensialist uchun odamning dunyoda mavjudligi muhim hisoblanib, tabiatning mustaqil ravishda mavjudligi to‘g‘risidagi masala esa uni unchalik qiziqtirmaydi. Tabiat insonga azal-azaldan ato etilgan. Bunda dastlabki reallik yaxlit bo‘lib, u sub’ekt va ob’ektlarga bo‘linmaydi. Fan dunyoni ob’ekt va sub’ektga ajratadi. Shu sababli fan ularning borlig‘ini ifodalab berishga qodir emas. Bunga esa faqat ekzistensianing alohida akti - harakati orqali erishiladi. Ekzistensiya – bu shunchaki bir his-hayajon emas, balki olamda mavjudlik his-hayajonidir. Ekzistensiyada insonning ozod ekanligi yuqorida ta’kidlab o‘tilgan edi. Ozod erkin bo‘lish, bu o‘zing o‘zing bilan bo‘lishliging, begona kishilarning ta’siridan halos bo‘lishdir. **Berilgan matndan quyidagi savollarga javob bering.**

1. Analitik falsafaga qadar qaysi falsafa kuchli mavqega ega edi?
2. Analitik metodga izox bering.
3. Kimning asoschisi asarlarini analitik falsafaning manbai deb hisoblash mumkin?
4. “Mantiqiy atomizm” nazariyasi kimga tegishli?
5. B. Rassel iboralarning necha xilini ajaratadi?
6. "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta’rifini qanday tushunasiz?
7. Faktning asosiy xusuyaitin ayting?
8. G. Frege va B. Rassel g‘oyalari o‘rtasida ziddiyat nimada ko‘rinadi?
9. Lingvistik tahlil falsafasi nimadan iborat?
10. L. Vitgenshteyn ta’limotining o‘ziga xosligi nimada?

#### **Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

1. Tinglovchi berilgan har bir savol bo'yicha o'z fikrini bayon qiladi;
2. Qo'yilgan savolni qanday qilib qulay o'qitish metodlari haqida taklif beradi;
3. Berilgan taklif bo'yicha bir nechta misollar ko'rsatadi;
4. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta'lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

## 5-amaliy mashg'ulot

Falsafaning noklassik rivojlanish bosqichi o'z ichiga nafaqat uning ilmiylikka ko'ra yo'naltirilgan falsafani (masalan, haёт falsafasi va ekzistensializm) oladi. Fan erishgan g'oyat ulkan yutuqlar, ayniqsa, XX asr boshlarida matematika va fizikadagi muvaffaqiyatlar faylasuflar e'tiborini o'ziga tortdi. Nemis matematigi Gottlob Frege mantiq fani vositalari bilan matematikani takomillashtirishga intilgan juda ko'p tadqiqotchilardan biri edi. Frege ayniqsa har xil, ya'ni ziddiyatli sog'lom aqlga zid bo'lgan fikrlarga boy matematik isbot sohasini mukammallashtirish ustida ko'p ishlardi, lekin o'z èndashuvlarida bitta g'oyat muhim o'ziga xos xususiyat bo'lgan: uning intuitsiyasiga muvofiq, mantiq fanining o'zini yanada rivojlantirish zarur bo'lgan. U juda ko'p sonli kamchiliklari bo'lgan tabiiy tilning o'rniga uni munosib darajada almashtiradigan bir tilniformallashtirilgan tilni yaratish kerak, degan fikr bilan chiqqan. Fregening fikricha, o'sha vaqtdagi formal mantiq bilan tabiiy til bir xil kamchilikka ega bo'lgan-ya'ni ulardag'i barcha tuzilgan gaplar sub'ekt-predikat shakliga ega bo'lgan. Sub'ekt va predikatga ajratish faqat «Ergash uxlayapti» kabi eng sodda gaplargagina to'g'ri keladi. Bu yerda «Ergash»-sub'ekt, «uxlayapti» esapredikat. Lekin biroz murakkabroq bo'lgan, masalan, «Ergash Lola bilan o'ynayapti» degan gapni olib ko'radigan bo'lsak, uni sub'ekt va predikat qismlarga ajratish qiyinroq kechadi. Axir bu yerda Ergash ham, Lola ham bir xil darajaga ega bo'lib, ularning xar ikkalasini ham sub'ekt deb atash mumkin. Bunday holatdan chiqish yo'lini Frege argument bilan funksiyani birbiridan farq qila bilishda ko'rgan. «Ergash» va «Lola» - bular argument ifodalari, «bilan o'ynayapti» esa-funksiyani ifodalaydi. Mazkur misolda «bilan o'ynayapti» birinchi tartibdagi funksional ifoda hisoblanadi. Frege yana o'zgaruvchi ikkinchi tartibdagi funksional ifodani ham iste'molga kiritadi. Mantiqqa kiritishni talab qiluvchi «hamma», «hech kim», «ba'zi bir» singari so'zlardan iborat Frege ixtirolari mantiqni ancha o'zgartirib yuboradi. U faqat matematikaga va formallahgan tarzdagi turli tillargagina emas, balki tabiiy tillarga ham, binobarin, falsafaga ham kirib bordi. <> Angliyalik mantiqshunos, matematik, faylasuf Bertran Rassel yangi mantiq ilgarigiga qaraganda yakuniy falsafiy haqiqatlarga kelishda, reallikning asosiy elementlari tabiatini aniqlashda eng qulay dastak ekanligiga ishonch bilan qaragan. Bu bilan u idealistlar (Leybnis., Geigel) qarashlaridan ancha ilgarilab ketdi. Rassel bunda uchta g'oyaga amal qilgan. Birinchidan, sog'lom falsafaning o'zi mantiq hisoblanadi, chunki u rost èki èlg'on bo'lishi mumkin bo'lgan fikrni tushuntirishdan boshlanadi. Bu esa mantiqning vazifasidir. Ikkinchidan, biz eng ishonchli bilimga eng avvalo his-tuyg'ular orqali ega bo'lamiz. Reallikning eng kichik elementlari reduksiyalash sohta taassurotlardan saqlaydi. Uchinchidan, bunda fikr mazmunini uning dastlabki mohiyatidan keltirib

chiqariladi. Biror termin bilan ifodalab bo‘lmaydigan atamaning predmetligi Rassel uchun falsafa faniga, ya’ni kishining boshini aylantirib tashlaydigan eski metafizikaga mutlaqo o‘xshamaydigan fan bilan muvofiq keladi. Kembrijlik faylasuf Lyudvig Vitgenshteynning «Mantiqiy-falsafiy traktat» degan kitobi analitik falsafa rivojlanishi birinchi bosqichining kulminatsion nuqtasi bo‘ldi. Ushbu kitob 1921 yilda Germaniyada, 1922 yilda Angliyada, 1958 yilda Rossiyada bosilib chiqqan. Vitgenshteyn Rasselga qaraganda ko‘proq darajada qat’iyat bilan o‘z diqqate’tiborini tilga qaratdi. Fikr tilda ifodalanadi, demak, aynan mana shu til tafakkurning chegarasi hisoblanadi. Faqat barcha tabiiy fanlar orqali baèn etiladigan birgina olam-faktlar olami, voqealar olami mavjud. Gap – bu olam manzarasidir. U olam bilan bir hil mantiqiy shaklga ega. Basharti olam mantiqsiz bo‘lganda edi, uni gap shaklida tasavvur qilib bo‘lmas edi. Gapning ma’nosini faktlar ifoda etadi. Barcha gaplar elementar gaplarning umumlashmasi hisoblanadi. Bu gaplar modellar sifatida bevosita faktlarga muvofiqlashadi. Demak, «umuman aytish mumkin bo‘lgan gapni aniq qilib aytish ham mumkin». qolgan boshqa hamma narsalar to‘g‘risida, masalan, mistik narsalar to‘g‘risida, yaxshisi-indamaslik kerak. Shuning uchun indamaslik kerakki, mistik fikrlarni, xuddi etik fikrlar singari yaqqol - mantiqan aniq ifodalab bo‘lmaydi. Bunday aytilgan fikrlarning rost èki èlg‘onligini tekshirib ham bo‘lmaydi. Agar kimdir biror joyi og‘riètganini aytса, o‘sha kishining o‘zidan boshqa hech kim ushbu og‘riqning haqiqiyligini isbotlab bera olmaydi. Falsafa ilmiy ta’riflar, gaplardan iborat emas, chunki u fandan farqli o‘laroq faktlar bilan ishlamaydi. Binobarin, falsafiy gaplar rost ham emas va èlg‘on ham emas: ular ma’nosizdirlar. Falsafaning maqsadi fikrlarning falsafiy gaplar tuzishdan iborat emas, balki fikrlarning mantiqiy manosini tushuntirib berishdan iborat. Shuning uchun ham falsafa bu ta’limot emas, balki faoliyatdir. Shunday qilib, mantiqiy-lingvistik ahamiyatlilik analitik falsafaning birinchi bosqichi uchun xarakterli xususiyat, o‘ziga xos burilish nuqtasidir. Shuningdek u qat’iy mantiqiy lingvistik sinovga duch kelgan falsafa statusini qaytadan ko‘rib chiqadigan bosqichdir. Bunga ko‘ra eski falsafiy tizimlarning to‘g‘ri ekanligi shubha ostida qoladi. Falsafa è fan sifatida tushuniladi (Rassel), èki fanga kirish yo‘li, fikrlarni aniqlashtirish bo‘yicha olib boriladigan bir faoliyat deb qaraldi. (Vitgenshteynning dastlabki qarashlari.) Neopozitivizm Agar analitik yo‘nalish oèqqa turgan joy Rassel va Vitgenshteynlar ish olib borgan Angliya deb haqli ravishda hisoblash mumkin bo‘lsa, keyinchalik uning harakat markazi Vena va Berlinga ko‘chadi. «Faylasuflarning Venadagi to‘garagiga» M.Shlik, F.Frank, O.Neyrat, R.Karnap, K.Gegel kirganlar. Berlindagi «Ilmiy falsafa jamiyatini» G.Reyxenbach va K.Gempel singari birinchi darajali faylasuflar gullatishgan. Mana shu ikkala guruh vakillari o‘zaro kelishilgan falsafiy pozitsiyada turmagan bo‘lsalar - da, baribir ularning barchasini dunèni matematika, mantiq va fizika fanlari yutuqlari asosida ilmiy anglash manfaatlari birlashtirib turgan. Ayniqla, Vitgenshteynning «Mantiqiy-falsafiy traktati»ga ko‘p etibor berilgan edi. Ikkinchi jahon urushi mintaqadagi faylasuflarning mutlaq ko‘pchilagini AQShga emigratsiya qilinishiga majbur etdi. Bu yerda ular o‘z ishlarini g‘oyat samarali tarzda davom ettirdilar. Emigratsiya analitik falsafani anglosakson qadriyatiga aylanib ketishiga sababchi bo‘ldi. Endi mantiqiy pozitivizmning asosiy g‘oyalarini ko‘rib

chiqamiz. Ular metafizikani falsafaning dastlabki prinsiplari to‘g‘risidagi ta’limot sifatida rad etdilar. Vena to‘garagining vakillari metafizikaning ahamiyatini inkor etadilar. Chunonchi, Karnap metafizikaning xizmatini tilni mantiqiy tahlil qilish natijasida fanlar bajara oladilar deb hisoblagan. Bir tomondan, mantiqiy pozitivistlar Vitgenshteyn tomonidan olg‘a surilgan falsafiy gaplarni ma’nosiz gaplar sifatida tushunish lozim degan fikriga tayansalar, boshqa tomondan - ular XIX asr pozitivizm an’analarini, eng avvalo fransuz olimi O.Kont va avstriya olimi E.Maxlarning an’anasini davom ettiradilar. Pozitivizm o‘zini ijobiy ta’limot, ya’ni fan sifatida tan olinishini talab qiladi. Voqelikning har bir sohasi muayyan bir fan orqali o‘rganiladi. o‘z kuchini ishga solish uchun metafizika maydonning o‘zi qolmaydi. Gaplarni analistik va sintetik gaplarga bo‘lish fanni neopozitiv tarzda tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Analistik gap-bu shunday gapki, uning haqqoniyligi uning o‘z mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanadi, sintetik gapda esa biz uni ko‘rmaymiz. Analistik gaplarga misollar keltiramiz: «Kvadratning barcha burchaklari to‘g‘ri burchaklidir», «To‘g‘ri burchak qarshisida teng tomonlar ètadi, burchak va tomonlar mos keladi». Ta’rif bo‘yicha kvadratdagi barcha burchaklar to‘g‘ri burchak, jismlar esa allaqanday cho‘zilgan holatni eslatadi. Sintetik mazmundagi gapga misollar keltiramiz: «Stol ustida kitob ètibdi», «Talabalar kulishni yaxshi ko‘rishadi». Ta’rifga ko‘ra stol, unda kitob ètishi albatta shart bo‘lgan allaqanday bir narsa hisoblanmaydi. Sintetik gaplarning haqiqiyligi empirik yo‘llar bilan aniqlanadi. Neopozitivistlar fandagi barcha gaplar analistik gaplar yohud sintetik gaplar bo‘ladi, deb hisoblaydilar.

### **Berilgan matndan quyidagi savollarga javob bering.**

1. Keng ma’noda analistik falsafani qanday ifodalash mumkin?
2. Analistik falsafada tarkibida qancha yo‘nalishning bor?
3. Analistik falsafasining boshlovchilari kimlar?
4. Analistik falsafa qanday bilim va yo‘nalish bilan bog‘liq?
5. Analistik falsafada qanday qarashlar tahrirga muxtojdir?
6. “Til o‘yinlar” tushunchasini mohiyatini tushuntiring.
7. Mantiqiy-lingvistik tahlil qaysi faylasuf ta’limotida ifodalangan?
8. Tomas Gobbs tomonidan mashhur belgilar tasnifining asosi nima?
9. Kimning asarlarida analistik falsafiy tafakkur tarzi to‘liq ochib berilgan?
10. Analistik falsafaning ilmiy ahamiyati nimada?

### **Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

1. Tinglovchi berilgan har bir savol bo‘yicha o‘z fikrini bayon qiladi;
2. Qo‘yilgan savolni qanday qilib qulay o‘qitish metodlari haqida taklif beradi;
3. Berilgan taklif bo‘yicha bir nechta misollar ko‘rsatadi;
4. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta’lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

**mavzu bo'yicha topshiriqlar**

3 guruhga bo'lining va berilgan savollar bo'yicha fikringizni bildiring.

**1- guruh uchun:**

- A) Falsafa fani bo'yicha malaka talablari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari;
- B) Falsafaning boshqa fanlar bilan uzviylici va uzlucksizligi holati; V) "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta'rifini qanday tushunasiz?

**2- guruh uchun:**

- A) Falsafa fani bo'yicha malaka talablari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari;
- B) Falsafaning boshqa fanlar bilan uzviylici va uzlucksizligi holati; V) "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta'rifini qanday tushunasiz?

**3- guruh uchun:**

- A) Falsafa fani bo'yicha malaka talablari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari;
- B) Falsafaning boshqa fanlar bilan uzviylici va uzlucksizligi holati;
- V) "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta'rifini qanday tushunasiz?

## **V. GLOSSARIY**

Termin	O'zbekcha sharhi	Inglizcha sharhi
<b>Abstraksiya</b>	(lot. abstraktio – chalg'ish, chetlashish) – narsalar xossa va nisbatlarining boshqalari, mazkur tadqiqotda jiddiy bo'lmagan va ikkinchi darajali deb ko'rib chiqilayotganlaridan xayolan ajratib olish (farqlash) jarayoni. Abstraksiya (mavhumlash) natijasi mavhum ob'ektlarning hosil bo'lishidir.	(Lat. abstraktio - distraction, deviation) - the process of imaginary separation (differentiation) of others from the properties and proportions of things, which are not considered serious in this study and are considered secondary. The result of abstraction is the formation of abstract objects.
<b>Algoritm</b>	(Algoritmi so'zidan – O'rta Osiyolik olim al-Xorazmiy nominining lotinlashtirilgan shakli) – bir tipdagi yoki yalpi masala va muammolarni hal qilish mumkin bo'lganani ko'rsatma va qoidalarning uzil-kesil birligi (yig'indisi).	(From the word algorithm - a Latinized form of the name of the Central Asian scientist al-Khwarizmi) - a definite unit (sum) of instructions and rules that can solve a type or general problem and problem.

<b>Analogiya</b>	(yunon. analogia – o‘xhashlik, aynanlik, muvofiqlik) – namoyish etilmaydigan mulohaza, fikr, xulosa, unda ikkio b‘ektning ba’zi belgilariga ko‘ra boshqa belgilar bo‘yicha o‘xhashligi to‘g‘risida xulosa qilinib, o‘xhash(aynan)ligi asosida ularni bilishga erishiladi.	(Greek analogy - similarity, similarity, conformity) - a nondemonstrative consideration, opinion, conclusion, in which it is concluded that the two objects are similar in some respects to other features, and it is possible to know them on the basis of similarity (exact).
<b>Aniqlash (definitsiya)</b>	muloqot, bahs, munozara va tadqiqotda tushunmovchilikning oldini oladigan eng ishonchli usullardan biri.	one of the most reliable ways to prevent misunderstandings in communication, discussion, debate, and research.
<b>Aspekt</b>	tadqiqot ob’ekti (predmeti)ni o‘rganilayotganida ko‘rib chiqilayotgan nuqtai nazar, muayyan yondashuv.	the point of view considered when studying the object of research (subject), a specific approach.
<b>Aql</b>	(lot. rationalis, yun. nus, fronesis; arab. al-aql – asoslangan, maqsadga muvofiq) – inson uchun o‘ylash, fikrlash, anglash va xotirlash, xulosa chiqarish imkonini beradigan qobiliyat, noyob ma’naviy hodisa. Shuningdek, tafakkur	(Lat. rationalis, Greek. nus, fronesis; Arabic. al-intellect - based, purposeful) - a unique spiritual phenomenon, the ability for a person to think, reason, comprehend and remember, to draw conclusions. It is also the stage of thinking activity, the

	faoliyatining bosqichi, insonning narsalarning mohiyatiga yetishtiruvchi bilish qibiliyati.	ability of man to know the essence of things.
<b>Barqarorlik</b>	sharoitlar o‘zgarganida ham tajriba samaradorligini saqlab qolish, ancha uzoq vaqt mobaynida yuqori natijalarga erishib kelish.	maintaining experimental efficiency even when conditions change, achieving high results over a much longer period of time.
<b>Belgi</b>	boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.	another object, a material, emotionally perceptible object that represents a property or relationship and is used to convey, store, or process a particular message.
<b>Bilim</b>	bilishning natijasi, sub’ektivlashgan axborot.	the result of cognition, subjective information.
<b>Bilish</b>	voqelikning inson ongidagi aksi.	the reflection of reality in the human mind.

<b>Verifikatsiya</b>	(dan lat. Verus-haqiqat va facio yolgon) - ilmiy bayonotlarning haqiqatini yempirik tekshirish natijasida o‘rnatish jarayonini ifodalovchi uslubiy konsepsiya; mantiqiy pozitivizm uchun asosiy bo‘lgan verifikatsion yondashuvga ko‘ra, har bir ilmiy mazmunli bayonot sof tajribadan ma’lumotlarni yozib olgan protokol jumlalari to‘plamiga kamaytirilishi mumkin va taklif hisobining boshlang‘ich bayonotlari sifatida harakat qiladi.	(from lat. verus-truth and facio -false) - a methodological concept that represents the process of installation as a result of empirical verification of the truth of scientific statements; according to the verification approach, which is fundamental to logical positivism, each scientifically meaningful statement can be reduced to a set of protocol sentences that record data from pure experience and act as initial statements of the proposal account.
<b>Virtuallik</b>	(lotincha “virtus”) qadimgi rimliklar tili va ma’naviyati jabhasida bu so‘z ko‘p ma’no – mazmunda qo‘llanilgan. Xususan, quyidagi ma’nolarda: ezgulik, yaxshilik, jasorat, potensiallik, noreallik va boshqalar.	(Latin "virtus") In the language and spirituality of the ancient Romans, the word was used in many senses. In particular, in the following senses: kindness, goodness, courage, potentiality, unreality, and so on.
<b>Virtualistika</b>	postnoklassik ilmiy yo‘nalish bo‘lib, virtuallik reallik muammosini o‘rganadi.	is a postnaclassical scientific direction that studies the problem of virtual reality.
<b>Garmoniya</b>	bir butun narsa qismlarining o‘zaro muvofiqligi.	the compatibility of the parts of a whole thing.
<b>Gipotetik</b>	ehtimol tutilgan, faraz qilingan,	probably based on assumptions,

	taxmin (gipoteza)ga asoslangan.	hypotheses.
<b>Gipotetikdeduktiv uslub</b>	tabiiy bilimlar va umuman empirik fanlar natijalarini tizimlashtirishda keng tarqalgan, farazlardan oqibatlarni chiqarish (dedukiya qilish)ga asoslangan mulohaza yuritish usuli.	a common method of reasoning based on the deduction of consequences from hypotheses in the systematization of the results of natural sciences and empirical sciences in general.
<b>Globallashuv</b>	ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miyisosida shakllanish jarayoni.	the process of global formation of integrated structures in various spheres of social life.
<b>Globalistika</b>	globallashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab yetishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.	an interdisciplinary field of scientific and philosophical research aimed at understanding the nature of globalization and its consequences.

<b>Gnoseologiya</b>	(yunoncha gnosis – bilim, ilm va logos – ta’limot, fan) «bilish haqidagi ta’limot (fan)», «ong haqidagi ta’limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, shu jumladan falsafiy qomuslar va lug‘atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan.	(Greek gnosis - knowledge, science and logos - doctrine, science) "doctrine of knowledge (science)", "doctrine of consciousness (science)". In the philosophical literature, including philosophical encyclopedias and dictionaries, the term "epistemology" is translated as "theory of knowledge".
<b>Deduksiya</b>	tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo‘lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo‘l bilan keltirib chiqariladi. Umumiydan kelib chiqib xususiy hodisa to‘g‘risida xulosa chiqarish uslubi, bunda qator xususiy holatlardan barcha ana shunday holatlar yig‘indisi to‘g‘risida xulosa qilinadi. Bu yerda avvaliga obektning umumiy holati, so‘ng uning alohida elementlari tadqiq etiladi.	research or descriptive method, a method in which certain rules are gradually derived from general conclusions, axioms, rules, laws. A method of drawing conclusions about a particular event from the general, in which a conclusion is drawn about the sum of all such cases from a number of special cases. Here, first the general condition of the object, then its individual elements are studied.
<b>Dezintegratsiya</b>	butunning ayrim qismlarga parchalanishi	Disintegration is the disintegration of a whole into individual parts
<b>Deizm</b>	Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai	Deism is a philosophical view that believes that when God created the world, he would not participate in it and that its events would not interfere

	nazar.	with its natural course.
<b>Determinizm</b>	barcha voqealar va hodisalarining qonuniyligi va sababiy bog‘langanligi haqidagi falsafiy ta’limot.	a philosophical doctrine of the legitimacy and causal connection of all events and phenomena.
<b>Dialektika</b>	harakat, rivojlanish, o‘zgarish haqidagi falsafiy ta’limot.	philosophical doctrine of movement, development, change.
<b>Diskret</b>	uzlukli	intermittent
<b>“Ichki realizm”</b>	falsafiy realizmning X.Patnemning umumiy falsafiy pozitsiyasini ifodalovchi versiyasi bo‘lib, u metafizik realizm va relyativizmga ziddir.	is a version of philosophical realism that represents the general philosophical position of H. Patnem, which contradicts metaphysical realism and relativism.
<b>Ideal</b>	mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.	absolute perfection, the notion of such perfection.

<b>Ideallash</b>	real buyumlar xossalari ni o'zgartirish orqali ideal ob'ektlarni hosil qilishning aqliy (xayoliy) jarayoni. Masalan, shu tarzda ideal gaz, mutlaq qattiq jism, siqilmaydigan suyuqlik, moddiy nuqta, jamiyat, bozor kabi tushunchalar yuzaga keladi.	the mental (imaginary) process of creating ideal objects by changing the properties of real objects. For example, in this way concepts such as ideal gas, absolute solid, incompressible liquid, material point, society, market are formed.
<b>Idrok</b>	sezgilar vositasida olingan bilimning ongdagi aksi.	the reflection in the mind of the knowledge acquired through the senses.
<b>Izoh, tushuntirish</b>	fanning eng muhim funksiyasi, predmetlar, hodisalar va voqealarga oid faktlarni muayyan umumiy xulosalar (qonunlar, nazariyalar, prinsiplar) ostida jamlashdan iborat.	the most important function of science is to summarize the facts about objects, events, and happenings under certain general conclusions (laws, theories, principles).
<b>Interpretatsiya</b>	(ot. lat. interpretatio – izohlash, tushuntirish) – hodisa, matn, belgili tuzilma, rasm, grafik ma’nosini ochib berish uslubi, bu ularni anglashga ko‘maklashadi.	(at. lat. interpretatio - interpretation, explanation) - a method of revealing the meaning of an event, text, symbolic structure, picture, graphic, which helps to understand them.
<b>Intuitsiya –</b>	(lot. intuitio – ko‘z uzmay tikilish, tomosha qilish(sozersanie) – keng mantiqiy mulohazaga murojaat qilmay turib bevosita haqiqatni aniqlash, bilish imkoniyati. Psihologik jihatdan ichki ko‘rish	int. . It is based on previous, accumulated facts, knowledge, that is, the basis for explaining a novelty is a method of predicting an event based on previous knowledge.

	(ozarenie) kabi tavsiflanadi.	
<b>Ilmiy bilish metodologiyasi</b>	ilmiy-tadqiqot faoliyatining tamoyillari, shakllari va uslublari to‘g‘risidagi ta’limot.	doctrine of the principles, forms and methods of research activity.
<b>Ilmiy nazariya</b>	mavhum tushuncha va mulohazalar tizimi bo‘lib, voqelikng bevosita emas, balki ideallashtirilgan aksi bo‘lib keladi.	it is a system of abstract concepts and considerations, and becomes an idealized reflection of reality, not a direct one.
<b>Irratsionalizm</b>	borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.	a view that denies the possibility of knowing reason rationally.
<b>Ierarxiya</b>	bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko‘ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo‘ysunishi.	the subordination of one thing to another, to a third, etc., according to its functional significance or position of service.
<b>Izotrop</b>	barcha yo‘nalishlarda bir xil.	the same in all directions.

<b>Ideallash</b>	real buyumlar xossalariini o'zgartirish orqali ideal obektlarni hosil qilishning aqliy (hayoliy) jarayoni. Masalan, shu tarzda ideal gaz, mutlaq qattiq jism, siqilmaydigan suyuqlik, moddiy nuqta, jamiyat, bozor kabi tushunchalar yuzaga keladi.	the mental (imaginary) process of creating ideal objects by changing the properties of real objects. For example, in this way concepts such as ideal gas, absolute solid, incompressible liquid, material point, society, market are formed.
<b>Izoh, tushuntirish</b>	fanning eng muhim funksiyasi, predmetlar, hodisalar va voqealarga oid faktlarni muayyan umumiy xulosalar (qonunlar, nazariyalar, prinsiplar) ostida jamlashdan iborat.	the most important function of science is to summarize facts about objects, events, and happenings under certain general conclusions (laws, theories, principles).
<b>Induksiya</b>	(lot. induktio – navedenie) – ko‘pchilik elementlarning belgilari to‘g‘risida ana shu ko‘pchilikdan bir qismining belgilarini o‘rganish asosida mantiqiy xulosa chiqarish, ya’ni xususiy faktlar, qoidalardan umumiy xulosalarga o‘tish, umumlashtirish uslubi. Bunday xulosa doim ishonchli, uzil-kesil emas, balki ehtimoliy yoki haqiqatga yaqin ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shuning uchun zamonaviy mantiq fanida uning tasdiqlanish	(Lat. induktio - navedenie) - a method of generalization about the characteristics of the plural elements, based on the study of the characteristics of a part of the plural, that is, the transition from specific facts, rules to general conclusions. Such a conclusion will always seem plausible, not conclusive, but probable or close to reality. Therefore, in the science of modern logic, its degree of affirmation is considered to be a conclusion close to the truth obtained by means of

	darajasini relevant usullar yordamida olingan haqiqatga yaqin bo‘lgan xulosa deb qaraladi.	relevant methods.
<b>G‘oya</b>	qarashlar, nazariyalar, dunyoqarashlar kabilar tizimida asosiy, belgilovchi (asosiy) qoida.	a basic, defining (basic) rule in the system of views, theories, worldviews, etc.
<b>Kontektsiz elementlar</b>	oddiy, dastlabki xususiyatlar, atributlar, omillar, diskret ma'lumotlar, signallar va boshqalar., o‘rtasidagi munosabatlар muayyan nazariya bilan shakllantirilgan.	simple, the relationship between initial properties, attributes, factors, discrete data, signals, etc., is shaped by a specific theory.
<b>Kauzallik</b>	sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi	the legal relationship of cause, effect, and effect
<b>Kommunikatsiya</b>	(keng ma’noda) – muloqot. Ekzistensializmda – muloqot turi bo‘lib, uning yordamida «Men» o‘zini boshqa odamda topadi.	(in the broadest sense) - communication. In existentialism, it is a form of communication through which the "I" finds itself in another person.

<b>Konsepsiya</b>	biron nimaga nisbatan qarashlar tizimi, asosiy fikrlar yig‘indisi, bunda tadqiqot maqsad, vazifalari aniqlanib, uning olib borish yo‘llari ko‘rsatiladi.	a system of views on something, a set of basic ideas, in which the purpose of the research, the tasks are defined, and the ways of its conduct are indicated.
<b>Konstitutsiyalash</b>	yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.	create, define, give a certain organizational tone.
<b>Lokutiv akt</b>	(D. Ostin tomonidan "nutq hujjatlari" nazariysi tushunchasi) - o‘zini gapirish akti (shuningdek, illokutiv, perlokutivak).	(The concept of the theory of "speech documents" by D. Austin) - the act of self-speech (also illocutive, perlocutive).
<b>Ma’noning tekshirish nazariyasi</b>	mantiqiy empirizm tushunchasi bo‘lib, unga ko‘ra faqat protokol jumlalariga qisqartirilishi mumkin bo‘lgan jumlalar ma’noga ega.	is a concept of logical empiricism, according to which only sentences that can be abbreviated to protocol sentences have meaning.
<b>Materializm –</b>	dunyoning moddiyligidan va ongdan qat’iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo‘nalish.	a philosophical direction that stems from the existence of the world regardless of its materiality and consciousness.
<b>Metafizika –</b>	Gegeldan oldingi va hozirgi G‘arb falsafasida borliqning o‘ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlataladigan atama.	The science of the ultimate emotional principles and foundations of existence in pre-Gegel and modern Western philosophy. A term used as a synonym for philosophy.
<b>Mistika –</b>	sirli, g‘ayritabiyy, tushunarsiz	mysterious, supernatural, incomprehensible thing or phenomenon.

	narsa yoki hodisa.	
<b>Moddiylashtirish –</b>	ma’no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.	semantic structures, schemes, the embodiment of projects in human activity.
<b>Modus –</b>	predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo‘lgan muvaqqat xossasi.	a temporary property of an object peculiar to it only in certain cases.
<b>Monizm –</b>	plyuralizmga zid o‘laroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.	as opposed to pluralism, a philosophical approach that stems from a specific foundation.
<b>Naukometriya –</b>	fanshunoslikning ilmiy axborot tuzilmasi va dinamikasiga oid statistika tadqiqotlari bilan shug‘ullanadigan sohasi.	the field of science engaged in statistical research on the structure and dynamics of scientific information.
<b>Passionar –</b>	ichki energiyaga egalik yoki o‘ta g‘ayratlilik	possession of inner energy or excessive zeal
<b>Permanent –.</b>	doimiy, uzlucksiz	continuous, uninterrupted
<b>Persepsiya –</b>	idrok etish.	perception

<b>Rasionalizm –</b>	aqlni bilish va odamlar xulqatvorining negizi deb e'tirof etadigan falsafiy yo'naliш.	a philosophical orientation that recognizes reason and recognizes it as the basis of human behavior.
<b>Radikal konvensionalizm –</b>	K.Aydukevich tomonidan ishlab chiqilgan ta'limot bo'lib, kuzatish takliflari shartli ravishda qabul qilingan "konseptual asosga" bog'liq va shuning uchun "nazariy neytral" empirik asosni shakllantirmaydi.	It is a doctrine developed by K. Aydukevich that the observational propositions depend on a conditionally accepted 'conceptual basis' and therefore do not form a 'theoretically neutral' empirical basis.
<b>Singulyar (atomar) taklif</b>	bu eng oddiy turdag'i taklif bo'lib, u ob'ektning ma'lum bir xususiyatga ega yekanligini yoki ikki yoki undan ortiq ob'ektning birbiriga nisbatan ma'lum bir munosabatda ekanligini bildirishni nazarda tutadi.	it is the simplest type of proposition, which implies that an object has a certain property, or that two or more objects have a certain relation to each other.
<b>Sakral</b>	muqaddas	holy
<b>Sensualizm</b>	hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qo'yuvchi falsafiy yo'naliш.	a philosophical direction that prioritizes the role of emotional cognition over the importance of rational cognition.
<b>Simvol</b>	biron-bir g'oyani ifodalovchi belgi, obraz.	a character, an image, representing any idea.
<b>Sinkretizm</b>	qismlarga ajralmaganlik, bironbir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil	inseparability, the intermingling of elements of different sexes, which is determined by the defective state of any event.

	jinsli elementlarning aralashuvi.	
<b>Sinergetika</b>	(yunoncha «synergeia», «sinergetikos») birgalikda harakat qilish, hamkorlik, o'zaro muvofiqlashtirgan ta'sir ma'nolariga ega.	(Greek "synergeia", "sinergetikos") means to act together, to cooperate, to co-ordinate.
<b>Texnotron jamiyat</b>	kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.	a society that has entered the stage of the computer revolution.
<b>Transsidental</b>	o'ta umumiy	very common
<b>Universum</b>	yagona Olam, yaxlit dunyo.	a single universe, a unified world.

<b>Falsafa</b>	tushunchasi yunoncha phileo – sevaman va sophia – donolik so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, mazkur atamaning dastlabki ma’nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Falsafa so‘zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o‘tuvchi bilim va inson o‘z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo‘li bilan olishi mumkin bo‘lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.	The concept is derived from the Greek words phileo - love and sophia - wisdom, and the original meaning of the term can be interpreted as love of wisdom. The word philosophy was first used by the ancient Greek philosopher Pythagoras in the sixth century BC to distinguish between knowledge that can be passed on from generation to generation (through myths, legends, traditions) and knowledge that a person can acquire through observation and critical understanding of existence.
<b>Fan</b>	odamlarning real olam to‘g‘risidagi obektiv ma’lumotlarni tizimlashtirishga qaratilgan faoliyat sohasi, tabiat, jamiyat va tafakkurning obektiv qonunlariga oid bo‘lgan, uzlusiz rivojlanib borayotgan bilimlar tizimi. Fan ijtimoiy hodisa, bilimlarning tizimlashtirilgan shakli.	a field of activity aimed at systematizing objective information about the real world of people, a constantly evolving system of knowledge related to the objective laws of nature, society and thought. Science is a social phenomenon, a structured form of knowledge.
<b>Fizikalizm</b>	neo-pozitivizmnning asosiy postulatlaridan biri bo‘lib, u barcha fanlarni universal til (fizika tili) asosida birlashtirish imkoniyatini tasdiqlaydi; "asosiy bayonotlar" sifatida fizik ob’ektlarning kuzatishlarini tasvirlaydigan jumlalar qabul qilinadi.	is one of the main postulates of neopositivism, which affirms the possibility of uniting all sciences on the basis of a universal language (the language of physics); “basic statements” are sentences that describe observations of physical objects.
<b>Fenomen</b>	insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.	a phenomenon given to man in the experience of emotional cognition.
<b>Fenomenologiya</b>	bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta’limot.	a philosophical doctrine of phenomena as ideal essences that can be directly observed.
<b>Fluktuatsiya</b>	o‘zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og‘ish.	change, random deviation from the specified parameters.
<b>Empirik</b>	tajribada ko‘rilgan	seen in experiment
<b>Etimologiya</b>	u yoki bu so‘z yoki iboraning kelib chiqishi.	the origin of this or that word or phrase.

<b>Epistemologiya</b>	(lug‘aviy ma’nosi: grekcha “ilmiy bilim, fan”, “ishonchli bilim”). Bilish haqidagi falsafiy ta’limot, ilmiy bilishni tadqiq etadi. Epistemologiya falsafaning shunday sohasiki, unda bilim tabiatiga va imkoniyatlari, chegarasi va ishonchlilik shartlari tahlil qilinadi. 1832 yildan ilmiy atama sifatida qo‘llanila boshlagan.	(Dictionary meaning: Greek "scientific knowledge, science", "reliable knowledge"). The philosophical doctrine of knowledge explores scientific knowledge. Epistemology is a branch of philosophy in which the nature and possibilities, limits, and conditions of reliability of knowledge are analyzed. It has been used as a scientific term since 1832.
<b>Haqiqat</b>	voqelikning inson ongidagi bilimlariga aynanligi, mosligi.	the accuracy of reality to the knowledge of the human mind.
<b>Xolizm</b>	olamning bir butunligi haqidagi qarash bo‘lib, verifikatsiya tamoyiliga ko‘ra faqat butun tizimning bir qismi sifatida tekshirish mumkin.	is a view of the integrity of the universe, which, according to the principle of verification, can only be verified as part of the whole system.

## I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oly bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.  
4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

## II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunining yangi tahriri. T.: Adolat, 1998.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyul “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ3151-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

PF-5847-sonli Farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797sonli Qarori

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 sentabrdagi “Diniyma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4436-sonli Qarori

### **III. Maxsus adabiyotlar**

21. “Markaziy Osiyo dinlari tarixi” (hammualliflikda). -T., TDShI, 2006.
22. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
23. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
24. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
25. H.Q. Mitchell, Marilena Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015.
- 191.
26. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
27. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
28. Abdulhakim Shar’iy Jo‘zjoniy. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O‘rtta Osiyo faqiqlari. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2002. – 256 b.
29. Abduhalimov B. Bayt al-hikma va O‘rtta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2004. – 236 b.
30. Ali-zade Aydyn Arif ogli. Xronika muslimanskix gosudarstv. – M.: UMAA, 2007. – 445 s.
31. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Yu. i dr. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo sRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
32. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obЩestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

33. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlari: T.1. (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) T.: Fan, 1968.
34. Bosvort K. E. “Musulmon sulolalari”. – T.: “Fan” nashriyoti, 2007. – 271 b.
35. Vohidov Sh., Qodirov A. “Sharqning mashhur sulolalari”. – T.: Akademnashr, 2013. – 624 b.
36. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
37. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – T.: Islom universiteti, 2010.
38. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo’llanma/tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
39. Ignatova N. Yu. Obrazovanie v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.  
[http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf)
40. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
41. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. –T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
42. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston, 2000.
43. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quvmetodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
44. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida.  
[https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3.\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)
45. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo’llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
46. Husniddinov Z.M. “Islom: yo‘nalishlar, oqimlar, mazhablar”. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000 yil.


#### **IV. Internet saytlari**

47. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
48. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
49. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
50. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
51. <http://samdu.uz> – Samarqand davlat universiteti rasmiy sayti

**Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil  
aprel-may oylarida o'tkaziladigan Falsafa yo'nalishi o'quv-uslubiy  
majmualari bo'yicha  
EKSPERT XULOSASI**

Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil aprel-may oylarida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining "Falsafa" yo'nalishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassislik fanlaridan tuzilgan o'quv-uslubiy majmualar va chiqish testi savollari maxsus fanlar blokidagi modullarning o'quv dasturiga mos va uni to'liq qamrab olgan holda tuzilgan. Test savolari 4 ta muqobil javobda tuzilib, 1 ta to'g'ri javobni o'z ichiga oladi. O'quv-uslubiy majmua va test savollari qo'yilgan talablarga javob beradi.

**Ekspertlar**

Karimov Soibnazar	SamDU, Falsafa kafedrasi mudiri, f.f.d.	
Allayarova Marxabo	SamDU, Falsafa kafedrasi dotsenti, f.f.n.	
Meliyev Baxtiyor Abduxomidovich	SamDU mintaqaviy markaz bo'lim boslig'i, g.f.f.d.	

**Mintaqaviy markaz direktori,  
geografiya fanlari doktori, professor:**

**S.B.Abbasov**

## ЭКСПЕРТНОЕ ЗАКЛЮЧЕНИЕ

**Об учебно-методических комплексах по направление  
Философия, которые пройдут в апреле 2022 года в Региональном  
центре переподготовки и повышения квалификации педагогических  
кадров при Самаркандском государственном университете**

В апреле 2022 года Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете проведет курс переподготовки и повышения квалификации преподавателей высших учебных заведений по направлению «Философия». Учебно-методические комплексы соответствуют с учебным планом модулей специального научного блока и полностью охватить его. Учебно-методические комплексы соответствуют современным требованиям.

**Зарубежный эксперт:**

Кандидат философских наук, доцент кафедры культурологии ГОУ «Худжандского государственного университета имени Б.Гафурова»



**Усанов Р.Т**